



PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

# ADABIYOT

# 11



PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov,  
Jamoliddin Nurmuhammadov

# Adabiyot

Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi  
ijod maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun darslik

*Birinchi qism*

**O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligi  
huzuridagi ilmiy-metodik kengashi tomonidan tasdiqlangan**

Toshkent  
2022

**Mas'ul muharrir:**

**Baxtiyor Nazarov** – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi

**Taqrizchilar:**

**Ulug'bek Hamdamov** – filologiya fanlari doktori, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim mudiri

**Gulbahor Begmuratova** – Nukus shahridagi Prezident maktabi o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

**Zulfiyaxon Rashidova** – Toshkent shahridagi Prezident maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Filologiya fanlari doktori, professor **Zulxumor Mirzayevaning** umumiy tahriri ostida

Mazkur darslik Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi ijod maktablarining 11-sinfi uchun darslik sifatida tasdiqlangan. Unga Agentlik tizimidagi ijod maktablarining o'quv dasturida belgilangan badiiy asarlar kiritilgan va Davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan kompetensiyalarni rivojlantirishga urg'u berilgan. Kitobda Britaniya, AQSH, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlarning adabiy ta'limidagi ilg'or tajribalarga tayanildi va badiiy asar tahlilidagi yangicha yondashuvlar ilk marotaba o'quvchilarga taqdim etildi.

Darslik o'quvchini badiiy so'zning sehrli olamiga olib kirishda, adabiyotga qiziqtirishda va adabiy ta'lim mazmunini samarali tashkil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, deb umid qilamiz.

Darslik ikki qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismiga o'quv yilining birinchi yarmida o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular kiritilgan.

**Barcha huquqlar himoya qilingan:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari agentligining yozma ruxsatisiz ko'paytirish, tarqatish, qisman yoki to'liq ko'chirish taqiqlanadi.**

## Aziz o'quvchi!

Mana, qadrdon maktabingizdagi so'nggi yilni boshlab oldingiz. Adabiyot saboqlari bu yil ham sizga hamroh bo'ladi. Siz bilan o'zbek va jahon adabiyotining oxirgi bir asrlik taraqqiyotiga nazar tashlaymiz, bu davr ichida adabiyot tarixida muhim iz qoldirgan asarlarni mutolaa va muhokama qilamiz. Yil davomida biz bilan birga bo'ladigan adiblarning ayrimlari sizga tanish, qadron bo'lib qolgan, ayrimlari bilan esa endi tanishasiz, ularni o'zingiz uchun kashf qilasiz.

Yana biz siz bilan birga avval o'rgangan nazariy bilimlarimizni tizimlashtiramiz va yanada chuqurlashtiramiz, yangi nazariy tushunchalar yordamida o'qigan va o'qiyotgan asarlarimizni tahlil qilamiz. Ijod olamiga ham sayohat qilamiz – kichik taqrizlar, annotatsiyalar, hikoyalar yozishni mashq qilamiz.

Umid qilamizki, maktabdagi so'nggi yilingiz adabiyot saboqlari yanada qiziqarli, foydali, unutilmas bo'ladi va eng muhimi, kitobga, adabiyotga, san'atga, ijodga oshnolik shu bilan tugamaydi – mustaqil hayotda qaysi kasbni tanlashingizdan qat'iy nazar, go'zallik va badiiy san'at doimiy hamrohingiz bo'ladi.



## ADABIYOT VA SAN'AT

### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- adabiyotning boshqa san'at turlaridan farqli, **o'ziga xos xususiyatlarini** tadqiq qilamiz.

### **O'YLAB KO'RING:**

San'at siz uchun nima? Qanday san'at turlarini bilasiz? San'at asaridan siz nimani **kutasiz** va shu kutgan narsangizni har doim ham olasizmi?

San'at – mo'jizadir. Yurak va miyaning shunday xilvat joylari borki, unga faqat san'at vositasidagina kirish mumkin.

*Abu Ali ibn Sino*



Adabiyot — fikr, tuyg'ularimizdagi to'liqlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'liqlarni yaratmoqdir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shu bilan yozilgan asarlarga adabiy asar deyiladi.

*Abdurauf Fitrat*



Adabiyot — ko'ngil ishi, ilhom samarasi. Tuyg'usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o'xshaydi — meva tugmaydi. Ko'ngil rozi bo'lgan asargina kitobxonning ko'ngliga yo'l topadi, kitobxonning ko'nglida meva tugadi.

*Abdulla Qahhor*



Inson yuragi ham bir olam. Uning ham bahor va kuzlari, tong va tunlari, orom va zilzilalari bor. She'riyat yurak sadosi bo'lganidan ana shu murakkab tuyg'ular olamini ifoda qiladi. Shuning uchun ham bir she'rni o'qib quvonsak, ko'ksimiz g'urur va iftixor tuyg'ulariga to'lsa, ikkinchi bir she'rni o'qib, xayolga tushamiz, inson dardlariga oshno bo'lamiz. Ishontira olish — iste'dodning ibtidosi.

*Erkin Vohidov*





Badiiyat maqsadlarini (matematiklar aytganidek) ijtimoiyat mezonlari bilan o'lchab bo'lmaydi. San'atkorning maqsadi o'tkir muammolarni uzil-kesil yechib berishdan iborat emas, balki butun murakkabligi, bitmas-tuganmas qirralari bilan hayotni sevishga da'vat etishga qaratilgandir.

*Lev Tolstoy*




### TAHLIL QILING:

Adabiyot, san'at haqida berilgan fikrlarda qanday **umumiy g'oyani** ko'rdingiz? Siz bu qarashlarga qay darajada qo'shilasiz?

Guruhlarda ishlang. G'afur G'ulomning «Vaqt» she'ri, mashhur ispan rassomi Salvador Dalining «Xotira doimiyligi» («Vaqtning oqishi») asari, zamonaviy rumin haykaltaroshi Ion Mandreskuning «Inson, vaqt, makon» skulpturasi va rus bastakori Georgiy Sviridovning «Vaqt, olg'al» musiqasini qiyoslang. Vaqt motivi **turli xil badiiy san'atga** xos asarlarda qanday uslubda yoritilganiga e'tibor bering.

Badiiy adabiyot san'atning boshqa turlaridan (rassomchilik, haykaltaroshlik va hokazo) **qaysi jihatlari** bilan farq qilishini o'ylab ko'ring. **Adabiyotga xos xususiyatlarni** aniqlashga harakat qiling. Fikrlaringizni G'afur G'ulomning she'ri misolida izohlang.



«Xotira doimiyligi»  
(«Vaqtning oqishi»),  
Salvador Dali (1931-yil)



## VAQT

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni  
Kapalak umriga qiyos etgulik,  
Ba'zida bir nafas olgulik muddat –  
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.  
Yashash soatining oltin kapkiri  
Har borib – kelishi bir olam zamon.  
Koinot shu damda o'z qo'rasidan  
Yasab chiqa olur yangidan jahon.  
Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib,  
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor;  
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam  
qimmat,  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.  
Bir onning bahosin o'lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.

Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
Barini tutolmas ayuhannos ovoz.  
Yigit termuladi qizning ko'ziga,  
Kiprik suzilishi, mayin tabassum...  
Qo'sha qarimoqqa muhr bo'ladi  
Hayotda ikki lab qovushgan bir zum.  
Har lahza zamonlar umridek uzun,  
Asrlar taqdiri lahzalarda hal.  
Umrndan o'tajak har lahza uchun,  
Qudratli qo'l bilan qo'yaylik haykal.  
Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.  
Quyoshki falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

*G'afur G'ulom, 1945-yil*



«Vaqt, olg'al!»,  
Georgiy Sviridov (1968-yil)



*«Inson, vaqt, makon», Ion Mandresku (2008-yil)*

Muhokamalaringiz asosida quyidagi jadvalni davom ettiring va sinfda taqdimot qiling.

San'atning barcha turlariga xos umumiy xususiyatlar	Badiiy adabiyotga xos bo'lgan xususiyatlar
Voqelikni (voqelikka munosabatni) obrazlar vositasida aks ettiradi	Obrazlar <b>so'z</b> yordamida yaratiladi
Estetik zavq bag'ishlaydi	




# Abdulla Qodiriy

(1894–1938)

## «O'TKAN KUNLAR»:

### O'ZBEK ADABIYOTINING SHOH ROMANI




#### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- «O'tkan kunlar» romanini g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy-majoziy mazmuni va obrazlar mohiyati nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz;
- «O'tkan kunlar»ning o'zbek va jahon adabiyotshunosligidagi ahamiyatiga baho beramiz;
- roman kompozitsiyasini tahlil qilamiz.

«**S**haxsiy butunlik, mustaqil shaxsiyat qullik bilan ziddir. Shaxsiy butunligi bo'lmog'on, ya'ni o'zida haqiqatni ixtiyor qila bilish kuchi topilmag'on ojiz, ixtiyorsiz odamlar jamiyat uchun foydalik va chin a'zo bo'lolmaslar. Chunki aksar munofiqlik va maydalik ixtiyorsiz ham o'ziga ishonchsiz kishilardagina gavdalanishi ilmiy ravishda isbot qiling'ondir ...

... shu kungacha manim mezonim vijdonim bo'lib keldi, bundan keyin ham jilovim o'shaning qo'lida... Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir ...

Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan,  
1926-yil



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bogʻbon oilasida dunyoga keldi. U dastlab musulmon, soʻngra rus-tuzem maktabida, keyinchalik Abulqosim shayx madrasasi va Moskvadagi jurnalistlar institutida taʼlim oldi. Madrasa ijodkorning islom ilmi, arab va fors tillarini mustaqil oʻzlashtirishi uchun zamin hozirlagan boʻlsa, rus-tuzem maktabi Qodiriy uchun rus va jahon adabiyoti, madaniyati eshiklarining ochilishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Abdulla Qodiriy oilasidagi iqtisodiy muammolar sabab har xil kasblarni egallashga majbur boʻldi, mahalliy savdogarlar qoʻlida va turli tashkilotlarda kotiblik, gazeta va jurnallarda muharrirlik qildi. Hozirgacha nashr qilinayotgan «Mushtum» satirik jurnalini tashkil qilishda faol qatnashdi.

U oʻz ijodiy faoliyatini 1910-yillardan boshladi va asarlari Turkiston vaqtli matbuotida Julqunboy, Ju-boy, Dumbulboy, Dumbulnisa, Kalvak Mahzum, Toshpoʻlat tajang, Ovsar kabi maxfiy imzolar bilan nashr etildi.

Abdulla Qodiriy oʻz asarlarida shoʻro davri siyosati, mafkurasining asl mohiyati haqidagi ochiq tanqidiy fikrlari, ozodlik haqidagi gʻoyalri uchun «aksilinqilobiy harakat qilganlik»da ayblanib, 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olindi va 1938-yilning 4-oktabrida Toshkent shahrida Choʻlpon va boshqa millatparvar ziyolilar bilan bir kunda otib oʻldirildi. Toshkentdagi Xoʻja Alambardor (Kamolon) qabristoniga dafn etilgan.

Abdulla Qodiriy nomi vafotidan keyin oqlandi. U 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti, 1994-yilda «Mustaqillik» ordeni bilan taqdirlandi. 1990-yilda Oʻzbekistonning birinchi Prezidenti farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti taʼsis etildi.

### ASARLARI

- ❖ «Toʻy», «Millatimga», «Ahvolimiz», «Fikr aylagil» sheʼrlari (1910-yillar)
- ❖ «Baxtsiz kuyov» pyesasi (1915)
- ❖ «Juvonboz» (1915), «Uloqda» (1916), «Jinlar bazmi» hikoyalari
- ❖ «Obid ketmon» qissasi (1934)
- ❖ «Toshpoʻlat tajang nima deydi?», «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» satirik asarlari
- ❖ «Oʻtkan kunlar» (1924-1926), «Mehrobdan chayon» (1929) romanlari
- ❖ Gogolning «Uylanish» (1935), Chexovning «Olchazor» (1936) pyesalari tarjimalari

## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qishga hozirlanayotgan asar – «**O'tkan kunlar**» ilk o'zbek romani bo'lib, unda Turkiston xalqining XIX asr ikkinchi yarmidagi og'ir kechmishi, millat taqdiri, mustaqillik haqida so'z boradi. Asar voqealari 1850-yillarda Qo'qon xonligida, Xudoyorxon hukmronligi davrida bo'lib o'tadi.

### ESLANG:

Hozirgi O'zbekiston hududida XIX asrda qanday xonliklar mavjud edi?

Xonliklarning davlat sifatida zaiflashishi va Turkiston o'lkasining **mustamlakaga** aylanishining eng muhim sabablari nimada edi?

### ASARNING YOZILISH TARIXI

«O'tkan kunlar» romani 1922-yilda yozilgan va dastlab «Inqilob» jurnalida parcha holatida nashr etilgan. Adibning oilaviy muhiti, Qodiriy ota aytib bergan hikoyalar, ijodkor yashagan davr ijtimoiy muhiti, mustamlakachilik ortidagi adolatsizliklar va, albatta, Qodiriyning millat oldidagi mas'uliyati, majburiyati, e'tiqod butunligi mazkur romanning yozilishida muhim omillardan bo'lib xizmat qilgan.

«**M**odomiki, biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o'xshash dostonchilik, ro'monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishg'a, xalqimizni shu zamonning «Tohir-Zuhra»lari, «Chor darvesh»lari, «Farhod-Shirin» va «Bahromgo'r»lari bilan tanishdirishka o'zimizda majburiyat his etamiz... Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar. Shunga ko'ra mavzuni moziydan, yaqin o'tkan kunlardan, tariximizning eng kirlik, qora kunlari bo'lg'an keyingi «xon zamonlari»dan belguladim. ...»

Abdulla Qodiriy

### FIKR YURITING:

Nima uchun Abdulla Qodiriy ilk o'zbek romanini yaratishda tarixga murojaat qilib, mavzuni «yaqin o'tgan kunlardan, keyingi xon zamonlaridan» belgiladi? Nega yozuvchi bu davrni «tariximizning **eng kirlik, qora kunlari**» deb ataydi? Asar mutolaasidan so'ng bu savolga qaytib, uni yana muhokama qiling.

### TADQIQ QILING:

«O'tkan kunlar» o'zbek adabiyotida yangi adabiy hodisa, milliy romanchilikning eng go'zal namunasi, kuchli realistik asar sifatida e'tirof etiladi. Sizningcha, romanning **yana qanday xususiyatlari** uni **zamonaviy** kitobxonning ham eng sevimli asarlaridan biriga aylantirdi? Asarni o'qish davomida ushbu savolga javob topishga harakat qiling va fikrlaringizni matn asosida isbotlang.

## O'TKAN KUNLAR

### BIRINCHI BO'LIM

#### 1. OTABEK YUSUFBEK HOJI O'G'LI

1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiyga qaratib qurilgan bu dongdor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qarag'anda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xaxolab kulishishlari saroyni ko'kka ko'targudek.

Saroyning to'rida boshqalarga qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiyiz to'shalgani holda, bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda.

Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshlik va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarlik edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'lturg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bulgan Yusufbek hojining o'gli — Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidagi kimdandir so'radi:

– Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko'rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir, ikkinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi. Bu yigit yaxshig'ina davlatmand bo'lsa ham. lekin shuhrati nima uchundir boylig'i bilan bo'lmay, «Homid xotinboz» deb shuhratlangan, kishilar Homid orqasidan so'zlashkanda uning otig'a taqilgan laqabni qo'shib aytmasalar, yolg'iz «Homidboy» deyish ila uni tanita olmaydirlar. Homidning Otabek bilan tanishlig'i bo'lmasa ham Rahmatka yaqin qarindosh — Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog'asi.





Ular hujraga kelib kirdilar. Otabek kelguchilarni ulugʻlab qarshiladi.

– Bizni kechirasiz, bek aka, – deb Rahmat uzr aytdi, – vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.

Otabek ularga yuqoridan joy koʻrsatar ekan, yoqimlik bir vaziyatda:

– Tinchsizlamadingizlar, bilʼaks quvontirdingizlar, – dedi, – shahringizga birinchi martaba kelishim boʻlgʻani uchun tanishsizlik, yolgʻizlik meni juda zeriktirgan edi.

Shu orada hujraga bir chol kirib ul ham mehmonlar bilan soʻrashib chiqdi. Bu chol Hasanali otliq boʻlib, oltmish yoshlar chamasida, choʻziq yuzlik, doʻnggiroq peshanalik, sariqqa moyil, toʻgarak qora koʻzlik, oppoq uzun soqollik edi. Soqolining oqligʻiga qaramasdan uning qaddida keksalik alomatlari sezilmas va tusida ham uncha oʻzgarish yoʻq edi.

Otabek mehmonlarni tanchaga oʻtquzib, fotihadan soʻng Hasanalidan soʻradi:

– Tuzikmisiz, ota?

– Xudoga shukur, – dedi Hasanali, – boyagʻidan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan.

– Baʼzi yumushlar buyursam...

– Buyuringiz, oʻgʻlim.

– Rahmat, ota, boʻlmasa bizga choy qaynatib bersangiz-chi.

– Xoʻb, begim.

Hasanali chiqdi. Rahmat Otabek bilan yana bir qaytib sogʻliq soʻrash-qandan keyin soʻradi:

– Bu kishi kimingiz boʻladir, bek aka?

Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib soʻngra javob berdi:

– Qulimiz.

Bu soʻzdan nima uchundir Homid ajablangan edi.

– Qulingiz?

– Shundogʻ.

Hasanalini bolaliq vaqtida Erondan kishi oʻgʻirlab kelguchi bir turkman qoʻlidan Otabekning bobosi oʻn besh tillo barobariga sotib olgan edi. Hasanalining Otabeklar oilasida qulliqda boʻlgʻanigʻa elli yillar chamasi zamon oʻtib, endi Otabeklar oilasining chin bir aʼzosi boʻlib ketkan. Xoʻjasi Yusufbek hojiga, ayniqsa, xoʻjazodasi Otabekka itoat va ixlosi tom boʻlib, buning evaziga ulardan ham ishonch va hurmat koʻrar edi. Hasanali oʻttuz yoshliq vaqtida sotib olgʻan bir choʻriga uylantirilgan boʻlsa ham, ammo oʻgʻil-qizlari boʻlmagʻan, boʻlsalar ham yoshliqda oʻlib ketkanlar. Shuning uchun boʻlsa kerak, Otabekka ixlos qoʻyib, unga oʻz bolasi kabi qarar: «Oʻlganimdan keyin ruhimga bir kalima Qurʼon oʻqusa, bir vaqtlar Hasanali ota ham bor edi, deb yodlasa, menga shunisi kifoya», deb qaror bergan va



hozirdan boshlab Otabekka bu to'g'rida siporishlar berib, undan samimiy va'dalar olib yurg'uchi oqko'ngil bir qul edi.

Hasanali ustida bo'lg'an haligi gapdan keyin Rahmat so'radi:.

– Toshkanddan nimalar keltirdingiz, bek aka?

– Arzimagan narsalar: gazmol, qalapoy afzali va biroz qozon.

– Marg'ilonda gazmol bilan qalapoy afzalining bozori chaqqon, – dedi Homid.

Otabek miqrozi bilan sham' so'xtasini kesib tuzatdi. Orada yotsirashka o'xshash bir hol bor, nima uchundir bir so'zlab ikki to'xtar edilar. Bu o'ng'aysiz holatdan chiqish va so'zni so'zg'a ulab yuborish uchun Rahmat tirishkandek ko'rinar edi.

– Marg'ilonni qanday topdingiz, bek aka, xushlandingizmi, yo?..

Bu savolning javobiga Otabek ikkilangandek va o'ng'aysizlang'andek bo'ldi.

– Nima desam ekan... Marg'ilonni har holda... xush ko'rdim, Marg'ilon Turkistonimizning to'qug'uchilik hunarida birinchi shahridir.

Ikkilanib berilgan bu javobdan Homid bilan Rahmat bir-birlariga qarashib oldilar. Otabek bu holatni sezdi va o'zining so'zini kulgulikka olib izoh berdi:

– Kelgan kunimdan Marg'iloningizni xushlamay boshlag'an edim. Chunki tanishlarim yo'q, musofirchilik bilinib qolayozg'an edi. Endi bu soatdan boshlab Marg'ilondan roziman, negaki, yo'qlab kelguchi sizning kabi qadrdonlar ham bo'lur ekan.

– Kechiringiz, bek aka, – dedi Rahmat, – men sizning Marg'ilon kelganingizni bu kun otamdan eshitdim. Yo'qsa, albatta, sizni zeriktirmas edim.

– Aniqmi?

– To'g'ri gap, – dedi Rahmat, – otam Toshkand borg'anlarida to'ppa-to'g'ri sizning eshikingizga tushsinlar-da, siz saroyga tushing. Bu taraf bilan sizdan o'pkani biz qilsaq arziydir.

– Haqqingiz bor, – dedi Otabek, – ammo birinchidan, sizning havlingizni so'rog'lab topish menga qiyinroq ko'rindi, undan so'ng molimizni ortg'an tuyakashlar shu saroyg'a tayinlang'an edi-lar.

– Har holda bu uzr emas.

Hasanali dasturxon yozib qumg'on kirgizdi. Odatiy takalluflar bilan dasturxon va choyga qaraldi. Homid nonni shinniga bulg'ar ekan, so'radi:

– Yoshingiz nechada, bek?

Otabekning labi qimirlamasdan choy quyib o'tirgan Hasanali javob berdi:

– Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna bo'lsa to'ppa-to'g'ri yigirma to'rt yoshga qadam qo'yadilar.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdimmi, ota? — dedi bek. — Chindan ham necha yoshga kirganimni o‘zim bilmayman.

– Yigirma to‘rt yoshga kirdingiz, bek.

Homid tag‘in so‘radi:

– Uylanganmisiz?

– Yo‘q.

Hasanali Otabekning yolg‘iz «yo‘q» bilan to‘xtashig‘a qanoatlanmadi va bu to‘g‘rida o‘z tomonidan izohlar berishni lozim ko‘rdi:

– Bek uchun bir necha joylarga qiz aytdirmak istalangan bo‘lsa ham, — dedi, — avval taqdir bitmaganlik, undan keyin bekning uylanishka bo‘lg‘an qarshiliqlaridan bu kungacha to‘y qilolmay kelamiz. Ulug‘ xo‘jamizning qat‘iy niyatlari bu safardan qaytg‘ach, bekni uylandirishdir.

– Manimcha, uylanishdek nozik bir ish dunyoda yo‘qdir, — dedi Rahmat va Otabekka yuz o‘girdi. — Uylangach, xotining tabingga muvofiq kelsa bu juda yaxshi; yo‘qsa, munchalik og‘ir gap dunyoda bo‘lmas.

Otabek Rahmatning bu so‘zini samimiyat bilan qarshiladi.

– So‘zingizning to‘g‘rilig‘ida shubha yo‘q, — dedi, — ammo shuni ham qo‘shmoq kerakki, oladiring‘on xotiningiz sizga muvofiq bo‘lishi barobarida er ham xoting‘a muvofiqqat bo‘lsin.

– Xoting‘a muvofiq bo‘lish va bo‘lmasliqni uncha keragi yo‘q, — dedi Homid e‘tirozlanib, — xotinlarga «er» degan ismning o‘zi kifoya... Ammo jiyan aytkandek, xotin degan erga muvofiq bo‘lsa bas.

Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzolik tabassum orasi Homidga ko‘z qirini tashladi.

– Uylanishdagi ixtiyorimiz, — dedi Rahmat, — ota-onalarimizda bo‘lg‘anliqdan, oladiring‘an kelinlari o‘g‘illarig‘a yoqsa emas, balki uning ota-onalari o‘zlariga yoqsa bas. Bu to‘g‘rida uylanguchi yigit bilan er qilg‘uchi qizning lom-mim deyishka haq va ixtiyorlari bo‘lmay, bu odatimiz ma‘qul va mashru ishlardan emasdir. Masalan, men: ota-onamning yoqdirishlari bilan uylandim... Ammo xotinem ota-onamg‘a muvofiq bo‘lsa ham menga muvofiq emas, siz aytgandek, ehtimol, men ham xotining‘a muvofiq emasdirman... So‘zingiz juda to‘g‘ri, bek aka.

Otabek Rahmatning so‘zini ixlos bilan eshitdi va «sen nima deysan?» degandek qilib Homidga qaradi.

– Jiyan, — dedi Homid Rahmatka qarab, — boshlab uylanishing, albatta, ota-onang uchun bo‘lib ulardan ranjib yurishingni o‘rni yo‘q. Xotining ko‘nglingga muvofiq kelmas ekan, muvofiqini olib, xotinni ikki qil. Bunisi ham kelishmasa, uchunchisini ol. Xotinem muvofiq emas deb zorlanib, hasratlanib yurish er kishining ishi emas.

Rahmat Otabekka kulimsirab qaradi-da, tog‘asig‘a javob berdi:



– Xotin ko‘paytirib, ular orasida azoblanishning nima hikmati bo‘lsin? – dedi. – Bir xotin bilan muhabbatlik umr kechirmak, menimcha, eng ma‘qul ish. Masalan, ikki xotinliqning bittasi sizmi? Uyingizda har kuni janjal, bir daqiqa tinchlig‘ingiz yo‘q.

– Seningdek yigitlar uchun, albatta, bitta xotin ham ortiqchaliq qiladir, – deb kuldi Homid. – Ko‘b xotin orasida azoblanish o‘zi nima degan so‘z? Qamchiningdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan. Men bu kungacha ikki xotin o‘rtasida turib janjalg‘a to‘ygunimcha yo‘q, ammo xotinni uchta qilishg‘a ham o‘yim yo‘q emas.

– Sizga taraf yo‘q, tog‘a. Homid mag‘rur bir tusda Otabekka qaradi. Otabek uning so‘zidan kulimsiragan edi.

Hasanali palovg‘a urnash uchun tashqariga chiqdi. Otabek mehmonlarga choy quyib uzatdi. Homidning haligi so‘zidan keyin oradag‘i bahs kesilgan edi. Uchavlari ham bir narsaning xayolini surgandek ko‘rinar edilar. Bir necha vaqt shu holda qolishib Rahmat tog‘asidan so‘radi:

– Mirzakarim aka qizini erga berdimi, eshitdingizmi?

Bu savoldan nima uchundir Homidning chehrasi buzildi va tilar-tilamas javob berdi:

– Bundan xabarim bo‘lmadi. Gumonimcha, bermagandir.

Rahmat so‘zdan chetda qoldirmas uchun Otabekni ham orag‘a oldi:

– Bizning Marg‘ilonda bir qiz bor, – dedi, – shundog‘ ko‘hlikki, bu o‘rtada uning o‘xshashi bo‘lmas, deb o‘ylayman.

Homid bir turlik vaziyatda yer ostidan jiyaniga qaradi. Tog‘asining holidan xabarsiz Rahmat so‘zida davom etti:

– Shahrimizda Mirzakarimboy otlig‘ bir savdogar kishi bor, bu shuning qizidir. Balki, siz Mirzakarim akani tanirsiz, u bir necha vaqt Toshkanda qutidorliq qilib turg‘an ekan?

– Yo‘q... Tanimayman.

Homidning yuzidagi boyag‘i holat yana ham kuchlanib go‘yo toqatsizlang‘andek ko‘rinar edi, Rahmat davom etti:

– Uning havlisi poyafzal rastasining burchagidagi imoratdir. O‘zi davlatmand bir kishi; Toshkand ashroflarining ko‘blari bilan aloqador bo‘lg‘anliqdan, balki, otangiz bilan tanish chiqar.

– Ehtimol, – dedi Otabek va nima uchundir g‘ayriixtiyoriy bir tebrandi. Uning yuzida bir o‘zgarish va vujudida bir chayqalish bor edi. Undagi bu o‘zgarishdan Rahmat xabarsiz bo‘lsa ham, ammo Homid uni yer ostidan ta‘qib etar edi. Bu ta‘qib Otabekdagi haligi o‘zgarishni payqabmi yoki tasodifiymi edi, bu to‘g‘rida bir mulohaza aytish, albatta mumkin emas. Yana bir necha vaqt jim qoldilar.

– Endi biznikiga qachon mehmon bo‘lasiz, bek aka?

Rahmatning bu so‘zi bilan Otabek xayolidan bosh ko‘tardi:



- Xudo xohlag‘an vaqtda bo‘larmiz...
- Yo‘q, bek aka, – dedi Rahmat, – siz aniqlab bir kunni tayin qilingiz, biz bu yerga sizni taklif qilg‘ali kelganmiz.
- Ovora bo‘lmoqning nima zarurati bor?
- Bunda ovora bo‘lish degan narsa yo‘q. Iloji bo‘lsa sizni bu saroydan havlig‘a ko‘chiramiz. Hozirga bir kunni tayin qilib bizga mehmon bo‘ling-chi... Otam sizning bilan o‘lturishib Toshkand ahvoloti to‘g‘risida so‘zlashmakka mushtoqdirlar.
- Bu saroydan sizlarnikiga ko‘chishim og‘ir, – dedi Otabek, – ammo otangizning ziyoratlariga borishg‘a har qachon hozirman.
- Sog‘ bo‘ling, bek aka, boradig‘an kuningizni tayin qila olasizmi?
- Ma‘lumingiz, kechalari bo‘sh bo‘laman, shuning bilan birga otangiz qaysi vaqtni ixtiyor qilsalar ijobat etishdan o‘zga choram bo‘lmas.
- Salomat bo‘lingiz, – dedi Rahmat, – shuni ham sizdan so‘rayin: o‘lturishka begona kishilar ham aytilsa mumkinmi, ozor chekmasmisiz? Chaqirilg‘anda ham o‘zimizga yaqin va ahl kishilar bo‘lur, masalan, Mirzakarim qutidor kabi.
- Bu vaqt Otabekning tusiga ham haligidek o‘zgarish chiqdi ersa-da, lekin sezdirmaslikka tirishib javob berdi:
  - Manim uchun farqsiz.
  - Oshdan so‘ng mehmonlar bilan xayrlashib chiqdilar.

## LUG‘AT



- dalv** (oy nomi) – 22-yanvar – 22 fevral
- utta** – u yerda
- tom** – to‘la, to‘liq
- siporish** – topshiriq
- qalapoy abzali** – oyoq kiyimi
- miqrozi** – sham so‘xtasini kesadigan kichkina qaychi
- hamduna** – maymun yili
- muvofigutta‘b** – ta‘bga mos, muvofig
- mashru‘** – shariat qonunlari yo‘l qo‘yadigan, shar‘iy
- ashrof** – izzat-obro‘li, ulug‘

## SAVOLLAR



1. «1264-nchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...»  
Sizningcha, asarning «**qish kunlari**», «**quyosh botishi**», «**shom azoni**» bilan boshlangan ilk jumalari uning umumiy badiiy-g'oyaviy mazmunida qanday ahamiyat kasb etadi deb o'ylaysiz? Asarni to'liq o'qib bo'lgandan keyin bu savolga qaytib yana muhokama qiling. Fikringiz qay darajada o'zgardi?
2. Quyidagi Otabek joylashgan hujra tasviri aks etgan matnni qayta o'qing. Bu o'rinda muallif qanday **badiiy tasvir vositasidan** foydalangan? Nega aynan shu vositaga murojaat qilgan?  
«Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiyiz to'shalgani holda, bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda».
3. Otabek **xarakteriga** xos xususiyatlarni beshta sifat bilan tasvirlang va fikrlaringizni matndan misollar keltirib asoslang.
4. Asarning birinchi bobidan **Otabek** va **Homid** o'rtasidagi ziddiyatli suhbat aks etgan o'rinlarni toping. Mazkur ziddiyat asar davomida qanday rivojlanadi deb o'ylaysiz? Asarni to'liq o'qib bo'lgach, obrazlar o'rtasidagi konflikt rivojiga doir farazlaringizni qiyoslang. Nimalar o'zgardi?

Asarning to'liq matnini o'qib chiqing.



pdf kitob  
Ziyouz kutubxonasi



radiodrama (audio)  
Ziyouz kutubxonasi

## BIRINCHI BO'LIM

**Azizbek** – Toshkent hokimi. XIX asrda Toshkent shahri Qo'qon xonligi tarkibida bo'lgan.

**Musulmonqul** – Qo'qon xoni Xudoyorxonning qaynotasi.

**Qushbegi** – harbiy qo'shinning boshlig'i.

**Qo'rboshi** – qurol-yarog' ombori (qo'r) mutasaddisi hamda qurol-aslaha, turli yaroqlar va to'p yasash korxonalari (qo'rxona) boshlig'i.



*Qo'qon xoni Xudoyorxon. 1875-yilda taxtdan ag'darilgan. 1876-yilda esa Qo'qon xonligi Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi bilan davlat sifatida tugatilgan.*

## SAVOLLAR



1. Otabek Shamaydan qaytgach, ruslarning idora qurilishi, qo'shin kuchi haqida ko'rgan-bilganlarini Qo'qon xonligidagi tanish-bilishlariga aytganda, unga xayrixohlar topilmaydi. Shunda u «darhaqiqat, **mozoristonda «hayya alalfalah» xitobini kim eshitar edi**», – degan xulosaga keladi. Yozuvchining mozoristonga murojaatida qanday ramziy ma'no yashiringan? Bu asarning umumiy g'oyasiga qanday xizmat qilyapti?
2. Otabek nima uchun Hasanalini o'zining «**ma'naviy otasi**» deb biladi? Fikringizni izohlashda matndan dalillar keltiring.
3. «O'tkan kunlar» romanining datslabki, masalan, «Bek oshiq», «Marg'ilon havosi yoqmadi» kabi boblarida yozuvchi voqealarning ma'lum bir jihatini sirli bayon qiladi. Matndan ana shu «sirli tasvirlar» mavjud o'rinlarni toping va jadvalni to'ldiring.

Bob nomi	Bobda yashiringan voqea	Voqeani «sirli» tasvirlashga yordam beradigan lavhalar
«Bek oshiq»	Otabekning Kumushni uchratib, sevib qolganligi	Otabekning parishonxotirligi, rihyatidagi o'zgarishlar

- Romanning «Chaqimchilik» bobida Homid Otabek va uning qaynotasi Mirzakarim qutidorni buzg'unchilikda ayblab, qo'rboshi huzuriga boradi va pora evaziga o'z maqsadiga yetadi. Shu o'rinda qo'rboshi **pora olmaganida** voqealar qanday tus olishi mumkin edi?
- Otabek va Mirzakarim qutidorga qatl hukmi berilgani sizga qanday ta'sir qildi? Sizga kimdir tuhmat qilsa, qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?
- Mutolaa qilingan boblardagi yetakchi **g'oyalarni** aniqlang va ular nimaga xizmat qilayotganini izohlang.
- O'qigan boblaringizdagi **ijtimoiy-maishiy muammolarning** qaysi jihatlari bugungi hayotimizda ham uchraydi? Bu muammolarning asl ildizlari nimalarga borib taqaladi?



«O'tkan kunlar» audiokitobi muqovasiga ishlangan surat. Asarni o'qish davomida Otabek Kumushni birinchi marta ko'rgan joyi siz qanday tasavvur qildingiz?



## IKKINCHI BO'LIM

### SAVOLLAR



1. Siz uchun **ota-ona orzusi** nima? Ota-ona orzusini ro'yobga chiqarmoq farzand uchun farz deb o'ylaysizmi? Otabek ota-onasi orzusini ro'yobga chiqarishga **qarshilik** qilishi mumkinmidi?
2. «...Muhabbat **baxtli** kishilar uchun **yaxshidir**, lekin o'z tajribamcha, **baxtsiz** kishi uchun **badbaxtlikdir**». Usta Alimning Otabekka aytgan ushbu gaplarini qanday tushundingiz? Fikrlaringizni roman qahramonlari taqdiri misolida izohlang.
3. Otabek Homid, Sodiq va Jannatning Kumushni o'g'irlash bilan bog'liq xufiya rejasini bilib qolgach, zalolat va xiyonatga qarshi yolg'iz kurashni afzal ko'radi. Qodiriy va kitobxonning **ideali** hisoblangan Otabekning **qotilga** aylanishini qanday baholaysiz? Homid uyushtirmoqchi bo'lgan jinoyatning boshqacha yo'l bilan ham oldini olish mumkinmidi?
4. Asardan olingan quyidagi parchani («Jonso'z bir xabar va qo'rqunch bir kech» bobidan) yana bir marta diqqat bilan o'qing.

«Oyning o'n beshlari bo'lsa-da, havoning bulutlig'i bilan oy ko'rinmas, chin ma'nosi bilan qorong'i kuzning qorong'i bir tuni edi. Bir necha yuz yillardan beri yashab favqulodda zo'rayib ketkan «Xo'ja Ma'oz» mozorining chakalagi bu qorong'iliqqa bir manba' kabi edi. Kuchlik bir yel turg'an, qandaydir bir ishka hozirlang'an kabi to'rt tomong'a yugurib yurar edi. Mozor chakalagining bir burchagida tutab yotg'an to'nka yonida sochlari o'sib soqolig'a qo'shilib ketkan bir devona bu mudhish qorong'iliqqa qarshi kurashkan kabi gulxanni yondirishg'a tirishar, gulxan tavaragidan aylanib qo'lidag'i kasavi bilan to'rt tomonidan kovlar edi. Yel borg'an sayin kuchlana bordi, chakalak tartibsiz holg'a kirib ketdi, bitta-yarimta to'kilmay qolg'an yaproqlar shitir-shitir to'kilishka oldilar, qarg'a va zog'chalar ayni uyqu zamonida tinchsizlagani uchun yelga qarshi namoyish qilg'andek g'o-g'u bilan chakalak ustidan aylana boshladilar. Yel kuchaygandan kuchayib borar va shu nusbatda mozor ichi ham yana bir qat qo'rqunch holg'a kirar edi, yel ketma-ket bo'kurar, bunga chiday olmag'an shox-shabbalar qars-qurs sinar, keksa yog'ochlar g'iyq-g'iyq etib yolborish tovshi chiqarar edilar. Yel ortiqcha bir g'azab ustida edi, yer yuzidagi tikkaygan narsani bukib-yanchib tashlamoqchi bo'lg'andek pishqirar edi. Chinorlardan birisini yerni titratib yiqitdi, devonaning gulxanini ham to'nka-po'nkasi bilan ko'tarib chakalakning ichiga otdi. Butun mozor ichini o't uchquni ila to'ldirib, yana



ko‘rinishka boshqacha bir tus berdi. Mozorni bu holg‘a solg‘andan so‘ng go‘yo shuning uchun g‘ayratlangandek bir oz pasaya tushdi, och qolg‘an sher kabi pishqirib bo‘kirishlari bosilg‘andek bo‘ldi. Yarim soat chamasi jonsarakka uchrab uchib yurishka majbur bo‘lg‘an qarg‘alar yelning g‘azabi bosilg‘anini bir-birlariga xabar bergandek g‘o-g‘u bilan eski o‘rinlariga qo‘na boshladilar. Ko‘kni o‘rab olg‘an qora bulutlar ham to‘s-to‘ska bo‘linib, oy ham qora parda ichidan yarim yuzini ochib yer yuziga mo‘ralab qo‘ydi. Gumbazning qarshisidag‘i ikki tup keksa chinorning iskelet kabi quruq shoxlarig‘a yel bilan allaqayoqlarg‘a uchub ketkan boyqushlar to‘pi ham kelib qo‘na boshladilar. Oy parchalang‘an qora bulutlar bilan bekinmachoq o‘ynag‘an kabi hali ko‘rinib, hali yashirinar edi. Ul yer yuziga kulib qarag‘anda mozorning chakalak qismiga aytarlik o‘zgarish bera olmasa-da go‘riston qismidagi do‘mboq qabrlarni va ularning ustidagi marmar qabr toshlarini chuqur bir sukut ichida ekan, taqdim qilar edi. Boyqushlar uyasi bo‘lg‘an ikki tup chinorning qarshisida gumbazga ro‘baro‘ qilib soling‘an ayvon-ziyoratxona bor, ammo oy tik ko‘tarilganlikdan ziyoratxona ichi qop-qorong‘i edi. Chinor shoxlari tasbeh kabi chizilg‘an boyqushlar bilan to‘lg‘an. Ular oy nuridan uncha xursand emaslar, chunki oy yer yuziga kulib qaray boshlasa, ular boshlarini kaftlari ichiga oladirlarda, dum-dumaloq bo‘lib siqilib ketadirlar. Oy bulutlar ostig‘a kirsas, ular rohatlang‘an kabi chig‘-chig‘-chig‘, ki-ki-ki qilib sayrab ham yuboradirlar. Bu vaqt shu boyqushlar sayrog‘i ichidan ingranish kabi bir tovish ham eshitilgandek bo‘ladir».

«O‘tkan kunlar» romanida Qodiriy tabiat manzaralarini qahramonlari ruhiyatidagi **kayfiyatga** uyg‘un yoki zid tasvirlagan o‘rinlar uchraydi. Yuqoridagi tabiat tasvirida Otabekning ichki kechinmalariga uyg‘un beshta eng muhim **detalni** tanlang va ularning qahramon ruhiy iztirobini ochib berishdagi ahamiyatini tahlil qiling.

## UCHINCHI BO'LIM

**Qipchoq qirg'ini** – 1852 yilda Xudoyorxon Normuhammad qushbegi qo'shinlari yordamida qaynatasi Musulmonqul boshchiligidagi qipchoqlar qo'shiniga qarshi urush ochadi. Urushda Xudoyorxonning qo'li baland keladi. Musulmonqul qatl etiladi. Xudoyorxon qipchoqlarni qirishni buyuradi.

### SAVOLLAR



1. Asarda mash'um qipchoq qirg'ini voqeasi tasviri mavjud. Mazkur mudhish voqeani tarix fanidan olgan ma'lumotlaringiz bilan solishtiring. Asardagi tarixiy voqealar, Musulmonqul, Azizbek, Normuhammad qushbegi kabi tarixiy shaxslarning qiyofasi va qismati **tarixiy manbalarga** qay darajada mos tasvirlangan?
2. Otabek, Kumush va Zaynabning **fojiviy taqdiriga** kim yoki nima aybdor? Bunday holatlar hayotimizda ham uchraydimi? Misollar keltiring.
3. Mutolaa qilingan boblarda voqealar o'rtasidagi **sabab va oqibat** zanjirini quyidagi jadvalda to'ldiring.

Sabab	Oqibat

«O'tkan kunlar» romani asosida ikki marta badiiy film suratga olingan. 1969-yilda suratga olgan film ijodkorlari roman syujetini o'sha davr mafkurasiga moslashtirishga majbur bo'lishgan. 1997-yilda ishlangan filmda asar mazmunini to'liq ochib berishga harakat qilingan.



«O'tkan kunlar» filmidan lavha (1969).  
Rejissyor – Yo'ldosh A'zamov.



«O'tkan kunlar» filmidan lavha (1997).  
Rejissyor – Melis Abzalov.

#### TAHLIL QILING:

«O'tkan kunlar» asari asosidagi har ikkala filmni internetdan topib tomosha qiling va solishtiring. Sizningcha, filmlardagi qaysi jihatlar ularni Qodiriy asari ruhiga **yaqinlashtirgan** va qaysilari **uzoqlashtirgan**?



## MUTOLAADAN SO'NG

### ASAR TAHLILI



1. Quyidagi jadvalda aks etgan asarning umumiy g'oyasiga aloqador fikrlarga e'tibor bering. Sizningcha, bularning qaysi biri asarning **umumiy g'oyasini** to'liq aks ettirgan? Fikrlaringizni asoslang.

Millat fojialari ildizlarini ochib berish, o'lkaning mutaraqqiy mamlakatlarga hamqadam bo'lolmasligidan o'rtangan qalb tug'yonlari ifodasi	Ota-ona orzusi, muhabbat, vafo, sadoqat kabi tuyg'ularning aks etishi	Erk va ozodlik g'oyalarining tasviri	Adolat va razolat, diyonat va xiyonat, shaxs va jamiyat kabi turli darajadagi manfaatlar to'qnashuvi, inson erki, qadr-qimmati, sha'n-shavkati haqidagi mulohazalarning badiiy talqini
--	---	--------------------------------------	--

2. Ko'plab jadid adabiyoti namunalarida, jumladan «O'tkan kunlar»da ham **yolg'iz farzand** (Otabek, Kumush) va uning fojiga yuz tutishi aks ettiriladi. Bunday tasvirlarda ijodkorning qanday badiiy-g'oyaviy konsepsiyasi aks etgan?
3. Muallif asarning ko'p o'rinlarida **epistolyar («maktub»)** janriga murojaat qilgan. Maktubning voqealar rivojida ahamiyatini tahlil qiling. Epistolyar janr elementlari mavjud yana qanday asarlarni bilasiz? Ularni «O'tkan kunlar» bilan qiyoslang.
4. Asarning 2-bo'limi 1-bobidan («Ota-ona orzusi») Otabek, Yusufbek Hoji va O'zbek Oyim o'rtasidagi suhbatni qayta o'qing. Qahramonlar va muallif nutqi asosida ularning **ma'naviy qiyofasiga** tavsif bering. Qodiriyning **badiiy nutq** yaratish mahorati, o'ziga xos jihatlarini misollar bilan tushuntiring.
5. Turk olimi Aziz Mehranning fikricha, romandagi ayollar tasvirida mumtoz adabiyotga xos ifoda uslubini kuzatish mumkin. Sizningcha, bu ifoda uslubi qaysi o'rinlarda yaqqol ko'zga tashlanadi? Fikringizni matn asosida dalillang.
6. Romanda **milliy qadriyatlar va an'analarning** qaysi go'zal namunalari aks etgan? Ulardan qaysilari bugungi kungacha yetib kelgan?
7. Qodiriy shunday yozadi: «“O'tkan kunlar” yangi zamon romanchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi, bir havasdir. Ma'lumki, har bir ishning ham yangi – ibtidoiy davrida talay kamchiliklar

bilan maydonga chiqishi, ahllarning yetishmaklari ila sekin-asta tuza-lib, takomilga yuz tutishi tabiiy bir holdir. Mana shuning daldasida havasimda jur'at etdim, havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chimadim».

Siz kitobxon sifatida romanda qanday «qusur»larni ko'rdingiz? Asarni **qayta** yozish imkoni berilganda, nimalarni o'zgartirgan bo'lardingiz? Nima uchun?

- 8 Asardagi qaysi boblar xotirangizda saqlanib qoldi? Nima uchun?



## ASARDAGI OBRAZLAR

1. **Otabekning** Avliyo otada mustamlakachilarga qarshi kurashiga adabiyotshunos Naim Karimov qahramonlik deb baho beradi. AQSh olimi Xristofor Murfi esa bunday yozadi: «Romanning xotima qismida asar qahramoni Otabekning bosqinchilarga qarshi urushga ketishsiga millatparvarlik nuqtayi nazaridan qaramaslik kerak. Aslida bu turmushning fojiviy azoblaridan charchagan Otabekning asar so'ngida ruhan isyonkor bo'lib qolganini ko'rsatadi».

Amerika olimi xulosasiga ko'ra, agar Kumush halok bo'lmaganida, Otabek istiqloq uchun kurashga otlanmagan bo'lardi... Sizing bu boradagi qarashlaringiz qanday?

2. Kumush yozuvchining estetik ideali (ijodkor tasavvuridagi ideal shaxs) hisoblanadi. Sizingcha, Kumushdagi qaysi xususiyatlarga ko'ra uni **mukammal** shaxs deb ayta olamiz? Mazkur obrazda insonga xos **kamchiliklarni** ham kuzatish mumkinmi? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
3. Muhammad Yusuf bir she'rida **Zaynab** tilidan «Begim, sizni men axir Kumushdan kam suymasdim» deydi. Otabekning Zaynabga **munosabatini** qanday baholaysiz?
4. Yusufbek Hoji oila boshlig'i, mulohazali va dono ota, o'sha davrdagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida O'zbek oyimning xohish-istaklariga qarshi turishi va fojining oldini olishi mumkin edimi? Umuman, Yusufbek Hojining **oila** va **jamiyatdagi** mavqeyini qanday baholaysiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillang.
5. Romanni ingliz tiliga tarjima qilgan Mark Riz **O'zbek oyimni** johillik, qoloqlik timsoli deb ataydi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Nima uchun? O'zbek oyim xarakterini **ranglarda** qanday tasvirlagan bo'lardingiz?
6. **Xushro'y** obrazi asarda qanday vazifani bajaradi? Asar asosida 1969-yilda ishlangan filmda ushbu obraz mavjud emas. Bu holat, ya'ni Xushro'yning yo'qligi Zaynab obrazi haqidagi tasavvurlarni qay darajada o'zgartiradi?





## ADABIY TANQID





1. Qodiriyshunos olim Matyoqub Qo'shjonov roman haqida shunday yozadi:

«“O'tkan kunlar” keng ijtimoiy mazmuni ifodalovchi asardir. Bu shunday mazmunki, u kitobxonni bir vaqtning o'zida ham achintiradi, ham uning ruhini ko'taradi...».

Romanning olim aytmoqchi bo'lgan «**achintiruvchi**» va «**ruhni ko'taruvchi**» jihatlarini sanang.

2. Mark Riz shunday deydi: «Bu o'tmish haqidagi roman muallifning bugunini kelajakka ogohlantirish sifatida tasvirlaydi».

Romanda kelajakka qanday **ogohlantirishlarni** ko'rish mumkin deb o'ylaysiz?



«O'tkan kunlar» turli tillarda Xorijliklarning bu romanga qiziqishlarining sababi nimada bo'lishi mumkin?

## ADABIYOT NAZARIYASI: ROMAN. SYUJET

**Roman** – bosh qahramon taqdiri orqali davrning **muhim** siyosiy, ijtimoiy, maishiy muammolarini ochib berishga qaratilgan, urf-odatlar, qadriyatlar, obrazlar o'rtasidagi ziddiyatlarni tasvirlovchi, murakkab syujetga ega **yirik epik asar**. Roman asosan **nasrda** yoziladi, shu bilan birga, she'riy romanlar ham mavjud (masalan, «Ziyod va Adiba» (Mirmuhsin), «Yevgeniy Onegin» (Aleksandr Pushkin), «Oltin darvoza» (Vikram Set) kabi she'riy romanlar).

Romanning o'ziga xos xususiyatlari:

- **inson taqdiri**, uning jamiyat va keng ma'noda olam bilan **munosabatlari** badiiy tadqiq qilinadi;
- ijtimoiy muhitning **eng muhim** va **muammoli** jihatlari yoritiladi..

Adabiyotshunoslarning fikricha, roman markazida o'zining individualligini teran idrok etgan **shaxsning muhit bilan ziddiyatlari** turadi.

Roman aksar hollarda bosh qahramon hayotining **katta**, odatda nostandart, **ziddiyatli** davrini qamrab oladi. Roman bir qancha obrazlar taqdirini ifoda etuvchi ko'p chiziqli syujetga ega bo'ladi. Shu bilan birga, nisbatan **qisqa** davr mobaynida kechgan voqealar bilan cheklanuvchi yoki voqealari faqat **bitta** qahramon taqdiri haqida hikoya qiluvchi romanlar ham mavjud (bunday asarlarda boshqa personajlar bosh qahramon xarakterini ochib berishga xizmat qiladi). Masalan, Nazar Eshonqulning «Go'ro'g'li» romani faqat bosh qahramon (asarda N. deb atalgan) taqdirini qamrab oladi va asar voqealari bir necha oy davomida sodir bo'ladi.

### TAHLIL QILING:

Romanga xos **xususiyatlarni** «O'tkan kunlar» misolida tushuntiring.

Asarda tasvirlangan voqealar tizimi asar **syujetini** tashkil qiladi. Syujet **konflikt** – ziddiyat asosida rivojlanadi. Konflikt ikki xil bo'lishi mumkin:

- **tashqi konflikt** – bosh qahramonning tashqi vaziyatlar (masalan, boshqa qahramonlar, jamiyat, tabiiy ofatlar, texnologiya, g'ayritabiiy kuchlar) bilan ziddiyati;
- **ichki konflikt** – bosh qahramonning o'zi bilan ziddiyati (masalan, o'zligini anglashga yoki hayot yo'lini tanlashga intilishi, axloqiy muammo oldida qolishi).

Asar syujeti bir emas, bir necha konflikt asosida qurilishi ham mumkin.

### TAHLIL QILING:

«O'tkan kunlar» romani syujeti **qanday konflikt(lar)** asosida qurilgan?

Syujet bir qancha elementlardan tashkil topadi:

- **ekspozitsiyada** asarda tasvirlangan voqealar vaqti va joyi, qahramonlar haqida ma'lumot beriladi, konflikt uchun zamin yaratgan holatlar va voqealar bayon qilinadi;
- **tugun** – asardagi konfliktga turtki bo'ladigan voqea;
- **voqealar rivoji** – konfliktning keskinlashuvi, qahramonlar o'rtasidagi (yoki qahramon va vaziyat o'rtasidagi) ziddiyatning chuqurlashuviga olib keladigan voqealar;
- **kulminatsiya** – voqealar rivojidagi eng keskin, qahramonlar (yoki qahramon va vaziyat) o'rtasidagi ziddiyatning hal qilinadigan nuqtasi – ko'p chizikli syujetga ega asarlarda har bir syujet chizig'ining o'z kulminatsiyasi bo'lishi mumkin;
- **yechim** – qahramonlar o'rtasidagi (yoki qahramon va vaziyat o'rtasidagi) ziddiyatning hal qilinishi.

Syujetda bu elementlar aynan yuqoridagi ketma-ketlikda kelishi shart emas. Masalan, asar tugun bilan boshlanishi yoki oldin yechim ko'rsatilib, keyin shu yechimga olib kelgan voqea-hodisalar bayon qilinishi mumkin.

Shuningdek, syujetda yuqoridagi elementlarning hammasi ham bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, asarda yechim berilmasligi, ziddiyatlar qanday yechilganligini tasavvur qilish o'quvchi ixtiyoriga qoldirilishi mumkin.

#### TAHLIL QILING:

Romandagi bir syujet chizig'i misolida (masalan, Otabek – Homid konflikti) **syujet elementlarini** ajratishga harakat qiling.

Yuqoridagi elementlardan tashqari, yirik hajmli asarda prolog va epilog ham bo'lishi mumkin:

- **prolog** – asarning umumiy mazmuni, g'oyasi (g'oyalari) yoki syujetiga kirish;
- **epilog** – asarning yakuniy qismi, qahramonning (yoki qahramonlarning) keyingi taqdiri bayoni.

#### O'YLAB KO'RING:

«O'tkan kunlar» romanida prolog va epilog qanday vazifalarga xizmat qiladi?

Asarda voqealar to'g'ri xronologik tartibda bayon qilinmasligi mumkin. Masalan, asar davomida muallif bayon qilinayotgan voqealardan oldinroq bo'lgan voqeani keltirishi mumkin. Bu **retrospektiva** deyiladi.

#### O'YLAB KO'RING:


«O'tkan kunlar» romanining qaysi o'rinlarda retrospektiva qo'llanilgan? Muallif nima **maqsadda** retrospektivaga murojaat qilgan?

# Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon (1897–1938)

## «KECHA VA KUNDUZ»:

O'ZBEK NASRIDA YANGICHA YONDASHUV

«ADABIYOT NADIR»: BADIY SO'Z YUKI HAQIDA O'YLAR



### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- «Kecha va kunduz» romanining **g'oyaviy yo'nalishlarini** tahlil qilamiz;
- «Kecha va kunduz» romanining **audio, video va tasviriy san'atdagi** talqinlarini solishtiramiz;
- badiiy asarda **ijodkor uslubi, portret va obraz** yaratish mahoratini tadqiq qilamiz;
- Cho'lponning **adabiyot** borasidagi qarashlarini tahlil qilamiz;
- **annotatsiya** yozishni o'rganamiz.



«**A**dabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz o'lur ....»

Cho'lpon

### O'YLAB KO'RING:

Millatning hissiyotdan, o'ydan va fikrdan **mahrum** bo'lishi oqibatlarini siz qanday tasavvur qilasiz?

Andijonda Cho'lponga atab qo'yilgan haykal



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Dramaturg, nosir, publitsist va tarjimon Abdulhamid Sulaymon o'g'li (adabiy taxallusi – Cho'lpon, ma'nosi «tong yulduzi, yorug' yulduz») 1897-yili Andijonning Qatorterak mahallasida savdogar oilasida tug'ilgan. Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra madrasada va rus-tuzem maktabida tahsil olib, arab, fors va rus tillarini mukammal o'rgangan. Mutolaa yo'li bilan esa turk, nemis va ingliz tillarini o'zlashtirgan.

Cho'lponning adabiy, ijtimoiy siyosiy qarashlarining shakllanishida, milliy uyg'onish harakatining faollaridan bo'lib yetishishida jadid matbuoti, fikrdosh ustoz va tengdoshlari muhim ahamiyat kasb etgan.

«Yoshlik chog'imda Farg'onada gazmol bilan savdo qiluvchi otam musulmonchilikka haddan ziyod berilgan bo'lib, mullalar bilan do'st tutingan edi. U meni ham mullavachcha qilib o'stirish niyatida tahsil ko'rish uchun madrasaga bergan. Men u yerda bir kishi bilan tanishdim va bu kishi menga ta'sir ko'rsatdi. U Qur'onni boshdan-oyoq yod olgan mulla bo'lgani uchun mudarris degan nufuzli unvonga sazovor bo'lgan. U Istanbuldagi panturkistlar markazidan panturkistlar va panislomistlar ta'limotini tarqatish uchun Xitoy Turkistoniga yuborilgan va Farg'onada tashviqot uchun to'xtagan bir turk edi. U meni turli-tuman muammolar bilan birinchi marta tanishtirib, menda siyosiy va adabiy ishga qizg'in havas uyg'otgan. Men Qur'onni yodlashdan iborat saboqlardan so'ng hamma narsani unutib, ko'chaga yugurar va yangi gazetalarni sotib olar edim. Ammo mudarrislik qilish o'rniga milliy o'zbek yozuvchisi bo'lishga ahd qildim, otamdan ham, mullalardan ham qochib, Toshkentga bordim va u yerda she'rlar, hikoyalar yozib, jurnallarga yubordim», deb yozadi Cho'lpon o'zi haqida.

Cho'lpon 1914-yilda o'z faoliyatini «Sadoyi Turkiston» gazetasida boshlaydi. Uning «Turkistonli qardoshlarimizga», «Qurboni jaholat», «Do'xtir Muhammadiyor», «Adabiyot nadir» kabi dastlabki she'r va hikoyalari, adabiy tanqidiy maqolalari mazkur gazeta nashrlarida chop etilgan. Cho'lpon boshqa jadid ijodkorlari kabi o'z asarlarida xalqni jaholat botqog'idan, mustamlakachilik iskanjasidan qutqarish yo'llarini ko'rsatishga harakat qiladi. Milliy istiqloq va ozodlik g'oyalari uning asarlaridagi yetakchi mavzularni tashkil etadi.

Cho'lpon mustamlakachilikka qarshi kurashgan, afgor xalqni jaholat va qullikdan himoya qilgan millat qahramoni sifatida nafaqat Osiyoda, balki Yevropada ham mashhur bo'lgan. Uning asarlari Parij, Germaniya,





Orenburg, Ufa, Qozon va Bog‘chasaroyda chiqadigan gazeta va jurnallarda ham nashr etilgan. «Go‘zal Farg‘ona» she‘ri Boku, Istanbul, Berlin va Moskvada turklar tarafidan ham sevib o‘qilgan va qo‘shiq qilib kuylangan.


Cho‘lpon 1937-yilning 14-iyulida qamoqqa olinib, 1938-yilning 4-oktabrida «aksilinqilobiy faoliyati» uchun otishga hukm qilinadi.

Vafotidan so‘ng Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti (1991) va «Mustaqillik» ordeni (1999) bilan taqdirlangan.

Cho‘lpon ijodi xorijda ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan, she‘rlari ingliz tiliga tarjima qilingan. «Kecha va kunduz» romani fransuz va ingliz tillarida bosilib chiqqan.

## ASARLARI


- ❖ «Uyg‘onish» (1922), «Buloqlar» (1923), «Tong sirlari» (1926), «Soz» (1935) kabi she‘riy to‘plamlari
- ❖ «Do‘xtir Muhammadiyor» (1914), «Qor qo‘ynida lola», «Novvoy qiz», «Oydin kechalarda» kabi hikoyalari
- ❖ «Yorqinoy» (1920), «Xalil farang» (1921), «Cho‘rining isyoni» (1926), «Yana uylanaman» (1926), «Mushtumzo‘r» (1928), «O‘rtoq Qarshiboyev» (1928), «Hujum» (1928) kabi dramalari
- ❖ «Kecha va kunduz» (1936) romani
- ❖ Pushkinning «Dubrovskiy», «Boris Godunov», Gogolning «Tergovchi», Leonid Andreyevning «Osilgan yetti kishi hikoyasi», Gorkiyning «Ona», «Yegor Bulichov», Lohutiyning «Yevropa safari», Tagorning «Suba», Gotsiyning «Malikayi Turandot», Shekspirning «Hamlet» asarlari tarjimalari



«Kecha va kunduz» romani ingliz tilida Kristofer Fort tarjimasida chop etilgan

## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qiydigan asar – «**Kecha va kunduz**» romanida mustamlaka Turkistonning zulmiga, jaholatga, adolatsizlik va haqsizlikka to'la hayoti, keskinlashib borayotgan ijtimoiy ziddiyatlar, G'arb madaniyatiga ko'r-ko'rona ergashish oqibatlarini haqida so'z boradi.



*Andijondagi madrasa, 1910-yillar*

### ESLANG:

XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosati asl **mohiyati** nimalardan iborat edi?

### ASARNING YOZILISH TARIXI

Cho'lpon «Kecha va kunduz» romanini 1934-yilda yozib tugatgan va romanning birinchi bobi «Sovet adabiyoti» jurnalida «Hamal keldi – amal keldi» sarlavhasi ostida bosilgan. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, roman ikki («Kecha» va «Kunduz») qismdan iborat bo'lib, uning «Kecha» deb nomlangan birinchi qismi 1936-yilda kitob shaklida nashr etilgan. Asarning «Kunduz» deb nomlangan ikkinchi qismi esa yozib tugatilgan va nashr etila boshlagan. Ammo yozuvchi hibsga olingan paytda romanning ikkinchi qismi olib ketilgan va uning keyingi taqdiri haqida hech qanday ma'lumotlar mavjud emas.

### FIKR YURITING:

Nima uchun Cho'lpon asar uchun «Hamal keldi – amal keldi» maqolini **epigraf** qilib tanlagan? Siz roman uchun qanday epigraf tanlagan bo'lardingiz? Nima uchun? Romanning to'liq mutolaasidan so'ng savolga qayting va avvalgi hamda keyingi qarashlaringizni qiyoslang. Nimalar o'zgardi?

### TADQIQ QILING:

Sizningcha, «Kecha» so'zida qanday **ramziy ma'nolar** yashiringan? Asarni o'qish davomida mazkur savolga javob topishga harakat qiling va fikrlaringizni matn asosida isbotlang.

## KECHA VA KUNDUZ

### BIRINCHI KITOB: KECHA

*Hamal keldi – amal keldi.*  
(Xalq maqoli)

#### I

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

\* \* \*

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to'xtaganlar, endi tashqari eshikning «g'iyt» etishi — bir-ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o'n beshga qadam qo'ygan bu yosh qizning go'dak ko'nglini uncha cho'chitmas edi.

Ko'k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo'lsa hamki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko'ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib olis-olis joylarni yana ko'proq tusay boshlagan edi.

Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog'ish bilan ovora, o'zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko'nglini bir qur seskantirib oldi. Bir qo'lida supurgisi, bir qo'li



tizzasida – yerga egilgan ko‘yi eshik tomonga tikilib qoldi. Otasining odatdagi tomoq qirish va yo‘talishlar bilan, katta eshikning og‘ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko‘p o‘tmagan edi. Halol-haromni ko‘p ham farq qilmayturgan bu odamning avrodda o‘tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo‘lardi.

Aytgandek, eshikdan shoshilib kirib kelgan – yoshgina, o‘zi tengi bir qizcha bo‘ldi. Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo‘ltig‘ini to‘lg‘azardi...

O‘rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg‘itdi va o‘zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. Ikkalasi quvona-quvona ko‘rishdilar. Supurgi yetgan joyidan nariga o‘tmasdan yerga yonboshladi... Ikkala yosh – yuzlari kulgan, ko‘ngillari yozilgan – qo‘ltiqlashib ayvonga bordilar va Zebining otasi turib ketgan so‘rining chekkasiga o‘tirishdilar.

Salti (Saltanat) erta saharda munaqa halloslab kelishining sababini hali aytgani yo‘q edi, ular ko‘rishgan hamon, yosh qizlarning o‘z oralarida o‘taturgan mahram gaplarini gaplashib, tikayotgan kashtalari, piltaga kirgan do‘ppilari to‘g‘risida bir-birlariga kalta-kalta ma‘lumot berishgan edilar. Salti endi gap ochdi:

- Erta saharlab chopganim bekorga emas...
- Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...
- Nimaga, o‘ртоqjon?
- O‘zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.
- Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...
- Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to‘planib qolgan horg‘inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko‘rpaning katta-katta qavig‘iga tikilgan andishalik ko‘zlari hovur bosgan oynakning betiga o‘xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash‘a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo‘lib, ko‘nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to‘lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so‘ng so‘zlaridagi og‘ir ma‘yuslikni payqay olmadi. Uning ko‘zlari Zebida bo‘lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi.

- Enaxonni bilasiz-a? Yoyilma soydagi o‘rtog‘im bor-ku?

Zebi boshini ko‘tarib, o‘rtog‘iga qaradi, shu qarash uning nechikdir Enaxonni eslolmay turganini ko‘rsatardi. So‘ngra Salti ta‘rif qildi:

- O‘tgan kuz biznikiga mehmon bo‘lib kelishdi-ku – kelinbibisi bilan birga? O‘shanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...

Zebi bosh tebratdi:

– Ha, ha... bildim, bildim. O‘zini ko‘rganim yo‘q-ku, eshitib bilaman.

– Ana o‘sha qiz o‘sha safar kelganida meni aytib ketib edi. Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga teng-to‘shlarim bilan bir borib kelmoqchiman. Sizni ham olib boraman...

– Qachon?

Zebining bu kalta savolidan Salti ko‘p narsani angladi. Bu savol Zebining iloji bo‘lsa shu kun paranjisini qo‘liga olib (yopinib ham o‘tirmasdan!), shu yerdan uzoqlashmoq uchun talpinganini ko‘rsatardi. Shu uchun Salti:

– Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! – dedi.

Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...

\* \* \*

Odatda onaning ko‘ngli yumshoq bo‘ladi. Zebining onasi – Qurvonbibi Saltidan haligi chaqiriqni eshitgandan keyin darhol rozilik berdi:

– Mayli, o‘ynab, yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklaring g‘ash bo‘lgandir... Yosh narsalar, – dedi. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. Bu ona qizining saodatidan boshqa narsani bilmaydirgan onalardan edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo‘lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. Lekin...

Onaning rozilik so‘zlariga bu birgina «lekin» elchib kelganidan, bechora qizlar sevinish to‘lqinlarini yana bir qur ko‘tarishga fursat topolmadilar.

Hamma jim qoldi. Har kim o‘z oldida bir narsa topib shunga ko‘z tikkan va u narsada Zebi – o‘z otasini, Qurvonbibi – o‘z erini, Salti – qovog‘idan doim qor yog‘ib turgan sovuq bir so‘fini ko‘rardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

– Otasi bomdoddan kirsin, – dedi u Saltiga qarab, – men o‘zim yotig‘i bilan aytib ko‘ray, yo‘q demas, – so‘ngra Zebiga yuzlandi: – Sen, qizim, uyga joy qil, o‘rtog‘ingni o‘tqiz, dasturxon sol. Biz, otang bilan, choyni so‘rida ichib, haligi gapni gaplashamiz.

Ikkala qiz ham og‘iz ochmay jim qolishdi. Chunki Razzoq so‘fining mijozini ularning ikkalasi ham yaxshi bilardi. So‘figa eng ma‘qul bir masalani bo‘lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o‘zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo‘lish kerak edi. U odam o‘z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o‘z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq so‘fining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo‘lardi...

Shuning uchun Zebi ko‘zlari andisha bilan kengayib ochilgani holda indamasdan joylarni yig‘a boshladi.

U o‘rinlarni yig‘ishtirib, nonushta joylarini tayyorlab bo‘lgandan so‘ng o‘choq boshida choynaklarga choy tashlarkan:





– Otamdan darak yo‘q-ku? – deb so‘radi onasidan. Qurvonbibi bir ko‘cha eshigiga, bir yonboshdagi daraxtlar orasidan ko‘tarilib kelayotgan quyoshga, bir o‘choqboshidagi qiziga qaragandan keyin:

– Bilmadim, avrod cho‘zilibroq ketdimikin? Sen choyni jindek qo‘yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supiratur, kelib qolar, – dedi.

Zebi shu topda yana qaytib qo‘liga supurgi olishni istamasa-da, o‘rtog‘ining «bu qiz enasining gapiga kirmas ekan», degan o‘yga borishini o‘ylab, indamasdan supurgini qo‘liga oldi va bir qo‘lini bir tizzasiga qo‘yib, sahn betini supura boshladi. Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda – dasturxon boshida o‘tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko‘rganidan keyin o‘rnidan turib, o‘rtog‘ining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

– O‘rtoqjon, – dedi, – otam avrodda o‘tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo‘lmang-a?

Bu so‘nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o‘rtoq tutishgan yosh qizlardagina bo‘ladi. «Xafa bo‘lmang-a?» deb turgan vaqtida Zebining yuzini ko‘rish kerak edi, bir qo‘lida supurgi, bir qo‘li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori ko‘tarilgan-u butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko‘ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o‘rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi – oyday tiniq va quyoshday yorug‘ bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko‘rinardi.

O‘rtog‘ining bu samimiyatini Salti ham ko‘z bilan ko‘ribgina emas, ko‘ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so‘ziga javob ham berib o‘tirmasdan, birdaniga uning qo‘lidagi supurgiga yopishdi. O‘z ko‘nglida, supurgini olib, bir oz supurishib bersa, haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo‘lardi. Zebi supurgini qo‘ldan oldirdi, lekin o‘rtog‘i supura boshlagandan so‘ng:

– Voy, bu nimasi! Qo‘ying, o‘zim supuraman! – deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi; shunday qilib, sahnni supurish o‘rniga bu ikki o‘rtoq butun hovlini boshlariga ko‘tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashib ketdilar...

O‘z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o‘z ko‘ngli qadar tund va xo‘mraygan bo‘lishini istagan Razzoq so‘fi xuddi shu ola-to‘polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozining boricha:

– Bu nima qiyomat!!! – deb shovqin solishi ikkala yosh qizni, chaqmoq tekkan daraxtday, turgan joylarida qotirib qo‘ydi. Yo‘qsa, so‘fi erining dindor xotini bo‘lgan Qurvonbibi ham «bas endi!» deb ozmuncha qichqirmagan edi... Agar bu sovuq so‘fi kirib kelgan bo‘lmasa, ikki yosh qizning qish bo‘yi to‘plangan ko‘ngil g‘ashliklari bir oz sho‘xlik bilan ancha yozilgan

bo'lardi. Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda o'ynashuvlari o'sha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining to'g'onini buzib, oldinga tomon yo'l solish emasmi? Bunday telbalarcha ko'pirib-toshuvlarni to'xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar quvvatli zarblar lozim bo'lardi.

\* \* \*

Razzoq so'fida unday quvvat ortig'i bilan bor. Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, «ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi». Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi dafa yo'rgaklagan kampir hazilkashligi va sho'xligi bilan xotin-xalaj o'rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo'rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so'zlar bilan erkalatganmish:

– Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangiz-chi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..

O'shanda kulmagan Razzoq so'fi undan keyin ham kulmay o'tdi. Kulish bilan yig'lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so'fining kulishlarini kulish, deb bo'lmaydi.

Kulmasdan chidab bo'lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish – kasal odamning kulishiday og'ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg'on xushomadlarday ko'ngilga uruvchi bo'lardi. Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan:

– Otam kulmas ekan-da! – deganini eshitib, Qurvonbibi koyib bergan edi. Shu haqiqatni aytgani uchun qizidan alayna-oshkor koyingan Qurvonbibi, bu haqiqatni o'zi o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin?.. Til bilan birovning aybini aytish oson, o'z tili bilan o'z aybini aytadiganlar juda kam, Qurvonbibi har qancha so'zga epchil xotin bo'lsa ham, uni bu kamlar orasiga qo'shib bo'lmaydi.

Qurvonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. Tashqari olamda, ya'ni o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan-bir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa – «hovva-hovva», demak, o'zidan past va kuchsizlar gapirsa – «yo'q, yo'q», degan ma'nida bosh chayqash bo'lardi. Uyida vaqtida uning og'zidan odam bolalari o'rtasida yuraturgan tuzuk, ma'nilik va «gap» desa bo'ladigan bir so'z chiqmas edi. Umuman, so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asoli bir maslagi bor: u o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib, til qaldiratishni ravo ko'rmaydi. «Bu til, – deydi so'fi, – doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og'iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til – bandaning jismida eng aziz va tabarruk



a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!»

O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini – o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo'lsa, mo'min-musulmon: – sharm-u-hayo yuzasidan bo'lsamikan? – xotinini «Xadicha» deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar «labbay!» deydi; shunday-da, oilaning haqiqiy egasi bo'lgan ota: «Kattangni aytaman, kattangni!» deydi. Hatto shunda ham «Maryamni», demaydi...

Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o'lguring qani?», «Fitna, puldan uzat!»

Qurvonbibi, so'figa achchiq qilib bo'lsami yo o'zining yaratilish xamrida shu narsa bormi, har qalay fitnalikdan, ya'ni makr va firibdan xoli emas. Erining xotin-xalaj oldida gapirmaganiga uncha xafa bo'lmasa ham, lekin o'z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish orqasida firib yo'li bilan so'fini gapirtiradi; ba'zida tillarini burro qildirib sayratadi. Buning uchun so'fining achchig'ini keltiradigan emas, uning bir oz g'ashini qo'zg'ataturgan bir gap aytib qo'yadi. Ana shunda xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni so'fidan ko'ring! Bay-bay-bay!

– Eshon bobom sizdan dilgir emishlar, – deydi bir kun Qurvonbibi so'figa.

So'fining toshday qattiq va buyumdek harakatsiz yuzi birdaniga turli-tuman o'zgarishlar va harakatlarga javlongoh bo'ladi:

– Nima deding, Fitna? Nega dilgir bo'libdilar?

– Nazir qilgan kokilini kestirishga kelgan bir bolaga xushomad qilibsiz... Shu bas! Endi, bizning so'fi so'zga usta bir xatibga aylanadi.

– Ishq ikki xil bo'ladi, Fitna. Tushunmay gapirma! Ishqi ma'joziy, ishqi haqiqiy...

Qurvonbibi bu so'zlarga tushunmaganligidan erini sayratib qo'yib, o'zi darrov zerikadi. Shu uchun u:

– Ha, shundaymi? Men bilmabman. Omiman-da, – deb tezroq qochish harakatiga tushadi.

Xotini burilib ketganidan keyin so'fi ham so'zdan to'xtaydi.

Shunday qilib, so'fi joyi kelganda va g'ashiga tegilganda, – go'rda ham gapiradi. Ham gapirganda qanday!

Uyida vaqtida Razzoq so'fi yo ariq bo'yidagi ko'katlarni yulib, yo eshik va darvozalarning bo'shalib qolgan zanjirlarini mahkamlab, yoki hovlida o'tin qirqib, yo bo'lmasa – ikki qo'li orqasida, dam ichkariga kirib, dam tashqariga chiqib, dam hovliga o'tib, lablarini ari chaqqan odamday

ogʻiz ochmasdan, indamasdan yura beradi... Yoz faslida, koʻproq kunduzi uxlaydi, kechalari, tong otguncha, oʻzi yolgʻiz, baland ovoz bilan «Oblohu!» aytib, oʻz oilasini va qoʻni-qoʻshnini uxlatmaydi. Eshon bobo boʻlmagan kunlari salqin xonaqoda juda maza qilib uxlaydi, deyдилar. Baʼzida boshqa muridlar uni koʻrpa-toʻshagi bilan hovuzga tashlar ekanlar. Uyda boʻlsa, uni – xonaqo singari – salqin qildirib, undan keyin choʻziladi va peshindan keyin uyquga ketgan boʻlsa, shomga borib zoʻrgʻa turadi: shunda ham Qurvonbibining qichqirishlari bilan... Namozgar, aksari, uyquga qurbon boʻladi, shu orqada oʻz xotinidan koʻp taʼnalar ham eshitadi. Ammo bu xususda tili qisiq, indayolmaydi...

Qish faslida boʻlsa, kechasi uxlaydi. «Bir siqim kun bor, uxlab oʻtkazsam, Qashqardan ham olis qish kechasini qanday oʻtkazaman? Uyqu – umrning tanobi!» deydi; bu buyuk falsafa loyiq va munosib kishilarga aytiladi. Bechora oila aʼzolari, umuman, xotin-xalaj bu uyqu falsafasini bilishdan mahrum!

Shaharda boʻlsa, oʻz uyidan boshqa joyda bir kecha ham yotmaydi. Eshon boboning qaysi bir toʻyida, tong otishga yaqin, uyiga kelib yotgan ekan... Shahardan tashqariga yurishi kam. Faqat eshon bobo bilan birga (faqat oʻsha kishi bilan!) toʻylarga, katta ziyofatlar, qovun va meva sayillariga boradi. Unda, albatta, besh-toʻrt kun uyidagi koʻrpa-toʻshagi soviydi. Qurvonbibining soʻzicha, «dam oladi», Zebining taʼrificha, «yayraydi». Bir marta qaysi bir toʻy bir haftaga choʻzilib ketgach, oltinchi kuni bizning soʻfi eshondan soʻramay qochib kelgan! Oʻshanda eshon bobo bir necha vaqtgacha soʻfidan dilgir boʻlib yurganlar.

Shu munosabat bilan Qurvonbibi yana bir marta oldi:

– Hast eshon bilan birga borib, u kishi tufayli shuncha izzat-ikrom koʻrib, noz-neʼmatga serob boʻlib... hast eshondan burun qochib kelganingiz nimasi? Shaharda ochilmagan doʻkoningiz yo toʻxtab qolgan objuvozingiz bormidi?

Soʻfi yana past toifa oldida muborak ogʻzini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur boʻldi.

– Badbaxt Fitna! Qoʻyasanmi, qoʻymaysanmi, axir? «Hubbil vatani minal-imon», deganlar – «vatanni sevish imondan», axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yoʻq – dunyoda loʻli, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi?

Soʻfi bir oz qizib ham ketdi:

– Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun oʻzimniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, oʻrusvoyning religa tushib, «hayt!» deb... Makkatulloga joʻnab qolaman! Hovling boshingdan qolsin, Fitna!

Bu safar Qurvonbibi yalinib-yolvorib zoʻrgʻa tinchitdi.

Chinakam, soʻfida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi. Faqat, nima uchundir, oyogʻini oʻz shahrining tuprogʻidan uza olmaydi.



Bu to'g'rida ham – «vatanni sevish imondan», deb – «vatani»dan kechib ketolmaydimi? Har qalay, bir siri bor.

Uning ma'lum bir kasbi, hunari yo'q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi. Shu bilan birga, dasturxonni nonsiz, qozoni issiqsiz qolmaydi...

Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o'gay akasi kelib, uch-to'rt kun qo'nib ketgan edi. U ham o'ziga o'xshagan mo'min-musulmongina chol bo'lganidan juda topishdilar. Har kun xonaqoga birga borardilar.

– So'fi, bir kasb peshasini tutmay o'tib ketayotirsiz-a? – dedi unga akasi xonaqoga keta turib.

– E-e, – dedi so'fi cho'zib va o'zidan xursand bir kulimsirash bilan kulimsiradi: – mening davlatim hech kimda yo'q, aka! Eshon bobo xudoyimning sevgan quli, noz-u ne'mat to'rt tarafdin suvday oqib turadi. Daryo bo'yidamiz-u, chanqaymizmi? G'alati ekansiz!

Shu kulimsirash bilan yana bir oz borgandan keyin, bu safar jiddiyroq qilib, dedi:

– Ahliyimiz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizimiz ham do'ppi tikishga «farang» bo'lib chiqdi! Ro'zg'orning ko'p-kamlarini o'zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam bo'la beradi!

So'fining o'sha akasi o'tgan yil kuzakda yana keldi.

Ammo bu safar jiddiy bir masalani ko'tarib kelgan edi. Bir-ikki kun mehmon bo'lgandan so'ng gap ochdi:

– So'fi, o'zingiz «vatan», «vatan» deysiz-u, vataningizni bilmaysiz.

So'fi shu «bilmaysiz» degan narsaga tutoqib ketdi:

– Nega bilmas ekanman, aka! Bilib gapirsangiz-chi!

– Jahlingiz chiqmasin. Bilib gapirayotirman. Vataningiz – ota-onangiz o'tgan, o'z kindigingizdan qon to'kilgan, ota-ona arvoyiga sham yoqiladigan joy emasmi?

So'fi jim qoldi. Hatto, ko'zlariga yosh kelganday bo'ldi.

– Nimaga indamaysiz? – deb so'radi akasi.

– Haq gapga nima deyman? Qiziqsiz...

– Bo'lmasa, vataningiz – o'sha o'zimizning qishloq.

– Ha, o'sha qishloq...

Ikkovi ham bir nafas jim qolishdi. So'fi misvagini qinidan chiqarib, yana sekingina solib qo'ydi. Chol tizzasiga tushgan xazon bargini sopidan ushlab pildiratarkan, dedi:

– Men sizni o'sha qishloqqa olib ketay, deb keldim. Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to'g'rida nari-beri bo'lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...

So'fi xo'rsinganidan ovozi qaltirab, dedi:

– Eski gaplarni qo'zib nima qilasiz? Bo'lar ish bo'lib o'tdi... Yeri ham qursin, merosi ham...

– Yo'q, so'fi! Unday demang!



Akaning bu soʻzi keskin ovoz bilan, qoʻmonda singari aytilgan edi. Soʻfi boshini koʻtarib, akasining yuziga tikilib qoldi, akasi davom etdi:

– Yerdan aziz hech narsa yoʻq! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan naridagilar – hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi?

Soʻfi eshitar-eshitilmas qilib:

– Rost... – dedi.

– Siz nega yerdan qochasiz?

Soʻfi bu toʻgʻri savolga boshqa javob eplay olmadi.

– Yer qani menga? – dedi. – Bir shapaloq yeringiz bor, oʻzingizga yetmaydi...

Akasi dadil javob berdi; javobga boshlarkan, uning yuzlari kulgan, tishsiz – kemtik ogʻzi sevinch bilan ochilgan edi:

– Soyning narigi yuzidagi doʻngni sekin-sekin olib tashlab, yer qildim. Yana bir shapaloq suvlik yer boʻldi. Endi, odamdan-u dastmoyadan qiynalayotirman...

– Nima qilay? – dedi soʻfi, ovozi juda past edi. – Qoʻlimdan nima keladi?

Akasi bu safar jiddiylashdi:

– Shaharni tashlang!

Soʻfi akasining soʻzini boʻlib, allanima demoqchi boʻlgan edi, u qoʻymadi:

– Siz shoshmang! Gapni eshiting!

Soʻfi jim boʻldi. Soʻngra akasi davom etdi:

– Shaharni tashlang! Bu hovlini soting! Shaharda hovli-joyini yaxshi pulga oladi. Qishloqdan kichkina bir hovli olamiz – muning yarim puliga yoki uchdan biriga. Qolganiga asbob olamiz. Oʻz yerimizning yoni-beridan bir parcha yana yer topamiz... Uni ham olamiz. Hali bardamsiz, birgalashib ishlaymiz. Durustmi?

Soʻfi indamasdi; oq doʻppisini boshidan olib, buklab oʻynardi...

– Qani, bir narsa deng!

Soʻfi hech narsa demay, oʻrnidan turdi. Yana damini chiqarmasdan, ichkariga tomon bir-ikki qadam bosdi. Keyin yana orqasiga qayrilib, dedi:

– Men salla-toʻnimni kiyib chiqay. Jumani xonaqoda oʻqiyamiz. Kech qoldik...

Akasi xonaqoga ketayotib, yana shu gapni qoʻzgʻatdi:

– Xoʻp, deng. Qishloqqa ketaylik! Oʻlim – haq! Oʻlar vaqtda bir-birimizdan yiroq tushib, bir-birimizga tashna boʻlib oʻlmaylik...

Soʻfi bir uloqchi toyni koʻrsatdi:

– Jonivor-e, zab ot boʻlibdimi? Bay-bay-bay! Jimlik choʻkdi. Keyin yana gap boshlandi:

– Nima dedingiz? Gapiring? Kampir ham jon deb turibdi...

– Ana u, Umarali shigʻovilning hammomi... Yuz yetmish yil boʻlgan emish.. Hali ham bir gʻishti koʻchgani yoʻq.. Ichiga kirsang, jaranglaydi...



Akasi o'z gapini yedirolmagach – Qurvonbibi bilan maslahat qilib turib – masalani eshon boboga arz qildi.

Eshon avval:

– So'fi o'zi qani? – deb so'radi. So'fining akasi:

– Uyda qoldi... Sal tishi og'ribdi... – dedi.

Eshon kuldi:

– Tishi og'ribdimi? – dedi. – Bay-bay! Tish og'rig'i yomon narsa. Boring, ayting: kapponning burchidagi sartaroshga borsin, ombir solib, darrov olib tashlaydi. Tinchiydi-qoladi... Boring, omin ollohu akbar!

Shu bilan so'fining akasi noumid bo'lib, qishlog'iga ketdi. U otiga otlanib, xayr-ma'zur qilganda, so'fi ichkarida «Hikmat» o'qib yotardi. Lokisini yuziga tutib, darvoza oldigacha Qurvonbibi chiqdi. Uzun yengi bilan ko'z yoshlarini artib, qishloqi mehmonni uzatdi. Qurvonbibining yonginasida turib, tiniq ovozi bilan: – «Xayr endi! Adolatxon opamlar kelishsin. Tuhfachani, albatta, olib keling», deya sayragan Zebi, mehmon ko'zdan yo'q bo'lgach, onasidan so'radi:

– Nega otam uzatgani chiqmadi? Qurvonbibi kaltagina javob berdi:

– Otangning fe'li qursin, bolam! – dedi va ichkariga burildi.

Qurvonbibining bundan boshqa tashvishlari ham yetib ortardi.

Mana bu qishloqi mehmonning kelishi yana ortiqcha bir tashvishni qo'zib ketdi. Chinakam, bechora Qurvonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg'iz qizning sepi xususida ko'p tashvish tortadi. Shunday tashvishlar ustida, u chidolmay ketib, ba'zi-ba'zida so'figa xarxasha ham qilib ko'radi. Unday xarxashalarga so'fining sira tobi yo'q: «Xudo yetkazadi!» deb, ovozi boricha baqirish bilan javob qiladi.

Qurvonbibi ham odam emasmi – chidolmaydi.

Bir kun u so'zlanib berdi:

– Xudo yetkazadi, albatta! Shunda ham bandasi harakat qilsa, qimirlasa yetkazadi-da! Xudo «sabab»ni hal qilgan emasmi, axir? Eshonoyim bir kun Eshon so'fidan o'qib berib, kasb-korning farzligini aytdilar-ku!

Bu kuyinishlarga Razzoq so'fi javob ham bermadi. Indamasdan, teskari burilib oldi. Qurvonbibi so'zdan to'xtamay, balki ovozini yana ham ko'tara tushgan edi, so'fi o'zining odatdagi kalta so'zlaridan bittasini arang og'zidan chiqardi, lekin chiqarganga yarasha birakay qilib – jahl bilan, baqirib chiqardi:

– Bo'ldi, deyman, itvachcha!

\* \* \*

Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko'nglida o'ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so'fining «Nima bu qiyomat!» degan qiyomatidan qo'rqinchliroq edi. Sovuq bir so'fining nazdida, bu qadar vahimali bo'lib ko'ringan oddiy va tabiiy bir bolalik o'yini qafas darichasining ochilishini



kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini koʻrgan bir qushning iztirobidan kam boʻlarmidi?

Ikkala qizning, ayniqsa, Zebining koʻnglidagi iztirob, zotan, soʻfi kirgandan soʻng avj olishi kerak edi. Chunki, qizlar shoʻxlik va oʻyinga berilib ketib, hamma narsani esdan chiqargan emasmidilar? Qorongʻi qish kunlaridan qolgan dogʻlar, toʻrt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan oʻtgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yemaganmidi? Yoshlikning quvvatli toʻlqinlari ularning barchasini bir bahor yomgʻiri kabi yuvib ketmaganmidi? Shunday oʻrtoqning shunday shirin muomalalari oldida shunday teskari, shunday oʻjar va qaysar otaning borligi ham unutilgan emasmi? Uyidan «Bir zumda borib kelaman», deb chiqqan Salti ham bergan vaʼdasini, uyini va ota-onasini unutilib, qoʻlida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi?

Gʻafolatda qolganlarning boshiga tushadigan tayoq yomon zil ketadi, deydilar. Bu ikkala qiz oʻyin va shoʻxlik havasi bilan gʻafolatda edilar. Soʻfining ogʻir zarbi bilan oʻzlariga kelgach, oldilarida zoʻr bir togʻ turganini koʻrib, ixtiyorsiz choʻchib ketdilar. Bu togʻdan oʻtish kerak edi, holbuki, bu togʻ — munaqa yosh bolalar oʻta oladigan togʻlardan emasdi. Ikkalasi ham iztirobning bu ogʻir yukini bir-birlarining koʻzlarida oʻqidilar...

Soʻfining baqirishidan soʻng bir oz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar va oʻzlarini eshikli derazaning panasiga olib, Razzoq soʻfining harakatlarini kuzata boshladilar. Koʻzlari soʻfida boʻlsa, quloqlari Qurvonbibining ogʻzida edi. Uning gapiradigan gaplari ularning koʻngillarida tugilgan ogʻir va chigal tugunchakni yo yechib yuborajak, yoki yana battarroq chigallashtirib, ikki yosh narsani — yana necha oy! — bir-biridan ajratib tashlayajakdi.

Soʻfi bular uyga kirib olguncha eshik oldida boʻzarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurvonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irgʻitdi va oʻzining oddiy ovozi bilan:

– Qanjiqlar! – deb baqirdi.

– Yosh narsalar oʻynashsa, nima boʻlibdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? – dedi Qurvonbibi.

– Gapirma, eshak!

Qurvonbibi jim boʻldi. Soʻfi kart tomonga qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qoʻyilgan edi. Soʻfi kartga chiqib oʻtirgandan keyin Qurvonbibi oʻchoqdan choyni olib keldi.

Soʻfining bu avzoyini koʻrgandan keyin ikki qizning borqadar umidi ham uzilib boʻldi. Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi:

– Oʻynashmay oʻlaylik, endi otam hech qayerga chiqarmaydi...

Salti ham oʻz tashvishini anglatdi:

– Nima qilamiz endi? Siz bormasangiz, men ham bormayman... Enaxon toza koyiydi-da.



– Tek o‘tirgan bo‘lsak ko‘ngli yumsharmidikan? – dedi Zebi.

Salti indamadi. Bir ozdan so‘ng yana o‘zi ilova qildi:

– Ko‘ngli o‘lsin, yumshagan vaqtini ko‘rganim yo‘q! Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo‘yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko‘kragiga tashlab qo‘yib, «mana shu sening ko‘ngling!» deganmikan, yashshamagurlar!

Bu gap Saltiga ta‘sir qildi shekilli, «pix-x» eta kulib yubordi.

Zebining munga chinakam achchig‘i kelgan edi, qo‘lini uzatib, o‘rtog‘ining og‘zini to‘sdi.

– Voy, anovi qizni! Yana besh battar qilasiz ishni! – dedi.

Salti zo‘r bilan o‘zini bosib oldi. Ikkalasi yana – ko‘zlarini miltillatib – chol bilan kampirga tikildilar.

Boyadan beri eriga qarab jim o‘tirgan kampirning endi astagina kulimsirashi bularga jon kirgizdi. «Ko‘rdingizmi?» deganni qilib ikkalasi bir-biriga qarab olishdi.

Chinakam, Qurvonbibi, so‘figa yoqadigan bir so‘z topganday, dadillik va bemalollik bilan kulib turib gap boshladi:

– Men Zebini bir joyga jo‘natib yotirman...

So‘fi bu safar baqirmasa hamki, dag‘al bir ovoz bilan so‘radi:

– Qayerga? Nega?

– Oydinko‘ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o‘rtog‘ini «Bahorlashib ketinglar», deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o‘rtog‘i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo‘shirib qo‘yib, o‘zi Zebini aytgali kelibdi. «Yo‘q», desak qanday bo‘ladi?

Xotini nima desa, «yo‘q» deydigan so‘fi bu safar birdaniga «yo‘q» demasdan, xayolga ketdi. Qizlar Qurvonbibining bu tadbiridan xursand bo‘lib, yana umidlana boshlagan edilar.

– Qurvon xolam bopladi! – dedi Salti.

– Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko‘ring. «Eshon», desangiz, otam o‘lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan.

Salti Zebining bu gaplarini eshitgandan keyin so‘fining «xo‘p» deb javob berishiga ishonib ketdi. Bir qo‘lini o‘rtog‘ining bo‘yniga tashlab, uni quchoqlar ekan:

– Bo‘ldi, o‘rtoq, endi! Jo‘naymiz! – dedi.

– Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma‘qul gapga ko‘nadigan odam emas. Jim turib qolishini ko‘ring: hali ham churq etmaydi.

Sukut uzoqqa cho‘zilgandan keyin Qurvonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

– Nimaga indamaysiz? Xo‘p, deng! Katta odam, uyat bo‘ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O‘zlarini bo‘lsa, o‘zingiz bilasiz, – dedi.

So‘fi negadir:

– Bilaman, Fitna, bilaman! – deb qo‘yib, yana jim bo‘ldi.  
Endi Qurvonbibi yana ham jiddiylashdi:  
– Bo‘lmasa, «yo‘q», deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi.

Shundan keyin so‘fining tili aylandi:

– Shoshma, Fitna, «yo‘q», dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?

– Indinga erta bilan yo kechqurun.

– Eshon oyimning ra‘ylariga qarasin.

So‘fi o‘rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:

– Ovozim bor, deb ashulaga zo‘r bermasin, – dedi. – Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman.

Bu safar odamga o‘xshash gapirib, Qurvonbibini quvontirgan Razzoq so‘fi shu so‘zlardan so‘ng yana o‘z jimligiga qaytdi. Bir oz so‘ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo‘liga olgandan so‘ng:

– Xurjinni ber, Fitna! Bo‘lmasa, ikkita qop ber! – deb qoldi. Qurvonbibi qopni uzatarkan, erining qo‘liga shu topda bir oz pul tushganini, endi kattaroq xarid qilish uchun bozorga ketayotganini va haligi zo‘r iltifotning ham pulning kuchi bilan bo‘lganini angladi...

So‘fi tomoq qirib eshikdan chiqarkan, uydagi ikki sho‘x qiz yana bir-biriga chirmashgan edi.

\* \* \*

Qafasning darichasi ochildi!

Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib: «pirr» eta uchmoqdan, keng ko‘klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Paranjini yopinib o‘tirmasdan, shundoq bosh ustiga tashlab, chimmatni «xo‘ja ko‘rsin»ga tutgan bo‘lib yugurish kerak, xolos...

Faqat unda darichaning ochilganiga kim sevinadi? Shodlikni kim qiladi? Erkinlikning lazzatini kim totiydi? Shu qadar qaysar bir odamni bu qadar ustalik bilan yo‘lga solgan onaning hurmatini, kim o‘rniga keltiradi? Uni kim quchoqlab, kim o‘padi?

Ikkala qizning uydan yugurib chiqib, bab-barobar Qurvonbibining bo‘y-niga osilishlari ana o‘sha ne‘matning shukronasi edi. Qizlar o‘zlarining behad sevinchlarini yuzaga chiqarmoq bilan birga, onaga bo‘lgan minnatdorliklarini ham tegishicha izhor qilmoqqa oshiqardilar. Ular kampirga shu qadar osilib, erkalik qilib, u bilan shu qadar qattiq o‘ynashdilarki, kampir holdan ketib, kartga dumaladi... Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choydoshdek sharaqlashib... kampir bilan o‘ynasharkan, u charchab entikkanidan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olib:

– Bas, qizi qurg‘urlar... bas, deyman, bo‘ldi endi... Yo‘lingdan qolasan!.. – deya so‘zlanardi.

Kampir yolvorgan sari bular avj olishar, biri qo‘yib, biri:





– Shunaqa ekanmi? Voy, tovvo-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy, tovvo-oy... — deb uning eng qitig‘i keladigan joylariga chang solishardi.

Nihoyat, o‘zlari ham o‘lgudek charchab, kampirdan qo‘l tortdilar va «uh!» deb ikkalasi ikki tomonga o‘tirdilar.

Bular taraq-turuq eshik ochib, shoshilib ko‘chaga chiqqan vaqtlarida, paxta zavodining ingichka tovushli jing‘irog‘i soat o‘n ikki bo‘lganini bildirib qichqirardi.

## LUG‘AT



**avrod** – ertalab bomdod namozidan keyin o‘qiladigan duolar

**boshput** – pasport

**hast** – hazrat

## SAVOLLAR



1. O‘ylab ko‘ring: asar nega **bahor** tasviri bilan boshlanadi?
2. Sizningcha, Zebidagi dala-qirlarga chiqib ketish istagi **faqat bahor sog‘inchi** bilan bog‘liqmi?
3. Zebi va Saltanat munosabatlaridagi **samimiyatning** sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
4. Berilgan matndan **Razzoq so‘fi** tasvirlangan o‘rinni toping va qayta o‘qing. Yon atrofingizda ham mana shunday insonlarga duch kelganmisiz? Bunday odam jamiyat uchun qay jihatdan **xavfli** deb o‘ylaysiz? Nima uchun? Fikrlaringizni shaxsiy tajribalaringiz asosida isbotlashga harakat qiling.
5. Qurbonbibi va Razzoq so‘fi xarakterlaridagi **farqli** jihatlarni quyidagi jadval asosida to‘ldiring.

	Xarakterlaridagi farqli jihatlari
Qurbonbibi	
Razzoq so‘fi	

Asarning to‘liq matnini o‘qib chiqing.



pdf kitob  
Respublika bolalar  
kutubxonasi



audiokitob  
Respublika bolalar  
kutubxonasi

## «KECHA VA KUNDUZ» ASARI TALQINLARI: VIDEOFILM

O‘zbekiston teleradiokompaniyasida rejissyor Maqsud Yunusov tomonidan «Kecha va kunduz» romani asosida ko‘p qismli videofilm yaratilgan.

Videofilmning 3-qismidan **Miryoqub va Noyib to‘ra ortasidagi suhbat** lavhasini tomosha qiling va muhokama qiling.

Muhokama jarayonida Cho‘lponning **g‘oyaviy** maqsadini ochib berishga xizmat qiladigan eng muhim **detallar va kalit so‘zlarga** (masalan, Adoiyning qo‘lyozmasi, Iskandar Zulqarnayn haykali va hokazolar) alohida e‘tibor bering.

Noyib to‘ra «**ish boshqa**», «**uslub boshqa**», «**vaziyat boshqa**» deganda nimani nazarda tutganligini hayotiy tajribangiz va asarning umumiy g‘oyasi misolida izohlashga harakat qiling.


Miryoqub yoki Noyib to‘rani siz qanday **tasavvur** qilgan edingiz? Obrazlarning videofilmdagi portreti sizning tasavvurlaringizga qay darajada uyg‘un?



«Kecha va kunduz»  
videofilmi  
O‘zbekiston teleradio-  
kompaniyasi,  
2000-yil

## «KECHA VA KUNDUZ» ASARI TALQINLARI: ILLUSTRATSIYALAR

Ikki guruhga bo'ling. Romanga bag'ishlanib ishlangan illyustratsiyalardan birini tanlang va unga yozma munosabat bildiring. Illustratsiyadagi har bir **detal, obraz va ranglarga** ahamiyat bering hamda ularni davr va asar g'oyasi (o'qigan boblaringiz bo'yicha) bilan bog'lab tahlil qiling. Illustratsiyaga sarlavha qo'ying va nega aynan shunday sarlavha qo'yganingizni izohlang. Munosabatingizni guruhlarda muhokama qiling.



«Kecha va kunduz» asariga toshkentlik rassom Rustam tomonidan ishlangan illyustratsiyalar.  
Illustrators.ru saytidan olindi

## «KECHA VA KUNDUZ» ASARI TALQINLARI: RADIOSPEKTAKL

Asar asosida O'zbekiston teleradiokompaniyasida yaratilgan «Zebi Zebona» radiospektaklini tinglang. Radiospektakl ijodkorlari asarning **mohiyatini** ochib berishda radioning imkoniyatlaridan (aktyorlar ovozi, musiqiy bezaklar, shov-qinlar) qay darajada unumli foydalanishgan, deb o'ylaysiz?

Radiospektakldagi asosiy **obrazlarni** romandagi obrazlar bilan solishtiring. Nazaringizda, asardagi qaysi obrazlar radiospektalkda to'liq ochib berilgan va qaysilari ochib berilmagan? Nima uchun?



## MUTOLAADAN SO'NG

### ASARDAGI ASOSIY OBRAZLAR

#### ZEBI



1. Zebini boshqa qizlardan **farqlaydigan** qanday xususiyatlari bor edi? Asardan Zebiga xos xususiyatlarni topib quyidagi jadvalni to'ldiring.

harakatlarida	fikrlashida	muallif tasvirida	boshqa qahramonlar munosabatida

2. Zebi **fojiasining** asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
3. Tasavvur qiling, Zebini sudda himoya qiluvchi advokatsiz. Zebi **himoyasiga** nutq tayyorlang.

#### MIRYOQUB

1. Romandan Miryoqub **tabiatiga xos jihatlarni** va ushbu jihatlarga misollarni topib quyidagi jadvalni to'ldiring. Bu obraz haqida o'z xulosangizni bering.

Miryoqub xarakteriga xos xususiyatlar	Misollar

2. Miryoqub obrazi **dinamikasida (rivojida)**, uning xarakteriga xos xususiyatlarning ochilishida qaysi obrazning **ta'siri** katta deb o'ylaysiz?
3. Miryoqubning dunyoqarashidagi **o'zgarishlarga** ta'sir qilgan eng kuchli **voqea**, sizningcha, qaysi? Uni matndan topib qayta o'qing va o'z fikrlaringizni xulosalang.
4. Siz ham hayotingizda Miryoqub kabi **ichki ziddiyatlarga** duch kelganmisiz? Qanday yo'l tutganingizni ayta olasizmi?

#### MINGBOSHI

1. Hayotingizda Akbarali Mingboshiga **o'xshagan** kimsalarni uchratganmisiz? Nima uchun yozuvchi unga Akbarali deb ism berdi?
2. Mingboshi obrazidan qanday **xulosa** chiqardingiz? O'z xulosalaringizni matndagi aniq detallar bilan izohlashga harakat qiling.





## ASAR TAHLILI



1. «Kecha va kunduz» romanidagi eng muhim **g'oyaviy yo'nalishlarni** aytib bering.
2. Romandagi «**imperiya**» so'zi atrofida kechgan voqealarga munosabat bildiring. Bu voqealarda ijodkorning qanday g'oyaviy maqsadlari yashiringan?
3. Jadid savdogari tilidan aytilgan «**Ibtidoiy tarbiyani** rus maktablari-dan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hissini o'stirib, o'z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin», degan fikrga sizning munosabatingiz qanday? Uni bugungi kun nuqtayi nazaridan ham to'g'ri deya olasizmi? Nima uchun?
4. Romandan **sabab-natija** zanjirlariga misol bo'ladigan o'rinlarni toping va ular o'rtasidagi bog'liqlikni misollar bilan tushuntiring.
5. Romandagi **tagma'nolarni** toping va ularning badiiy asar umumiy g'oyasini ochishdagi ahamiyatini tushuntiring.
6. Romanning qaysi boblari sizda eng kuchli **taassurot** qoldirdi? Nima uchun?
7. Romanning g'oyaviy xususiyatidan kelib chiqib asarga uchta **sarlavha** toping va o'z tanlovingiz sabablarini badiiy matndan uzoqlashmagan holda tushuntiring.
8. Sizningcha, romanning «Kunduz» qismi qanday **davom etishi**, yana qanday yangi obrazlar ishtirok etishi mumkin edi?

## ADABIY TANQID



1. Adabiyotshunos olim, O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov fikricha, «rasmiy doiralar Cho'lpondan shu darajada **qo'rqanlarki**, uning ijodini juda-juda sinchiklab kuzatib borganlar». Rasmiy doiralar nima uchun Cho'lpondan juda qo'rqan deb o'ylaysiz? «Kecha va kunduz» romanining qaysi o'rinlarida yozuvchi **jasorati** aks etgan?
2. Cho'lponning Amerikadagi tadqiqotchisi Roberta Mariya shunday deydi: «Yozuvchi Miryoqubning yolg'iz o'g'il farzandini o'z onasidan ayirib rus ayoli Maryamga berishi bilan Turkiston xalqini **ogoh** bo'lishga chaqiradi. Agar xalq, shu jumladan, Turkiston onalari ham, savodli bo'lish haqida o'ylamasa, butun kelajak imperiya qo'lida qoladi va millat inqirozga yuz tutadi». Yuqoridagi fikrlar Cho'lponning badiiy-g'oyaviy maqsadiga uyg'un deb o'ylaysizmi? Aslida Cho'lpon yosh avlodning Yevropa ta'limiga ega bo'lishi tarafdori emasmi?



## ADABIYOT NAZARIYASI: PORTRET. OBRAZ. IJODKOR USLUBI

**Portret** – asarda kishilarning siymosi, tashqi qiyofasi, kiyim-kechagi, boshqalarga o‘xshamaydigan individual xarakterlari tasviri. Yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali kitobxonga uning ichki (ruhiy) qiyofasi haqida ham tasavvurlar berishi mumkin.

### BAHO BERING:

«Kecha va kunduz» romanidan Razzoq so‘fi va Akbarali mingboshi portreti aks etgan lavhani toping. Mazkur lavha asosida Cho‘lponning **portret yaratish mahoratini** izohlang.

**Obraz** – asarda qatnashuvchi, asar syujetida muallif yuklagan vazifalarni bajaruvchi shaxslar, jumladan, bosh qahramonlar, asosiy obrazlar, yordamchi (epizodik) obrazlar. Badiiy asarda inson tasviridan tashqari detallar, narsa-buyumlar, hayvonlar dunyosi, peyzaj ham obraz sifatida ishtirok etishi mumkin.

**Xarakter** – boshqalarga o‘xshamaydigan, o‘z individual xatti-harakatlariga, ruhiy kechinmalariga, muhim xususiyatlarga ega bo‘lgan shaxs tasviri. Misol uchun, «O‘tkan kunlar»dagi O‘zbekoyimni xarakter deyishimiz mumkin.

**Adabiy tip** – muayyan ijtimoiy guruhning biror bir toifasiga mansub kishilariga xos tipik (umumiy) xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan shaxs. Misol uchun. «Mehrobdan chayon»dagi Solih Mahdum yoki «Abulfayzxon»dagi Abulfayzxonni tip deyish mumkin.

### TAHLIL QILING:

«Kecha va kunduz» romanidan **xarakter** va **tipga** misollar toping. Fikringizni matn asosida dalillang.

### O‘YLAB KO‘RING:

Romandagi Miryoqub obrazining o‘zbek adabiyotidagi an’anaviy obrazlardan farqi nimada? Uni «**mujaddid**» (**yangi tipdagi**) **obraz** deya olamizmi?

XX asr o‘zbek adabiyotining deyarli barcha namunalarida muallifning g‘oyaviy konsepsiyasini targ‘ib qiluvchi estetik ideali (**protagonistlar** yoki **ijobiy obrazlar**) va estetik idealga zid salbiy obrazlar (**antagonistlar**) mavjud bo‘lgan.

### O‘YLAB KO‘RING:

«Kecha va kunduz» romanidagi bosh qahramonlardan biri Miryoqubni **protagonist** deyish mumkinmi? Nima uchun?




Har bir ijodkorning hayotdagi voqealarga yondashishi va ularni badiiy talqin qilishiga xos, individual, boshqalarga o'xshamaydigan g'oyaviy, badiiy xususiyatlari **ijodkor uslubini** belgilaydi. Ijodkor uslubining o'ziga xosligida muallif dunyoqarashi, madaniy saviyasi, badiiy mahorati, iste'dodi muhim ahamiyat kasb etadi.

### TADQIQ QILING:

«Kecha va kunduz» va siz avvalroq o'qigan «O'tkan kunlar» romanlari misolida Abdulla Qodiriy va Cho'lponning **portret va obraz yaratish mahoratini** solishtiring. Fikrlaringizni asarlar matnidan misollar asosida izohlang.



«Kecha va kunduz» asariga ishlangan muqova. «Ilm-ziyo-zakovat» nashriyoti, 2019-yil



### YOZMA TOPSHIRIQ

Yozishga tayyorlanamiz. Sinfdozlaringiz bilan romandagi **hayotiy tajribamiz** uchun muhim bo'lgan, ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar aks etgan o'rinlarni topib, quyidagi jadvalni to'ldiring.

Hayot o'g'itlari	Qaysi obrazlar tilidan aytilgan	Bu o'git nimani anglatadi
Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yengadi	Miryoqub va Mingboshi o'rtasidagi suhbatdan	

To'ldirgan jadvalingizdan bir o'gitni tanlang. Bu o'git sizning hayot yo'lingizda qay darajada **saboq** bo'lishi mumkinligi (yoki bo'lganligi) haqida insho yozing. Inshoda sinfdoshlaringizga tavsiyalar bering.

## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

«**A**dabiyot tufayli... ko'ngilda bosh ko'targan kechinmalar tufayli bugungi sivilizatsiya odamiylashdi, najot topdi. Adabiyot ahli o'ylab topgan badiiy to'qima qumga singigan suvdek izziz ketmadi, bil'aks, toshga aylangan yuraklarni mumdek eritdi. Yaxshi kitoblar bo'lmaganida edi, insoniyatning bugungi holiga maymunlar yig'lagan bo'lardi, mustaqil fikrdan mahrum «labbaychi»lar urchib ketardi, ko'ngil birligi yo'qolardi, mutelik kayfiyati keng tarqalib, o'z-o'zini anglash tuyg'usi – taraqqiyotning yetakchi omili – yo'qolardi.»

*Mario Vargas Lyosa.  
Yozuvchi, publitsist, siyosat arbobi,  
adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati  
(1936-yilda tug'ilgan, Peru)*

### O'YLAB KO'RING:

Adabiyot qanday qilib xalqni, millatni **mutelikdan**, mustaqil fikrdan mahrum **manqurtlardan** qutqarib qoladi deb o'ylaysiz? «Ko'ngil birligi» siz uchun nima?

Biz o'qishga hozirlanayotgan «**Adabiyot nadir**» adabiy-tanqidiy maqolasida o'n olti yoshli o'spirin ijodkorning adabiyotning mohiyati, uning jamiyat, millat taraqqiyotidagi o'rnini, ahamiyati haqidagi shaxsiy qarashlari o'rin olgan.

## ADABIYOT NADIR

Adabiyot har bir millatning hisli ko'ngul tarixining eng qorong'u xonalarida maishat (tirikchilik)ning ketishiga qarab har xil tusda va rangda yetishgan, fayzli til birla taqdir etula olmaydirg'on bir guldir. Ushbu yashadigimiz muhit doirasida aning to'lquni odamning har xil maishatiga qarab o'zgaradir.

Har sinf, xalqning o'ziga maxsus ohangi, o'ziga ta'sir qiladurg'on zori bo'lur. Mana shul muhit bo'shligida bo'lgan qat'iy to'lqunning bir-biriga birlashmagidan har odamga har xil shodliq va yo ko'b achchiq ta'sir etmagidan odamning ko'nglida o'zi bilmasdan o'rnashub qolg'on va har vaqt, umrining oxiriga qadar saqlanaturg'on qayg'ulanmak va yo ko'krak kerib qo'b dam olurday oh urmaklar — hamasi ko'ngilda har xil rangda, har xil kayfiyatda to'lub yotqon adabiyot xosasindan sanalur. Kishi ba'zi vaqtda shodlikdan kulur va ba'zi vaqtda ko'z yoshin to'kub yig'lar, oh tortar. Odamning mundog' har xil kayfiyatga kirub turmog'i o'z ixtiyori ila bo'lmay, balki maishati yo'lida har vaqt uchrab turadurg'on falokatning

anga ba'zi vaqtda zulm ko'rsatmog'i va ba'zi vaqtda bir yaxshilik ko'rsatub suyundirmog'idin kelub — yaxshi ko'rganda suyunib, yomonliq ko'rganda yig'lab — shundog' bo'lub ikki turli o'zgarub turar, ba'zi vaqtda falak bir odamni qayg'uga solar, ul o'zi tushunib, o'ylab turub, oh tortub yig'lar. Bu hasratlarni o'z ichiga sig'dirolmas. Birovga aytsa, «Voy bechora» deyurmukin, deb o'z qayg'usini birovga aytmakka tilar. To'p to'g'ri aytganda u qadar ta'sir qilmas. Adabiyot ila aytganda albatta ta'sir qilar. Mening bir oshnamning o'ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda maktub kelar, maktubda alarning ko'rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

*Gullar bila pok qayg'uli mahzun boqurdi*

*Ko'z yoshlarimiz to'xtamay tun-kun oqurdi.*

Mana shuni o'qub albatta bir ta'sir ila alarning qayg'usiga qo'shulurmiz. Bir bola uxlamasa alla aytarlar. Bola tez uxlab ketar. Chunki ul andin bir lazzat his qulur. Eski bobolarining bir ma'shuqa uchun Qoshg'ar taraflariga yayov borganini va yo'lda o'g'rilar tarafidan o'lturulgani g'oyat yaxshi ohang bilan aytilur. Ul vaqtda bola ta'sirindan uxlab ketar. Shunga o'xshash o'zining shavkat va g'ayrati ila zamonasida butun dunyoni havor va dahshatga solg'on jahongirlarning o'tkazgan kunlarin va davrlarin tarixlarda ko'rsa va eshitsa har kishi yuragida bir botirliq va bir fidokorlik his etar va qahramonona umidlarda bo'linur.

Mana shunday qahramonona umid, qahramonona his va qahramonona g'ayrat — barchalari tarixiy adabiyotning natijasidan boshqa narsa emasdir. Hech to'xtamasdan harakat qilub turg'on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa — millat yashar. Adabiyoti o'lmag'on va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'on millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'on millat o'zini inqirozda ekanun bildirur.

Bizdan boshqa millatlarga ko'z solsak ko'ramizki, alarning olti yoshdan oltmish yashar qarilarina qadar adabiyotdan bir lazzat olub oxir umriga qadar adabiyot o'qub eshitmakni vazifai milliyasidan hisob qilur. Mana shuning uchundirki, Ovro'poning har shahar va qishloqlarida har kun, har hafta adabiyot kechalari qilinur, adabiyot o'qilur, nutq so'ylanub xalq ko'b kirub ta'sirlanurlar. Mana totor qardoshlarimiz yilda bir daf'a bo'lsa ham shahar va qishloqlarida «Adabiyot kechalari» qilub xalqg'a ruh berub ko'b olqishlar, ofarinlar oldigini g'azetalardan o'qub turmakdamiz. Bizlar esak adabiyotdan lazzat olmak bir tarafda tursun, hatto bobolarimiz va bolxosa «Islom madaniyati» zamoninda katta ro'l o'ynag'on va alarning maishatlarin ko'rsatgan ta'rix umumiyarlarni o'qub anglamoqdin ham ko'b yiroq turamiz.

Bizni ulamo va eshonlarimiz to‘n kiyimlardan, avomlarimiz choyxonalarga chiqub choy ichimlikdan va ziyolilarimiz esa Ovrupo kiyimliklaridan va qiymatlik papiro‘slaridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytilgancha «ya‘ni, masalan»dan boshqa javoblari yo‘qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushub, keladig‘on istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo‘lmagani uchun bir ishni qilamiz deb endi o‘ylaganimizda o‘y yo‘q — fikrlar chochilib, aqlarimiz parishon bo‘lub ketar.

Adabiyot chin ma‘nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkur yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma‘rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladig‘on, chang va tuprog‘lar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydirg‘on buloq suvi bo‘lg‘onlikdan bizga g‘oyat kerakdir.

Endi, ey, qardoshlar! Adabiyot o‘quylik. Adiblar yetishdirayluk, «adabiyot kechalari» yasayluk. Ruh, his, tuyg‘u, fikr, ong va o‘y olayluk, bilayluk. Agarda «bayoz» va bema‘ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroziy bo‘lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig‘ bo‘lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo‘lmayluk. Menim bu ojizona fikrima qo‘shilaturg‘onlar bo‘lsa adabiyotning foydasi to‘g‘rusinda «Oina» va «Sado»larimizga tarixiy va adabiy maqola va she‘rlar yozsunlar, kitoblar tartib bersunlar. Hozirda bizga birdan-bir lozim bo‘lg‘on narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot...

*«Sadoyi Turkiston» gazetasi, 1914-yil 4-iyun*

## LUG‘AT



**havor** — asoratga solmoq, ezmoq

**bolxosa** — xususan

**bayoz** — XX asr boshlarida Turkistonda keng tarqalgan, biror bir shoir tomonidan tuzilgan she‘riy to‘plam turi. Masalan, «Bayozi Haziniy», «Bayozi Kamiy»...

**«Oina va sadolarimizga»** — 1913-1917 yillar orasida Samarqandda jadidlarning ma‘naviy otasi Mahmudxo‘ja Behbudiy muharrirligida chiqib turgan «Oina» jurnali va «Sadoyi Turkiston» hamda «Sadoyi Farg‘ona» gazetalari nazarda tutilmoqda.





## Bilasizmi?

Cho'lpon dramaturg, nosir, publitsist, tarjimon bo'lishi bilan birga iste'dodli adabiyotshunos, mohir muhaqqid ham bo'lgan. Mavjud manbalarga ko'ra, Cho'lpon 1914-1937 yillar mobaynida 63dan ortiq adabiy-tanqidiy maqolalar yozgan va maqolalari davr matbuotida, xususan, «Sadoyi Turkiston», «Maorif va o'qig'uvchi», «Yer yuzi», «Guliston», «Farg'ona» kabi jurnal va gazetalarda nashr etilgan. Cho'lponning ilk maqolasi «Adabiyot nadir» nomi bilan «Sadoyi Turkiston» gazetasining 1914-yil 4-iyun kungi sonida e'lon qilingan. Cho'lpon mazkur maqolani yozganida 16 yoshda edi.

## SAVOLLAR



1. Cho'lpon nima uchun adabiyotni **gulga** o'xshatyapti? Gul va adabiyot o'rtasida adib aytgan xususiyatlardan tashqari yana qanday o'xshash jihatlar bor deb o'ylaysiz? Fikrlaringizni o'qigan asarlaringiz misolida izohlang.
  2. Cho'lpon «Adabiyot yashasa – millat yashar» deya adabiyotning ijtimoiy vazifasiga urg'u beradi. Sizningcha, adabiyotning **ijtimoiy hayot, jamiyat oldidagi vazifasi** nimalardan iborat? Adabiyot ijtimoiy muammolardan xoli ham taraqqiy etishi mumkinmi?
  3. Maqoladan adabiyotning **obrazli** tabiatiga bag'ishlangan o'rinlarni toping va qayta o'qing. Adabiyotning badiiy xususiyatlarini sanang va bunga misollar keltiring.
  4. «Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan qaralgan, o'chgan, yarador ko'ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg'on, o'tkur yurak kirlarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurg'on, chang va tuprog'lar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydirg'on buloq suvi bo'lg'onlikdan bizga g'oyat kerakdir».
- «Yarador ko'ngil», «qora balchiq», «o'tkir yurak kirlari», «xiralashgan oynalar», «chang va tuprog' to'lgan ko'zlar» qanday qilib adabiyot yordamida **«tozalanishi»** mumkin? Fikringizni aniq misollar bilan izohlang.
5. Cho'lponning «Adabiyot nadir» maqolasidagi sizni **junbushga** keltirgan o'rinlarni belgilang va ularga izoh bering. Sabablarini tushuntiring.



## IJOD QILAMIZ: ANNOTATSIYA

Kitobxonda asar haqida **umumiy tasavvurlar** uygʻotish, asarga **qiziqtirish** maqsadida **annotatsiya** (lotincha «annotatio» – «qayd» soʻzidan) yoziladi. Annotatsiyada asardagi eng muhim, oʻquvchining eʼtiborini tortadigan va asarning umumiy mazmunini ochib bera oladigan jihatlarga eʼtibor beriladi.

Annotatsiyada quyidagilar qamrab olinadi:

- asar turi (janri);
- badiiy asarlar annotatsiyasida – asarning mazmuni, bosh qahramonlar, asar voqealar kechadigan vaqt va joy haqida qisqacha maʼlumot;
- oʻquv, ilmiy yoki ommabop asarlar annotatsiyasida – asarning oʻziga xos xususiyatlari, shu mavzuga bagʻishlangan boshqa asarlardan farqi haqida qisqacha maʼlumot.

Shuningdek, annotatsiyada asarning **kimlarga moʻljallanganligi** haqida maʼlumotlar keltirilishi mumkin.

Annotatsiya odatda kitobning orqa muqovasiga yoki titul varagʻining orqasiga, kitob haqidagi bibliografik maʼlumotlardan keyin joylashtiriladi.

**Badiiy asar annotatsiyasi** namunasini koʻrib chiqaylik:

kitob haqidagi bibliografik maʼlumotlar (muallif, kitobning nomi, nashriyot haqidagi maʼlumotlar, betlar soni)

### **Hoshimov. Oʻtkir**

Dunyoning ishlari: Qissa. / Oʻtkir Hoshimov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 208 b.

Oʻtkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi avtobiografik ruhdagi asarlarni eslatadi. Unda yozuvchi urush yillarida kechgan bolaligi orqali oʻz onasining aniq portretini yaratadi. Yozuvchi ushbu asarda pokiza, zahmatkash va mushfiq oʻzbek onalarining qiyofasini chizadi.

annotatsiya

### **Yuqoridagi annotatsiyani tahlil qilsak:**

Oʻtkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari» qissasi (*asar janri*) avtobiografik ruhdagi asarlarni eslatadi. Unda yozuvchi urush yillarida kechgan bolaligi orqali (*asar voqealari kechadigan vaqt va joy*) oʻz onasining aniq portretini yaratadi (*asarning bosh qahramonlari*). Yozuvchi ushbu asarda pokiza, zahmatkash va mushfiq oʻzbek onalarining qiyofasini chizadi (*qisqacha mazmuni*).



## O'quv, ilmiy yoki ommabop asarlar annotatsiyasi namunasi:

**Y 83** **Yosh bilimdon.** [Matn]: bolalar ensiklopediyasi. («Mening birinchi ensiklopediyam» turkumidan). / – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 96 b.

ISBN 978-9943-07-670-9

Bolalar uchun mo'ljallangan ushbu ensiklopediyada atrofimizdagi borliq – u yoki bu tabiat hodisalari va ular nima uchun sodir bo'lishi haqida hikoya qilinadi. Ko'pdan ko'p yorqin bezaklar o'qilgan mavzularni yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Mazkur kitob o'rta yoshdagi maktab o'quvchilarini zukkolik, bilimdonlik sari yetaklaydi.

Yosh kitobxonlar e'tiboriga havola qilinayotgan ushbu ensiklopediya ularning dono do'sti bo'lib qolishiga ishonamiz.

### TAHLIL QILING:

Yuqorida berilgan annotatsiya namunalarini o'qing va quyidagilarga javob bering:

- annotatsiya matni qanday tuzilgan?
- kitob mazmuni haqida qanday ma'lumotlar keltirilgan?
- kitobxonni qiziqtirish uchun qanday so'zlar ishlatilgan?



### Guruhlarda ishleng.

Shu paytgacha darslarda o'rganilgan asar yoki maqolaga annotatsiya yozing. Sinfda har bir annotatsiyaning yutuq va kamchiliklarini muhokama qiling.

# Mixail Bulgakov

(1891–1940)

## «ITYURAK»:

### FANTASTIKA VA GROTESK YORDAMIDA KO'TARILGAN IJTIMOY-FALSAFIY MUAMMOLAR



#### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- «Ityurak» qissasining **syujeti**, **obrazlari** va unda ko'tarilgan **ijtimoiy-falsafiy muammolarni** tahlil qilamiz;
- qissada **satira** elementlarini tahlil qilamiz.

«**S**enzuraga qarshi kurashish, bu senzura qanday shaklda bo'lmasin va qanday hukumat tomonidan o'rnatilmasin, hamda so'z erkinligiga chaqirish — mening yozuvchilik burchimdir. Men so'z erkinligi tarafdoriman va o'ylaymanki, agar qaysidir yozuvchi unga bunday erkinlik kerak emasligini isbot qilishga harakat qilsa, u ko'pchilik oldida «menga suv kerak emas», deb da'vo qilayotgan baliqqa o'xshaydi.»

Mixail Bulgakovning SSSR hukumatiga xatidan, 1930-yil





## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI


Mixail Bulgakov 1891-yil Rossiya imperiyasi tarkibidagi Kiyev shahrida (hozirgi Ukraina) ruhoniy oilasida tug'ildi. Avval Gimnaziyada, keyin Kiyev universitetining tibbiyot fakultetida tahsil oldi. Birinchi jahon va fuqarolar urushi paytida shifokor bo'lib xizmat qildi. 1920-yillarda Moskvaga kelib, shu yerda adabiy faoliyatini boshladi. Gazetalar uchun felyetonlar, hikoyalari, qissalar yozdi, teatr uchun sahna asarlari yaratdi. 1930-yillarga kelib matbuotda adibga qarshi bir qator maqolalar chop etildi, uning asarlarini chop etish, dramalarini sahnada namoyish etish taqiqlandi. Natijada oilasi moddiy qiyinchilikda yashashga majbur bo'ldi.

1939-yilda sog'ligi keskin yomonlashgan Mixail Bulgakov 1940-yil Moskva shahrida vafot etdi.

### ASARLARI

- ❖ «Yosh shifokor qaydlari» turkum hikoyalari (1925)
- ❖ «Chichikovning sarguzashtlari» (1921), «Shaytonnoma», (1923), «Kasofat tuxumlar» (1924), «Ityurak» (1925) qissalari
- ❖ «Zoykaning xonadoni» (1925), «Turbinlar kunlari» (1925), «Qochish» (1926-28), «Qizil orol» (1927), «So'nggi kunlar (Pushkin)» (1935), «Ivan Vasilyevich» (1936) pyesalari
- ❖ «Oq gvardiya» (1922-24), «Teatrcha roman» (1936-37), «Usta va Margarita» (1929-40) romanlari

*Mixail Bulgakov shoh asari – «Usta va Margarita» romani ustida 1929-yildan umrining oxirigacha ishladi. Asar ilk marotaba 1966 – 1967-yillarda jiddiy qisqartirishlar bilan, 1990-yilda esa to'liq shaklda chop etildi.*





## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qiydigan «**Ityurak**» qissasi 1925-yilda yozilgan. 1926-yilda Mixail Bulgakovning xonadoni tintuv qilinganda asar qo'lyozmasi ham olib ketiladi va uch yildan keyingina muallifga qaytarib beriladi. 1960-yillarda asar xalq tilida «samizdat» deb atalgan, taqiqlangan asarlarni ko'paytirish bilan shug'ullanadigan yashirin bosmaxonalarda chop etiladi. Bunday bosmaxonalarda bosilgan asarlarni o'qigan kimsalarga qamoq jazosi berilishi mumkin edi. Asarning to'la matni ilk marotaba 1989-yilda nashr etiladi.

1920-yillarda inson organizmini yashartirish bo'yicha tajribalar olib boriladi. Asl kasbi shifokor bo'lgan Bulgakov bu tajribalarni qiziqish bilan kuzatadi va unda «Ityurak» qissasi g'oyasi tug'iladi. Asar tibbiyot professori Preobrajenskiyning itni odamga aylantirish tajribasi haqida hikoya qiladi.

### O'YLAB KO'RING:

Inson boshqa mavjudotlardan qaysi **xususiyatlari** bilan ajralib turadi?

Bir qarashda tibbiy tajriba haqida hikoya qiluvchi asardek tuyuladigan bu qissa SSSRda nima sababdan **taqiqlangan** bo'lishi mumkin?

Fuqarolar urushida g'alaba qozongan sovet hukumati 1920-yillarda o'z hokimiyatini mustahkamlashga va yangi jamiyat qurishga kirishadi. O'sha paytda SSSR davlat madhiyasi sifatida qabul qilingan «Internatsional» («Baynalmilal») qo'shig'ida (proletarlar – ishchilar qo'shig'i) shunday satrlar bor edi:

Biz o'zimizning yangi dunyomizni quramiz,

Hech kim bo'lmagan kishi – hamma narsaga ega bo'ladi.

«Ityurak» qissasi voqealari «oldin hech kim bo'lmagan» va sovet hokimiyati tomonidan mislsiz vakolatlar berilgan shaxslarning boshboshdoqliklari, inson huquqlarining buzilishi, ocharchilik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolar avj olgan davrda Moskvada sodir bo'ladi.

### TADQIQ QILING:

Adabiyotshunoslar «Ityurak» qissasini **fantastika** elementlari aralashgan **ijtimoiy, falsafiy, satirik** qissa deb hisoblashadi. Asarni o'qish davomida undagi fantastika va satira elementlarini topishga hamda asarda ko'tarilgan ijtimoiy va falsafiy muammolarni aniqlashga harakat qiling.

## ITYURAK

### Dahshatli voqea

#### I

Uv-uv-u-u-u-uv! Men shoʻrlikka bir razm solinglar, oʻlyapman, axir. Tashqarida oʻkirayotgan boʻron bamisoli janozamni oʻqiyapti, men ham boʻronga qoʻshilib uv tortyapman. Shoʻrginam qursin, shoʻrginam... Xalq Xoʻjaligi Markaziy Kengashining oddiy ishchilar oshxonasida isqirt qalpoqli bir ablah oshpaz ustimga qaynoq suv toʻkib, chap biqinimni pishirdi-qoʻydi. Voy laʼnati-yey, yana proletariy! Voy jonim-ey, biram ogʻriyaptiki!.. suyaklarimgacha sirqiratib yubordi. Endi yotib uv tortyapman. Faqat uv tortganing bilan darding yengillashsa qani edi-ya... Nima, men uning arpasini xom oʻribmanmi? Tovba! Oʻsha axlatxonasini ozgina titkilaganim bilan Xalq Xoʻjaligi Kengashining jami ozuqasini yamlab yuborarmidim? Ochofat maxluq! Siz fursat topib uning afti-angoriga bir razm soling-a: basharasi moy surilgandek yalt-yult qiladi. Qip-qizil oʻgʻri. Eh, odamlar, odamlar... «Qalpoq» meni peshinda qaynoq suv bilan mehmon qilgandi, hozir esa qorongʻi tushgan, Prechistenka oʻt oʻchirish komandasi qarorgohidan qovurilgan piyoz hidi kelayotganiga qaraganda, oradan yana toʻrt soatlar chamasi oʻtgan. Oʻzingizga yaxshi maʼlumki, oʻt oʻchiruvchilar boʻtqa isteʼmol qilishadi. Ular uchun boʻtqa qoʻziqorinday mazali taom. Lekin oʻsha prechistenkalik itlarning hikoya qilishlaricha, Neglinniydagi «Bar» restoranida goʻyoki kundalik taom sifatida porsiyasi 3 soʻm 75 tiyin turadigan qoʻziqorin-u pikan qaylasi isteʼmol qilisharmish. Bu, albatta, shinavandalarning ishi, kalish yalagandek bir gap... Uv-u-u-uv...

Biqinim zirqirab ogʻriyapti, yaqin istiqbolimni ham mutlaqo aniq sezib turibman: kuygan joylarim yaraga aylanadi. Qanday davolanaman endi? Yoz boʻlsa ekanki, zingʻillab Sokolnikiga borsang, u yerda ajoyib, juda

yaxshi bir shifobaxsh oʻt oʻsadi, undan tashqari, tekin kolbasa boʻlaklarini terib yesa boʻladi. Hurmatli grajdanlar yogʻli qogʻozlarni tashlab ketishadi, ularni maza qilib yalash mumkin. U yerda anavi oy nurida oʻltirib «Azizim Aida»ni kuylaydigan qandaydir loʻttibozning yurakni ezuvchi nolasini hisobga olmasa, hammasi joyida boʻlardi...

Hozir-chi, qayerga ham borasan?.. Sizni hech etik bilan orqangizga tepishganmi? Tepishgan. Qovurgʻangizga gʻisht



1920-yillar. Moskva

bilan tushirishganmi? Yetarlicha tushirishgan. Hammasiga chidaganman. Allaqachon taqdirga ham tan berganman. Agar hozir yig'layotgan bo'lsam, faqatgina jonim og'rganidan, sovuqdan yig'layapman, lekin ruhim hali tetik. Itlarning ruhiyati barqaror bo'ladi. Mana, butun tanamning sog' joyi qolmagan, yara-chaqa, hammasi mehribon odamlarning sharofati. Lekin asosiysi qaynoq suv bilan pishirishganidan keyin yuz berdi: biqinimning junlari to'kilib, shir yalang'och bo'lib qoldim. Endi o'pkamni shamollatib qo'yishim ham hech gapmas, undan ham oldin, qadrli grajdanlar, ochimdan o'lamani. O'pkasi shamollagan it zinapoya tagidagi qalin qilib to'shalgan burchakda jim yotishi kerak. Xo'sh, u holda menday bo'ydoq va oshqozoni pakillab yotgan kuchuk o'rniga kim qorin to'yg'azish uchun axlatxonama-axlatxona chopadi? O'pkam butunlay ishdan chiqqan taqdirda ham qornim bilan emaklab, obdan holdan toyib yurganimda istagan odam tayoq bilan bir urib surobimni to'g'rilaydi-qo'yadi. Ko'cha supuruvchilar esa meni oyog'imdan ushlab, axlat ortilgan aravaga uloqtirishadi.

Ko'cha supuruvchilar proletarlar ichidagi eng berahm, battol odamlardir. Ular eng past tabaqaga mansub. Oshpazlarning har xili uchraydi. Masalan, prechistenkalik marhum Vlas. U ozmunchamizning hayotimizni saqlab qoldimi? Har qanday bemor uchun eng muhimi — bir burdagina nimadir yeb olish. Qari itlarning gapiga qaraganda, o'sha Vlas deganlari ba'zida suyakka qo'shib yaxshi g'ajilmagan go'sht ham tashlab turarkan. Joying jannatda bo'lgur asil inson bo'lgan-da, man-man degan graf Tolstoylarning xonadonida xizmat qilgan, anavilarga o'xshab mo'tadil ovqatlanish Kengashida emas... Ularning ovqatlanish tarmog'ida ko'rsatayotgan karamatlariga itning ham aqli bovar qilmaydi. Anavi ablahlar bo'lsa, tuzlangan sassiq go'shtdan karam sho'rva pishirishadi, hech narsadan bexabar haligi sho'rliklar esa, yugura kelib yeb-ichib mazza qilib ketishadi.

Anovi mashinkachi esa to'qqizinchi razryad bo'yicha to'rt yarim so'lka-voy oladi ... Ha... Yugurib-yelib keladi sho'rlik mashinkachi... Axir, uning 4,5 so'lkavoyiga «Bar»ga kirishning iloji yo'q. Hatto kinematografga ham yetmaydi. Kinematograf esa ayollar hayotida yakka-yu yagona ovunchoq. Aftini bujmaytirib, ko'zlarini yumib-ochib turgan bo'lsa ham gupillatib hammasini yeb oladi. O'zingiz o'ylab ko'ring: ikki xil ovqat uchun 40 tiyin to'lash kerak. Vaholanki, bu ovqatlar 15 tiyinga ham arzimaydi. Chunki qolgan 25 tiyinni zavxoz cho'ntagiga uradi. Mashinkachiga shunaqa hashamatli stol kerak deysizmi? Uning o'ng o'pkasining yuqori qismi dardga chalingan. Ishxonasida undan balo-battarlar uchun pul ushlab qolishadi, oshxonada esa yuvindi bilan qornini to'yg'azvorishadi, ana u, ana u... Oyoqlari muzday, qorniga sovuq shamol kirib ketyapti, chunki ko'ylagi mening junimga o'xshagan, ishtoni ham ipildiriqgina, quruq to'rlar-u lentlardan tikilgan. Achinaman unga, juda achinaman! Lekin undan ham ko'proq o'zimga rahmim keladi. Xudbinligim tufayli aytayotganim yo'q bu gaplarni, biz haqiqatan ham u bilan bir xil sharoitda yashamayapmiz. U



hech bo'lmasa uyiga kirib isinadi-ku! Men-chi, men qayoqqa boraman?  
U-u-u-u-!..

— Kuch-kuch-kuch! Sharik, hoy, Sharik, namuncha g'amnok uv tortmasang sen sho'rlik? Kim seni xafa qildi? Eh...

Jodugar bo'ron darvozalarni taraqlatib, bechora xonimning quloqlarini yalab o'tdi. Yubkasini ko'tarib, och sarg'ish paypoqli tizzalarini, yaxshi yuvilmagan ich kiyimining to'rlarini ko'rsatib, uning so'nggi so'zlarini yutib, itni esa nariga surib tashladi.

Voy xudoyim-ey. Bu qanaqa havo bo'ldi-a?.. Voy... Qornim hamon buyrayapti. O'sha go'shtning asorati bu, sasigan go'shtning... Qachon bularning oxiri bo'larkin-a?

Xonim boshini eggancha, bo'ronga qarshi hujumga o'tdi, darvozadan chiqib, ko'chada izg'irin bilan olisha-olisha, qorda toyg'ana-toyg'ana ko'zdan g'oyib bo'ldi. It esa darvozaxonada yarador biqinidan azob chekkan holda muzday devorga suyangancha, yolg'iz o'zi qoldi. Hamda bu yerdan endi aslo qo'zg'almaslikka, shu yerda o'limini kutishga qat'iy qaror qildi. Tushkunlik uni shu ko'yg'a solgandi. Qalbida shunchalar armon, shunchalar dard-alam, yolg'izlik va dahshat bor ediki, hatto ko'zlarida mayda yosh tomchilari paydo bo'lib, pastga oqib tushar va shu zahoti qurib qolardi. Kuygan biqinida junlari suv, qor tekkani tufayli sumalak bo'lib qotib qolgan, ular orasidan esa terining kuygani, katta-katta qizg'ish dog'lar yaqqol ko'zga tashlanardi. Bu oshpaz deganlari namuncha befahm, befarosat, toshbag'ir bo'lmasa?! Xonim uni «Sharik» deb chaqirdimi? Qanaqasiga u Sharik bo'lsin, axir? Sharik deganlari xo'ppa semiz, to'yib ovqat yegan, yum-yumaloq, tentak, sulib bo'tqasini tanovul qiluvchi, zodagon itlarning farzandi degani-ku, axir! U bo'lsa junlari yulingan, tanasi shilingan, kuygan, oriq, ko'cha-ko'yda sang'ib yuradigan, sayoq it bo'lsa... Ha, mayli, shirinsuxanligi uchun ham rahmat.

Ko'chaning narigi tomonidagi chiroqlari charaqlab yonib turgan magazinning eshigi sharaqlab ochilib, ostonada bir grajdanin ko'rindi. Haha, o'rtoq emas, grajdanin, to'g'rirog'i — janob. Janob deyilsa, haqiqatga yaqinroq va aniqroq bo'ladi. Paltosiga qarab, shunday deyapti deb o'ylayapsizmi? Xato qilasiz! Hozir proletarlarning ko'pchiligi palto kiyadi. To'g'ri, yoqasi bunikiday emas albatta, bunaqasi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas, lekin uzoqdan adashtirish mumkin. Ammo ko'zlar... Bu shunday narsaki, uzoqdan ham, yaqindan ham o'zgarmaydi, adashtira olmaysan. Xuddi barometrqa o'xshaydi ular. Ko'zga qarab, odamning qalbida nimalar kechayotganini bilish mumkin, hammasini payqasa bo'ladi: kimning qalbi Sahroyi Kabir singari bo'm-bo'sh, kimdir hech nimadan-hech nima yo'q etigi bilan qovurg'angga nuqib qoladi, ba'zi birovlar esa o'zlaridan-o'zlari «pirr» etgan narsadan qo'rqib yurishadi. Mana shu oxirgi landovurning «xap» etib boldiridan tishlab olish juda maroqli bo'ladi-da.



Qo‘rqasanmi — ol oladiganingni! Qo‘rqsang — demak, narxing shu... r-r-r. Vov-vov.

Janob dadil qadamlar bilan simyog‘och bo‘yi baravar bo‘ron ko‘tarilayotgan ko‘chani kesib o‘tib, darvozaxona tomon yo‘naldi. Ha-ha, hammasi ko‘rinib turibdi. Bu janob sasigan go‘sht yemaydi, mabodo, biron joyda shunday go‘sht taklif qilingan taqdirda ham shunaqangi janjal ko‘targan bo‘lardiki... Keyin esa gazetaga yozardi: meni, Filipp Filippovichni, zaharlamoqchi bo‘lishdi.

Mana u tobora yaqinlashib kelayapti. Bu to‘yib ovqat yeydi, o‘g‘irlik qilmaydi, hech kimni tepmaydi, lekin o‘zi ham hech kimdan qo‘rqmaydi. Nima uchun qo‘rqmaydi? Chunki hamisha to‘q. U aqliy mehnat odami, yumshoq, oppoq, fransuz ritsarlari kabi cho‘qqi soqol va mo‘ylov qo‘ygan janob. Sigarasi ham bor. Ammo undan yoqimsiz kasalxona va sigareta hidi anqib turibdi.

Nima jin urib, u Markaziy Xo‘jalik kooperativida adashib yurgan ekan? Mana, u yonginamda... Nima qidiriyapti o‘zi?..— U-u-u-u... Shu ipirisqi do‘konchadan nima xarid qilishi mumkin? Nahotki, ovchilik bozori unga kamlik qilgan bo‘lsa? Nima-nima? Kol-ba-sa. Janob, siz bu kolbasaning nimadan tayyorlanganligini bilganingizda edi, do‘konchani yaqiniga ham yo‘lamagan bo‘lardingiz. Uni menga berganingiz ma‘qul.

It so‘nggi kuchini to‘pladi-da, darvozaxonadan yo‘lakka qarab sudralib ketdi. O‘q ovoziday guvillab avjiga chiqayotgan bo‘ron «Yosharish mumkinmi?» degan plakatning katta-katta harflarini uchirib yurardi.

Albatta, mumkin. Mana, meni hid yoshartirdi, oyoqqa turg‘azdi, ikki kundan beri hech vaqo tushmagan oshqozonim borligini yodimga soldi, kasalxona hidini ham yutib yuborayotgan antiqa hid, pishirilgan ot go‘shiti, sarimsoq va murchning jannatbaxsh hidi... Sezib turibman, yo‘q, aniq bilaman, po‘stinining o‘ng cho‘ntagida kolbasa bor. Mana u, shundoq burnim ustida. O, hazratim! Menga bir nazar sol. Men o‘layapman, axir! Qismatimiz qursin, qullar qismati!

It ko‘zlaridan shashqator yosh oqizgancha kaltakesakka o‘xshab qorni bilan emaklab ketdi. Oshpazning nimalar qilganini bir ko‘ring-a! Lekin siz bir tishlam ham bermaysiz. Boyvachcha odamlar tabiatini juda yaxshi bilaman, axir! Lekin aslida sizga nima keragi bor sasigan ot go‘shitining? Bunaqa zaharni Mosselpromdan boshqa hech qayerdan topa olmaysiz. Siz esa bugun ertalab nonushta qilgansiz, erkaklik pushtingiz tufayli siz jahonshumul ahamiyatga molik odamsiz. U-u-u-u... bu yorug‘ jahonda nimalar bo‘lyapti o‘zi? Ko‘rinib turibdi, hali o‘lishimga ancha bor, ruhan taslim bo‘lish esa — g‘irt gunoh. Qo‘lini yalash kerak, boshqa iloj yo‘q.

Turgan-bitgani jumboqdan iborat janob esa, itga engashdi, ko‘zlarini yaltillatgancha, o‘ng cho‘ntagidan uzungina oq o‘ram oldi. Jigarrang qo‘lqopchalarini yechmagan holda qog‘oz o‘ramni ochdi, uni shu zahoti





shamol uchirib ketdi, soʻngra Krakov kolbasasidan bir boʻlak sindirdi. Nahotki, shu boʻlak it uchun boʻlsa? O, marhamatli janob! U-u-u!

— Husht-husht, — hushtak chaldi janob, keyin jiddiy ovozda qoʻshimcha qildi: — Ola qol! Sharik, Sharik!

Yana Sharik! Peshonamga shu nom yozilgan ekan shekilli... E, mayli, nima desangiz deyavering, bunday marhamatingiz uchun nima deb atasangiz ham roziman.

It bir zumdayoq kolbasaning poʻstini artdi-da, inqillay-sinqillay bir yamlashdayoq yeb tashladi. Qor aralash bir boʻlak kolbasa tomogʻiga tiqilishiga sal qoldi, chunki ochkoʻzlik qilib, ipini ham yutib yuborayozgandi. Qoʻllaringizni qayta-qayta yalashga, hatto ishtoningizni ham oʻpishga tayyorman, xaloskorim!

— Hozircha yetadi. — Janob xuddi harbiy odamlarga oʻxshab qisqa-qisqa gapirardi. U Sharik ustiga engashib, sinovchan nigohda itning koʻzlariga tikildi, kutilmaganda mehribonlik bilan Sharikning qornini silab qoʻydi.

— Hmm, — dedi u sirli ohangda, — boʻyintirigʻi yoʻq, juda soz, menga aynan sen kerak eding-da, oshna. Qani, men bilan yur-chi, — u barmoqlarini qarsillatdi. — Fit-fit!

Siz bilan?!. E, siz bilan dunyoning narigi chekkasiga ham boraveraman. Oyogʻingizdagi charm botinkangiz bilan tepsangiz ham miq etgan nomard.

Chiroqlar butun Prechistenkani sutday nurafshon etgan. Biqini uzluksiz ogʻrishiga qaramay, Sharik poʻstin kiygan oliyjanob bu kishini yoʻqotib qoʻyishdan qoʻrqib, undan bir qadam ham orqada qolmaslikka intilar va hatto ogʻriqni ham unutayozguday edi. U qanday boʻlmasin, oʻz mehri va vafodorligini izhor etishni istardi. Va buni Prechistenkadan to Obuxov jinkoʻchasigacha boʻlgan oraliqda yetti marta izhor etdi, botinkasini oʻpdi, Murda jinkoʻchasi muyulishiga yetganda, oʻziga yoʻl ochayotib, shunday dahshatli uv tortdiki, yoʻlovchi bir xonim qoʻrqqanidan oʻtirib qoldi, oʻziga nisbatan yanayam rahm-shafqat uygʻotish maqsadida bir-ikki bor zorlanib uv tortib qoʻydi.

Kutilmaganda suv quvuri ostidan badbashara bir daydi mushuk chiqib keldi, boʻron avjiga olayotganiga qaramay, u Krakov kolbasasining hidini sezib qolgandi, chamasi.

Darvozaxonadan yarador itlarni yigʻib yuradigan bu dumbul boyvachcha manavi qaroqchini ham oʻzi bilan birga olib ketishi, keyin Mosselprom mahsulotini oʻrtasidan arra qilishga toʻgʻri kelishi haqidagi fikrdan Sharikning koʻzlarida oʻt chaq nab ketayozdi. Shuning uchun tishlarini gʻijirlatib, mushukka qarab shunday irilladiki, u shoʻrlik, teshik shlangaga oʻxshab pishillagancha quvur ichidan chopqillab ikkinchi qavatga chiqib ketdi.

Fr-r-r... Vov! Yoʻqol! Mosselpromning Prechistenkada izgʻib yuradigan har bir daydining qornini toʻygʻazishga vaqti yoʻq.

Derazasidan Valtornaning yoqimli ovozi eshitilayotgan oʻt oʻchirish komandasi yoniga yetganlarida, janob itning sadoqatini yana bir boʻlakcha



«Ityurak» qissasiga rassom Natalya Skvortsova ishlagan surat

uning oldida ip esholmaydi. Juda xudo urgan zot. Indamasang, boshingga minib, qorningni chavaqlashdan ham toymaydi.

- Nega qo‘rqasan, axir? Yuraver.
- Salomatmisiz, Filipp Filippovich.
- Salom, Fyodor.

Mana buni shaxs desa bo‘ladi. Voy xudoyim-ey, baxtiqaro qismatim meni kimga ro‘para qildi? Ko‘chada yurgan itlarni bunday hashamatli o‘rtoqlik uyiga olib kirishga qodir juda hurmatli, gapi hammaga o‘tadigan qanaqa shaxs ekan o‘zi bu?

Qarang-a, anavi ablahning qimir etgani holi yo‘q. Ko‘zlariga e‘tibor bering, o‘zi indamagani bilan, ko‘zlari yeb tashlaguday tikilayapti, shunga qaramay, har doimgiga nisbatan ancha sipo, ancha bosiq. Go‘yo shunday bo‘lishi kerakday. Hurmat qilar ekan, juda hurmat qilar ekan bu janobni! Eh-ha! Men bo‘lsam u bilan birgaman, izma-iz ketyapman. Nima, tegib ketdimmi? Eplasang, uzib ol. O‘sha qadoq bosgan proletar oyog‘idan bi-ir g‘ajisang! Avlodimizga ko‘rsatgan hamma hunarlari uchun. Basharamni kaltak bilan necha marta bejaganding, a?

- Yur, yura qol.

Albatta, albatta, siz hech xavotir olmang, faqat yo‘lakni ko‘rsatsangiz bas, u yog‘ini bizga qo‘yib beravering. Biqinimning lo‘qillashiga qaramay, orqangizdan bir qadam ham qolmayman.

Janob zinadan pastga qarata:

— Fyodor, menga xat kelmadimi? — deya savol berdi. Pastdan iltifot ila javob berishdi:

— Yo‘q-yo‘q, Filipp Filippovich — dedi (keyin sekin, sirli tovushda),— uchinchi kvartiraga bir necha o‘rtoq joylashtirildi.

Itlarga mehribon hurmatli janob zinada keskin orqasiga o‘girilib, pastga engashdi-da, dahshatga tushib so‘radi:

kolbasa bilan taqdirladi, lekin bu bo‘lakcha avvalgisidan kichikroq, besh tiyinlik chaqani eslatardi.

Eh, g‘aroyib odam ekan! Meni o‘ziga og‘dirib olmoqchi... Xavotirlanmang! Shundoq ham hech qayoqqa jilmayman. Qayerga desangiz, o‘sha yoqqa ergashib ketaveraman!..

— Fit-fit-fit! Bu yoqqa yur!

Obuxovgami? Ma‘zur tutasiz. Bu jinko‘cha bizga juda yaxshi tanish.

— Fit-fit! — Bu yoqqami? Bajoni...

E, yo‘q, ma‘zur tuting. Yo‘q. U yoqda shveysar bor. Bunaqasi olamda yo‘q. Ko‘cha supuruvchi farroshlar ham

– Xo‘sh-sh?

Uning ko‘zlari ola-kula bo‘lib, mo‘ylovlari tikkayib ketdi. Shveysar pastdan og‘ziga kaftini tutib, bosh irg‘agan holda tasdiqladi:

– Xuddi shunday, bir emas, to‘rt kishi.

– Yo tavba! Uyimizda nimalar bo‘lishini endi tasavvur qilish mumkin. O‘zlari nima qilishyapti?

– Hech nima.

– Sizdan so‘rayapman, Fyodor Pavlovich?

– G‘isht va parda olib kelgani ketishdi. Uyni ikkiga bo‘lib, devor qurishmoqchi.

– E, jin ursin, bu qanaqasi, axir!

– Hamma kvartiralarga odam qo‘yisharkan, Filipp Filippovich, siz-nikidan tashqari. Hozir majlis bo‘ldi, yangi shirkat saylashdi, eskilarining esa dumini tugishdi!

– Nimalar bo‘lyapti o‘zi, tavba... Fit-fit.

Ketyapman, mana, yonginangizda-man. Biqinim qurg‘ur zing‘illab, sira tinchlik bermayapti-da. Ijizat eting, botinkangizni yana bir yalab qo‘yay. Shveysarning zar uqali bosh kiyimining gardishi ko‘rinmay ketdi. Marmar yotqizilgan maydonchada quvurdan chiqayotgan issiqlik «gup» etib dimog‘imga urildi. Yana bir marta burilib, mana, manzilimizga ham yetib keldik.

*(Rus tilidan Hojiakbar Shayxov va Gulchehra Nishonovalar tarjimasini)*



*«Ityurak» qissasiga rassom Anatoliy Itkin ishlagan surat*

## LUG‘AT



**Xalq Xo‘jaligi Markaziy Kengashi** – o‘sha paytdagi mahalliy boshqaruv organi

**Prechistenka, Neglinniy, Obuxov jinko‘chasi, Murda jinko‘chasi** – Moskvadagi joy nomlari

**so‘lkavoy** – so‘m

**zavxoz** – xo‘jalik mudiri

**sharik** (ruscha «shar» so‘zidan) – pufakcha. Odatda itlarga qo‘yiladigan laqab

**grajdanin** – fuqaro

**o‘rtoq** – SSSRda rasmiy vaziyatlarda insonlar bir-biriga «o‘rtoq» deb murojaat qilishgan, masalan, «o‘rtoq Lenin»



**janob** – Rossiyada sovet hokimiyati o‘rnatilishidan oldin, monarxiya davrida insonlar bir-biriga «janob» deb murojaat qilishgan

**Mosselprom** – oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va sotish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot nomi

**Valtorna** – musiqa asbobi

**Shveysar** – mehmonlarni eshik oldida kutib oluvchi xodim

## SAVOLLAR



1. Bobda voqealar tasvirlanishiga e‘tibor bering. Sizningcha, muallif nega voqealarni goh **itning nomidan**, goh **uchinchi shaxs tilidan** bayon qiladi?
2. «Ha-ha, o‘rtoq emas, grajdanin, to‘g‘rirog‘i — janob. Janob deyilsa, haqiqatga yaqinroq va aniqroq bo‘ladi». «**O‘rtoq**» bilan «**janob**»ning nima farqi bor? Paltoli kishi nega aynan «janob»?
3. Sizningcha, paltoli janob **kim** va u **nima uchun** itni o‘zi bilan olib ketdi?
4. Muallif itning **xarakterini** qanday tasvirlaydi? Fikringizni matndan misollar bilan asoslang.

Asarning to‘liq matnini o‘qib chiqing.



pdf kitob  
Prezident maktabi elektron  
kutubxonasi



«Yoshlik» jurnali 1989-yil 12-  
soni (38-66-betlar)  
«Ziyouz» kutubxonasi



«Itiyurak» filmidan lavha.  
Rejissyor – Vladimir Bortko  
(Rossiya, 1988-yil)



«Itiyurak» spektaklidan lavha.  
Rejissyor – Artyom Kim.  
«Ilhom» teatri, Toshkent (2017-yil)

### O‘YLAB KO‘RING:

Ushbu lavhalarda asardagi qaysi **epizodlar** aks etgan bo‘lishi mumkin?



## MUTOLAADAN SO'NG

### ASAR TAHLILI



1. Muallif asarga «Dahshatli voqea» deb tagsarlavha qo'yadi. Muallif hikoya qilgan voqea qay juhatdan **dahshatli**?
2. Asar boshida biz it obrazini ko'ramiz. Asar davomida u odamga aylanadi va so'ngida yana o'z holiga qaytadi. Syujetning bunday qurilishi **halqali kompozitsiya** deyiladi. Muallif nega aynan shunday kompozitsiyadan foydalangan deb o'ylaysiz?
3. Sizningcha, itni odamga aylantirish tajribasida Preobrajenskiy qayerda **xatoga** yo'l qo'ydi? Agar tajriba obyekt sifatida Chugunkin emas, boshqa inson tanlanganida tajriba muvaffaqiyatli chiqishi mumkin edimi?
4. Asar yozilishidan bir yil oldin – 1924-yilda Sovet hukumati rahbarlaridan biri Lev Trotskiy «yuqoriroq darajada turadigan ijtimoiy-biologik tur – super-odam yaratish» g'oyasi haqida yozgan edi. Preobrajenskiyning **tibbiy tajribasi** va uni o'rab turgan voqelikda sovet hukumati o'tkazayotgan **ijtimoiy tajriba** o'rtasida qanday o'xshashliklarni ko'rish mumkin? Nima sababdan asar 1989-yilgacha chop etilmagan?
5. Sizningcha, asardagi **ijtimoiy**, **falsafiy** va **axloqiy** muammolarga muallif qanday **yechimlar** taklif qiladi?

### ASARDAGI OBRAZLAR



1. Bosh qahramonlarning **ism-familiyalariga** e'tibor bering. «Preobrajenskiy» familiyasi ruscha «o'zgartirish» so'zidan yasalgan. «Poligrafiya» so'zi tibbiyotda insonning ichki organizmlarini o'rganish maqsadida bir nechta rentgen suratlarini bitta plyonkaga tushirish usulini bildiradi. Muallif nega aynan shunday nomlarni tanlagan?
2. Adabiyotshunos Yuriy Pavlov yozadi: «Shubhasiz, Preobrajenskiy – ziyoli. Lekin «Ityurak»da Bulgakov professorning **ruhiy-axloqiy mo'rtligini** ko'rsatadi». Siz bu fikrga qay darajada qo'shilasiz? Asar matnidan muallif Preobrajenskiy tasvirlashda qo'llagan so'zlarni toping va uning bu obrazga munosabatini izohlang.
3. Bormental Sharikovni «**it yuragini ko'tarib yurgan odam**» deb ataydi. Professor Preobrajenskiy esa unga shunday javob beradi: «Siz, doktor, juda katta xato qilyapsiz. Xudo haqqi, itga tuhmat qilmang. Butun fojia shundaki, uning ko'ksida itniki emas, allaqachon **inson yuragi** urib turibdi». Sizningcha, kim haq? Preobrajenskiymi yoki Bormental?
4. **Shvonder** obrazi asarda qanday ahamiyatga ega? Sizningcha, Shvonder **xatarliroqmi** yoki Sharikov? Nima uchun?





## ADABIYOT NAZARIYASI: SATIRA. GROTESK

Muallifning tasvirlanayotgan voqelikka munosabati **satira** vositasida berilishi mumkin. Satirada (lotincha «qurama», «har xil narsa» soʻzidan) muallif voqealarning real koʻrinishini oʻzgartirish, boʻrttirish, mubolagʻa qilish, keskinlashtirish, kinoya yoʻlidan boradi.


Satira yordamida adib jamiyatdagi illatlarning ustidan kuladi, ularga nisbatan salbiy munosabatini koʻrsatadi. Adabiyotshunoslarning fikriga koʻra, satira muallifi tasvirlanayotgan obyektning eng xavfli jihatini topib, uni kattalashtiradi, boʻrttirib koʻrsatadi, tasvirlanayotgan voqea yoki shaxslarning turmushdagi, tasavvurdagi holatga, mantiqqa nomuvofiqligini ochib beradi.

Oʻzbek adabiyotida satiraning ilk namunalari dastlab xalq ijodida (masalan, terma va aytishuvlar, latifalar) yaratilgan. Mumtoz adabiyotimizda Turdi Farogʻiy, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Zavqiy, keyinchalik Hamza, Abdulla Qodiriy, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Neʼmat Aminov va boshqa ijodkorlar, jahon adabiyotida Jonatan Svift, Fransua Rable, Molyer, Nikolay Gogol singari adiblar oʻtkir satirik asarlar yaratganlar.

*«Ey jahondori zafar, kavkabayi davri falak,  
Goʻsh qil qissayi qishloqi xarobi Hapalak.  
Turfa qishloqi gʻazabkarda ki, parrandalari,  
Tovuqi ignachi-yu, oʻrdag-u gʻozi kapalak.  
Xalqini koʻrsang agar oʻlasi-yu, qoq-u xarob,  
Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.»*

*Maxmur.  
«Hapalak» sheʼridan*

*Oʻzbekistonda satira taraqqiyotiga  
Abdulla Qodiriy tomonidan tashkil etilgan  
«Mushtum» jurnali katta hissa qoʻshgan.*



### TAHLIL QILING:

Bulgakov «Ityurak» qissasida qanday **satirik** elementlardan nima **maqsadda** foydalangan?


Satirada qoʻllaniladigan vositalardan biri – **grotesk**. Bir-biriga qarama-qarshi holatlarning (kulgili va achinarli, goʻzal va xunuk, real va noreal) birlashib ketishi grotesk deyiladi. Grotesk odatda hayotning ziddiyatli qirralariga eʼtiborni qaratish uchun ishlatiladi.

*«Dargʻazab kiraman  
majlisga birdan,  
bir vulqon singari bosib kiraman.  
Hayqirib soʻkaman yoʻl-yoʻlakay man,  
ammo odamlarni,  
odamlarni-chi:  
nimta-nimta boʻlib qolgan koʻraman.  
Ajabo, yo tavba,  
Bu qanaqa sir!  
Bu bechoralarning yortisi qani?  
Dovdirab yuraman naʼralar tortib.  
Birdan eshitaman gapirar kotib  
Gʻoyatda xotirjam bir ovoz bilan:  
“Ular ikkitadan majlisda birdan  
oʻtiribdilar ayni zamonda.  
Kuniga yigirma majlis oʻtkazmoq,  
bularga ulgurmoq lozim ekan-da!  
Shu uchun noiloj boʻlinmoq kerak!”»*

*Vladimir Mayakovskiy.  
«Majlisbozlar» sheʼridan*

### TAHLIL QILING:

«Ityurak» qissasida **grotesk** qoʻllanilgan oʻrinlarni toping. Muallif nima maqsadda grotesk uslubiga murojaat qiladi?



### YOZMA TOPSHIRIQ

Guruhlarda ishlang. Atrofingizdagi biron-bir muammoni **satirik** yoʻl bilan tasvirlaydigan kichik hikoya (pyesa, sheʼr) yozing. Bunda siz kulgi ostiga olmoqchi boʻlgan muammoni boʻrttirib koʻrsatish uchun mubolagʻa, kinoya, grotesk singari vositalardan foydalaning. Yozgan ijodiy ishlaringizni sinfda muhokama qiling.

# Jon Golsuorsi

(1867–1933)

## «ADABIYOT VA HAYOT»:


### ESTETIK DID TAKOMILIDA BADIY SAN'ATNING O'RNI

#### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- muallifning **adabiyot, hayot, go'zallik va baxt** haqidagi qarashlarini tahlil qilamiz;
- Cho'lpon va Golsuorsining **adabiyot va san'atning mohiyati** haqidagi qarashlarini solishtiramiz.

«**H**ech narsa yozuvchini hayotni u yoki bu tarzda his qilishga, ko'rishga majbur qila olmaydi. U o'qish va yozishni o'rganib olganidan keyin boshqalar unga o'rgatishi mumkin bo'lgan yagona narsa – bu qanday yozmaslikdir. Yozuvchining asl murabbiysi – bu hayot.»

Jon Golsuorsi



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Yozuvchi va dramaturg Jon Golsuorsi 1867-yil Londonda tavallud topgan. Jon dastlab maxsus imtiyozlarga ega Harrou maktabida, keyin Oksford universitetining huquqshunoslik fakultetida tahsil oldi. Universitetda u kriket va futbol o'yinlarida taniqli sportchiga aylandi.

1897-yilda Golsuorsining «To'rt shamol» nomli dastlabki hikoyalar to'plami e'lon qilindi. Adibning «Joslin» (1898) va «Villa Rubeyn» (1900) romanlari romantik yo'nalishda yozilgan asarlar sirasiga kiradi. «Fariseylar oroli» (1904), «Qo'rg'on» (1907), «Qardoshlik» (1909), «Patritsiya» (1911), «Frilendlar» (1915) nomli realistik romanlarida esa jamiyatdagi turli tabaqalarga mansub kishilar hayotidagi qarama-qarshiliklar aks ettirilgan.

Golsuorsining ijodiy faoliyati estetizm, naturalizm, modernizm kabi yangi yo'nalishlar paydo bo'lgan davrga to'g'ri kelsa-da, u an'anaviy realizm maktabiga sodiq qolib, uni yangi bosqichga olib chiqdi.

«Forsaytlar haqida qo'shiq» (1906-1922), «Zamonaviy komediya» (1924-1928), «Bobning yakuni» (1931-1933) nomli turkum romanlardan tashkil topgan epopeyasida Golsuorsi XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragidagi ingliz jamiyatining kuchli va ojiz tomonlarini realistik uslubda ochib bergan.

Golsuorsining «Jon» (1907), «Kurash» (1909), «Adolat» (1910) kabi pyesalari ham mehnatkash xalqning og'ir turmushi haqida hikoya qilib, kitobxonni chuqur mulohazalarga chorlaydi.

Jon Golsuorsi – sermahsul ijodkor. U 20ta roman, 27ta pyesa, 3 she'riy to'plam, 173 hikoya, 5 esse va boshqa qator asarlarning muallifidir. Uning asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Yozuvchi 1932-yilda Nobel mukofoti laureati bo'lgan.

Adib 1933-yil Londonda vafot etgan.



## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Jon Golsuorsi so'z san'atining mohiyatini anglashga doir mulohazalarini «Adabiyot va hayot» nomli ma'ruzasida aks ettirgan. Muallif ushbu ma'ruzasini 1931-yil Prinston universitetida o'qigan va keyinchalik maqola sifatida chop ettirgan. Quyida ana shu maqola bilan tanishamiz.

«**A** dabiyot hayotning in'ikosi, ammo uning suratga tushirilgan ayni nuxsasi emas.»

Vissarion Belinskiy, adabiy tanqidchi, publitsist  
(1811-1848, Rossiya)

### O'YLAB KO'RING:

Yuqoridagi fikrga munosabat bildiring. Nima uchun adabiyot hayotning ayni nuxsasi bo'la olmaydi?

## ADABIYOT VA HAYOT

Adabiyot nadir? ... Kitoblar benihoya ko'p bo'lganidan va ular to'g'risidagi qarashlar doimiy ravishda o'zgarib turadigan bo'lgani uchun adabiyotga tuzukroq ta'rifni qidirib topishning o'zi qiyin. Hammamiz, albatta, Shekspirni tan olsak kerak. Biroq undan tashqari yana kimni tilga olsak bo'ladi?

Shaxsan men hech qanday asosga ega bo'lmasam-da, o'zim o'qishga ulgurgan kitoblarnigina adabiyot deb hisoblashga moyilman. Biroq shaxsiy didni bir chetga qo'yib turganda ham aytmoq kerakki, Adabiyotni moddalarga ajratib chiqish juda qiyin. Sahnalashtiruvchi rejissyor o'z teatrining sahnasi uchun Xaloyiq kutayotgan pyesani tanlashga qanchalik qiynalsa, Adabiyotni moddama-modda ajratib chiqish ham shuncha qiyin. Buning farqi faqat shundaki, rejissyor asarni Xaloyiq o'z xohishini bayon qilishidan avval tanlamog'i kerak, biz esa bu ishni kitobni o'qib bo'lganimizdan keyin amalga oshiramiz. ... Biroq boshqa tomondan oladigan bo'lsak, taassuflar bo'lsinki, teatr shinavandalari faqat bugungi kunga tayanib ish yuritadi, kitobxon Xaloyiq esa ko'pdan-ko'p avlodlardan tashkil topadi. 1600-yilda hammaning es-hushini band etgan kitob 1800-yilda mutlaqo odamlarning xotirasidan o'chib ketgan bo'lishi mumkin. 1830-yilda biror nomni ko'klarga ko'tarib maqtashgan bo'lsa, 1930-yilda uni faqat so'kib tilga oladilar.

«**A** dabiyot zamin ustida iz qoldirmaydi, balki Vaqtning bilqillama qumloqlari ustida iz qoldiradi va qochoqni shu izlarga qarab topmog'i kerak bo'lgan izquvarga rahmlarim keladi.»





*Ilon skeleti*


aytay: adabiyotni adoqsiz ilonning skeleti bilan taqqoslash mumkin: umurtqaning har bir bo‘lagi nimasi bilandir avvalgi bo‘lagidan ajralib turadi va shunga qaramay, allanechuk sirli ravishda avvalgisiga birlashgan.

Shundoq bo‘lgandan keyin, mening nazarimda adabiyotga berilgan har qanday ta’rif ham to‘laqonli bo‘lmaydi... Adabiyot bo‘lmoq uchun asar o‘zida chinakam individuallik muhriga ega bo‘lmog‘i kerak. Mohiyat e’tibori bilan bunday asar o‘zidan avval yaratilgan bironta asarga o‘xshamasligi kerak.

Sizga biron marta yer yuzidagi maxluqlar ichida eng ajoyibi va eng nafisi bo‘lmish ilonning skeletini ko‘rish nasib etganmi? Ko‘rmagan bo‘lsangiz

### **O‘YLAB KO‘RING:**

Golsuorsi adabiyotni nega ilon skeletiga qiyoslaydi? Badiiy asarning ilon umurtqa suyaklariga qanday o‘xshashligi bor?



*Nyu York tabiat muzeyidagi diplodok skeleti*

Yoki menga ijozat bering — tabiat tarixi bilan bog‘liq boshqa bir misol keltiray: Bir necha yil muqaddam Nyu-Yorkda bo‘lgan vaqtimda men diplodokni ko‘rgan edim. Bu bahaybat jonivorning suyaklari yo‘g‘on-yo‘g‘on bo‘lib, ajib tarzda gajakdor dum ham bor edi, lekin og‘zi juda kichkina edi. Yo‘q, u mutlaqo tirik diplodokka o‘xshamasdi, holbuki, og‘zi unikidan ham kichikroq bo‘lgan ajoyib maxluqlar uchrab turadi. Bizga muzeyni ko‘rsatayotgan professoridan so‘radim: «Ayting-chi, professor, bu bahaybat maxluq shu qadar kichkina og‘zi bilan qanday qilib qornini to‘yg‘azgan?» U menga ensasi qotib qaradi, uning nigohida «men o‘zim aytib bermoqqa og‘iz juftlagan narsani so‘radingiz» degan ma’no bor edi. Men aytmoqchi bo‘layotgan gap shuki, Adabiyot o‘ziga xos bir diplodokdir. Uning ham bahaybat gavdasi, yo‘g‘on skeleti, uzundan-uzun dum bor, lekin og‘zi haddan tashqari kichkina va shu kichkina og‘zi bilan u muttasil ravishda Hayotni tishlab turadi. Men bu so‘zni atayin qo‘llayapman —

sezib turibman, bir oz shoshmashosharlik qilyapman: bilaman, ba'zi bir odamlar go'yo Adabiyot Hayot bilan sovuqroq muomalada bo'lsa ham bo'laveradi, u Hayot bilan uchrashganda unga bir bosh irg'ab qo'yib, joyiga borib o'tiraverishi kerak deb hisoblaydilar. Boshqalar esa Adabiyot Hayotning o'zidan ko'ra hayotiyroq bo'lmog'i kerak, deb hisoblaydilar. Adabiyot imkoni boricha tezroq gapiradiganini gapirib qolmog'i kerak, asarning ravonligi, material tanlash, shakl yoki Hayotdan biron-bir axloqiy xulosa (agar siyqasi chiqib ketgan bu so'zni qo'llash joiz bo'lsa) kabi behuda narsalarga chalg'imasligi kerak ... Men uchun Adabiyot — Hayot san'atkor temperamentidan uchqun sachratgandan keyin boshlanadi. Bu o'rinda men politsiya hisobotidan yoki gazeta maqolasidan uchqun chaqnatadigan Hayotni aytayotganim yo'q, mutlaqo unday emas. Bu o'rinda men juda ulkan, doimo qaynab-jo'shib turadigan, shovqin-suronlar bilan harakat qiladigan, turfa xil ranglarga va bo'ylarga teranliklar va zulmatlarga ega bo'lgan Hayotni nazarda tutmoqdaman. Shunisi ham borki, bizning har qaysisimiz shu hayotning alohida-alohida ko'z ilg'amas parchalarimiz va har qaysimiz o'zimizning yo'limiz orqali hayotning qolgan barcha parchalari bilan o'zaro aloqaga kirishamiz. Qachonki ana shu o'zaro aloqa yetarli darajada ayon bo'lib qolganida, biron-bir omadi yurishganning tasavvurida xayoliy ko'rinishlar maydonga keladi va keyinchalik bu manzaralar so'zda o'z tajassumini topadi — ayni ana shunda adabiy asar tug'iladi.

Ana shu yangi, mushtdakkina, yarqirab turgan umurtqa bo'lagi, ehtimol, avval boshda tan olinmagan ham bo'lishi mumkin, lekin vaqt-soati kelib, belgilangan muddatda Adabiyotning adoqsiz umurtqa suyagida o'z o'rnini egallaydi. Adabiyot — qimmatbaho toshlardan tarkib topgan marjon shodasiga o'xshagan narsa — bu toshlarning hech qaysisi bir-biriga o'xshamaydi.

#### **TAHLIL QILING:**

Yozuvchi nazdida yangi asar **tan olinishi** va adabiyot olamida **yashab qolishi** uchun hayotning qanday xislatlarini o'zida jo etishi kerak?

... Endilikda biz nimaiki paydo bo'lsa, hammasini shodiyona xitoblar bilan xursand bo'lib kutib olaveradigan bo'lib qoldik, shekilli. Paydo bo'layotgan kitoblar tevaragida shov-shuv ko'tariladi, natijada sho'rlik kitoblar kashfiyot reklamalariga qaraganda jinday ortiqroq umr ko'rsa ko'radi, bo'lmasa — yo'q. Kamdan-kam kitobni «durdona asar», «ulug' asar» deb atashmaydi. Qarabsizki, «durdona» asarlar, «iste'dodli asarlar» maymunjon yanglig' gurkirab o'sib ketaveradi, keyin esa ular kompotdan boshqa narsaga yaramasligi ma'lum bo'ladi. Mayli, bugun-erta bo'lmasin, biroq vaqti kelarki, noshirlar ham, taqrizchilar ham «ulug'», «iste'dodli»,



«yorqin» kabi ta'rif-u sifatlarni eng xolis va eng ziyrak hakam — Vaqtning ixtiyoriga qoldirgan ma'qul ekanini anglab yetadilar. Vaqt haddan tashqari ziyrak va uddaburon soliq yig'uvchiga o'xshaydi — daromadlaringni har qancha yashirishga urinma, uni aldayolmaysan!

... Hozirgi kunlarda yozuvchini maqtay boshlashsa, darhol uning asarlari o'n besh martalab qayta nashr qilinadi-yu, qo'lma-qo'l bo'lib ketadi, muallifning o'zini esa muxbirlar ichkilikni butkul man qiladigan qonun to'g'risida, tog' — odam haqida, bolalarning tug'ilishi ustidan nazorat o'rnatish masalasida va shunga o'xshash boshqa g'aroyib yangiliklar to'g'risida fikr aytishlarini iltimos qilib rosa holdan toydiradilar. Bunday sharoitda bizning muallifimizning kallasi uncha pishiq bo'lmasa, u xoh erkakdir, xoh ayoldir, uning ko'z o'ngida bir zumda hamma narsa ostin-ustun bo'lib ketadi.

### **O'YLAB KO'RING:**

Adib yuqorida tasvirlagan holatga hech guvoh bo'lganmisiz yoki shunday holatlar tasvirlangan asarlarni o'qiganmisiz? Bunday holatda qanday **yo'l tutgan** ma'qul deb o'ylaysiz?

... Yozuvchining burchi hamma narsani loaqal to'la darajada bo'lmasa hamki, to'g'ri tushunish, o'tkir nigohga ega bo'lish, o'zimiz ko'rib turgan, his qilayotgan, o'ylayotgan narsalarimizni boshqalarga qaraganda teranroq his qilmoq, mulohaza yuritmoq va ifodalab bermoqdir. Yeyayotgan nonimiz halol bo'lsin uchun biz sabr-bardoshli bo'lmog'imiz, yetarli darajada kamtar, kamsuqum va mustaqil bo'lmog'imiz, hammavaqt yumor tuyg'usini saqlab qolmog'imiz, qalbimizning taftini saqlab qolmog'imiz, me'yorni unutmashimiz kerak.

... Gap faqat iste'dodda yoki faqat texnik mahoratda emas, gap fikriy bosiqlikni saqlab qolishda, qalbimizda ham muayyan sifatlarni saqlab qolish lozim. Bu sifatlarni to'g'risida jinday gapirib bersa bo'ladi: gap shundaki, bolalarcha bir xohish bor — bu, albatta, kitobxonni lol qoldirish xohishidir. Ana shu xohishga berilib ketish kerak emas — fikrbozlik va murakkablashgan uslubning po'panak bosgan suvlariga sho'ng'ish kerak emas.

Hayot to'g'risida gapirishga o'tishdan avval yana bir fikrni aytib o'tishga izn bergaysiz. Istagan san'atkor, rassom, muzikachi yoki yozuvchi — ziyoratchidir. U qaysi muqaddas joylarga borib sig'inadi? San'atning maqsadi va vazifasi nadir? ... Nima uchun biz butun jonu jahonimizni san'atga baxshida etamiz degan savolga faqat bitta to'g'ri javob bor.

### **Insonning farovonligi va ulug'vorligi uchun!**

### **O'YLAB KO'RING:**

Inson o'zining **farovonligini** ta'minlash va **ulug'vorligini** saqlab qolish uchun shu paytga qadar nimalar qilgan va endi nima qilishi kerak deb o'ylaysiz?



Endi Hayot to'g'risida so'zlashaylik. Bu o'rinda biron-bir ta'rifu tavsifni qidirib o'tirishga hojat bo'lmasa kerak. Hayot deb atalgan mamlakatni faqat bir martagina kesib o'tamiz. Shunda biz yo'lda nima bilan band bo'lamiz, ana shu uzoqmi-yaqinmi davom etadigan safarimiz mobaynida qanday ishlarni amalga oshiramiz, bularning bari xarakterimizning mayllariga bog'liqdir.

Ko'plar, aftidan, o'ylaydiki, biz qo'poldan-qo'pol bir asrda yashaymiz. Bu asr sensatsiyalar asri, burnini osmonga cho'zgan peshlavhalar, gazetalardagi baqirib-chaqirgan sarlavhalar, reklamalar va hamma narsani bir qolipga tiqishtirish asri. Ammo shunday bo'lsa-da, bizning asrimiz hozircha insoniyat tarixidagi eng ma'rifatli asrdir. Amalda hamma o'qishni biladi. E'tiroz bildirishlari mumkin: «Xo'p, to'g'ri, lekin nima o'qishyapti? O'qiganlari detektiv romanlar, g'alvalar haqidagi axborotnomalar va sport yangiliklari». Tushunaman, «Shoh Edip», «Hamlet» va «Faust» yakshanbalik ilovalardan va josuslar haqidagi bo'lar-bo'lmas kitoblardan beqiyos yuqori turadilar. Biroq, baribir, g'arb mamlakatlarida bosilayotgan kitoblarning miqdori doimiy ravishda aholining soniga yaqinlashib bormoqda. Har bir hodisa va har bir muammo keng xalq ommasining mulkiga aylanmoqda. Teatrlar bu jarayonga yordam beradi. Lekin ular kitob o'qishning o'rnini bosa olmaydilar va bosmasliklari ham kerak, negaki, kitob o'qiyotganda biz o'ylash uchun to'xtay olamiz, holbuki tinglab turganimizda va hatto ko'zimiz bilan ko'rib turganimizda, biz bu ishimizdan to'xtab, bir oz o'ylab tura olmaymiz. Bunga, albatta, kimdir muqarrar ravishda xalaqit beradi. Asrimizning xatarli tomoni bizning nodon bo'lib qolishimizda emas, balki bizning o'zimiz o'ylash-o'ylanish qobiliyatini yo'qotib borayotganimizda. Bizning oldimizda borgan sari turli-tuman vazifalar ko'proq ko'ndalang bo'lib bormoqda, lekin biz krossvordlarga yoki detektiv romanlardagi jumboqlarga topgan javoblardan tashqari, hayot oldimizga qo'ygan savollarga javob bera olamizmi? Javob bersak ham, javoblarimiz borgan sari kamayib ketmoqda. Biz borgan sari osonroq va jo'nroq narsalarga ko'proq moyillik bildiramiz. Ammo, bilimga olib boradigan yengil yo'l hamisha eng olis yo'l bo'lib chiqadi. O'zimiz mustaqil ravishda erishadigan bilimimiz har narsadan qadrliroq va mustahkamroq bo'ladi.


«**K**itobxonlik — bizning benihoya yuksak darajada mashinalashgan zamonamizda standartlashtirish va jo'nlashtirishga qarshi eng yaxshi vositadir. O'qish — bizning hayot haqidagi tasavvurlarimizni kengaytiradi, boshqa odamlarning fe'l-atvorlari va ehtiyojlari to'g'risidagi tushunchalarimizni kengaytiradi, kitob odamga o'zining «men»i hududidan tashqariga chiqishga haddan tashqari yordam beradi.»







*Grand Kanyon milliy parki, AQSh*



*Lev Tolstoy (1828-1910)  
rus adibi*



*Aysedora Dunkan (1877-1927) –  
mashhur raqqosa*

Men bu o'rinda falsafaning yoki tuzukroq qilib aytganda, baxt ilmining juda muhim bir qoidasiga yaqin kelib qoldim.

Odamlarning ko'pchiligi baxt denganda o'zining o'z ishi bilan, tuyg'ulari yoki fikrlari bilan doimiy bandligini tushunadi. Biz biron narsaga yoki ishga butun vujudimiz, butun jon-tanimiz bilan berila bilmasak, o'zimizni chinakamiga baxtli deb hisoblay olmaymiz. Men o'zimiz o'zimiz bilan andarmon bo'lib, o'zimizga o'zimiz mahliyo bo'lib yotganimizda juda ham baxtsiz bo'lib ketamiz demoqchi emasman, lekin bunaqa paytlarda biz yarim darajada tirikmiz, xolos-da! Tolstoy aytgan ekan — **inson ko'zguda o'zini o'zi tomosha qilayotganda aslida borichalik chiroyli ko'rinmaydi.** Biz Tolstoyning kishini larzaga soluvchi bu kashfiyotni qanday qilganini hali chuqurroq o'ylab ko'rmog'imiz kerak. Tolstoyning ko'pgina boshqa falsafiy mulohazalari kabi bu fikri ham bir qarashda ko'ringanchalik jo'n emas. Har holda, nima bo'lganda ham, **o'z-o'zini esdan chiqarish fidoyilik — haqiqiy baxtga eltuvchi kalitdir.** O'zining «men»ini unutishning ham har xil yo'llari bor.

Ha, o'z-o'zini unutishning yoxud fidoyilikning usullari haddan tashqari xilma-xildir va shulardan biri go'zallikni tomosha qilishdir. Men Arizonada Grand-Kanyonni suqlanib tomosha qilganimda, Aysedora Dunkan shogirdlarining raqsini huzur qilib ko'rganimda, Vashingtondagi Rok-Krik qabristonida Sent-Godensning «Nirvana»sini ko'rganimda yoxud Misrda oy nuriga cho'mgan sahro o'rtasida turganimda olamdagi hamma narsani paqqos unutib yuborgan edim.

Go'zallikni kuzatishga qodir odam o'zi Hayotga go'zallik olib kirishga ehtiyoj sezadi: u me'yor tuyg'usiga ega bo'lgani uchun shu tuyg'uga muvofiq tarzda ish yuritishga ehtiyoj sezadi. Go'zallik va me'yor tuyg'usi bizni qanday yo'llardan olib



yurmasin, bu hamisha butun insoniyat jamiyatining foydasiga xizmat qiladi, chunki ular bizni ochko'zlik va zo'ravonlik botqog'idan ajratib turadi.

...Aftidan, go'zallik deganda bir odam bir narsani, ikkinchi odam boshqa narsani anglaydi, shekilli. Shunday ekaniga qaramay, har birimiz o'ziga go'zal bo'lib tuyulgan narsani ko'rganida, eshitganida yoki o'qiganida, boshqalar nimaiki his qilsa, shuning o'zini, ya'ni benihoya qimmatli va ko'tarinki tuyg'uni his qiladi. Uning his qilgani bilan boshqalarning hissiyotlari o'rtasidagi farq bu hislarning darajasidagina bo'ladi. Xorda yangragan bola tovushi, to'lqinlarni yorib suzib borayotgan yelkanli kema, gul yozayotgan g'uncha, tun qo'ynidagi shahar, to'rg'ayning xonishi, yaxshi she'r, yaproqning soyasi, yoqimtoy go'dak, yulduzli osmon, ibodatxona, bahorda gullagan olma, adirlar qo'ynida o'tlab yurgan qo'y-qo'zilarining bo'ynidagi qo'ng'iroq ohangi, ariqchanning jildirashi, kapalak, hilol, yana boshqa minglab narsalar, tovushlar, so'zlar, xullas, bizda go'zallik haqida fikr uyg'otadigan narsalarning hammasi — qalbimizni qurg'oqchilikdan asraydigan ne'mat yomg'irining tomchilaridir. Balki biz bu sokin, kishining bahri-dilini ochuvchi, ruhini yengillatuvchi ne'matni payqamasmiz, lekin u hamisha biz bilan. ...

**G**o'zallik — kurrayi zaminning chehrasidagi tabassumdir, hammaga atalgan tabassumdir va uni ko'rmoq uchun faqat ko'zga ega bo'lmoq kerak, his qilmoq uchun kayfiyat zarur, xolos!

Men Hayot haqidagi suhbatimizni boshlaganda aytgan so'zlarimni takrorlayman. Biz umrimizda atigi bir martagina Noma'lumlik bekatiga chipta sotib olamiz. Boshqacha aytganda, haddan ziyod mashinalashgan bu asrda mashinasiz kun ko'rmoq uchun faqat bir martagina sharros yog'ib turgan jala yoxud Quyoshning qizdiruvchi nurlari ostida Hayot bo'ylab safarga chiqamiz.

Agar o'ylab ko'rilsa, biz hammamiz sargardonu sargashta daydilarimiz, hech qaysimiz bugungi kun bizga nima olib kelishini va tun qora pardasini yoyganda qayerdan panoh topishimizni bilmaymiz. Biroq agar biz o'z yaqinlarimizga ko'maklashishni o'rganib olsak, mardligimizni yo'qotmasak, butun qalbimiz bilan berilib, o'zimizni unutib, o'z ishimizni yaxshi ado etsak, agar biz Hayotdan lazzat ola bilsak-u, loaqal shuning o'zi bilan uning chiroyiga chiroy qo'shsak, agar biz tinchlikka intilsak va uni ta'minlashni o'rganib olsak, agar biz taft tortmay Sirning yuziga tik qarashni o'rganib olsak va ayni choqda bu yorug' dunyoda Ruhning mangu harakatini his qilishni o'rganib olsak, bilingki, unda bizning Hayotimiz zoye ketmapti. Ha, unda bizning hayotimiz chindan ham zoye ketmapti.

(Ozod Sharafiddinov tarjimasi)



## MUTOLAADAN SO'NG



1. Golsuorsi adiblarni «yeyayotgan noni **halol** bo'lishi» uchun qanday sifatlarni saqlab qolishga chaqiradi?
2. Yozuvchining: «Go'zallikni kuzatishga qodir odam o'zi Hayotga go'zallik **olib kirishga** ehtiyoj sezadi», degan fikrlarini qanday tushundingiz? O'z kuzatishlaringizni hayotiy misollar orqali talqin qiling.
3. Adabiyotning hayotga ta'siri insonga **mukammallik** olib keladimi yoki hayotning adabiyotga ta'siri? Fikrlaringizni mustaqil bilganlaringiz va o'qigan badiiy asarlaringiz orqali isbotlashga urining.
4. «Kitob odamga o'zining «**men**»i **hududidan tashqariga chiqishga** haddan tashqari yordam beradi» deganda nimani tushundingiz?
5. Maqoladan Golsuorsining **hayot, baxt, go'zallik** haqidagi eng asosiy fikrlarini ajratib oling. Siz Golsuorsining fikrlariga qo'shilasizmi? Sizning bu boradagi qarashlaringiz maqolani o'qigandan keyin qay darajada o'zgardi?
6. Cho'lponning «Adabiyot nadir» va Golsuorsining «Adabiyot va hayot» maqolalarini solishtiring. Quyidagi jadvalni to'ldiring. Ikki adibning adabiyot va san'atning mohiyati, vazifasi borasidagi qarashlarida qanday **o'xshashlik va farqlarni** ko'rdingiz?

	Cho'lpon qarashlari	Golsuorsi qarashlari
Adabiyot va san'atning mohiyati		
Adabiyotning vazifasi		

## XX ASR O‘ZBEK ADABIYOTI: 1930-1980-YILLAR

### Mavzuni o‘rganish jarayonida:

- XX asrning 30-80-yillari o‘zbek adabiyoti **taraqqiyot bosqichlariga xos xususiyatlarni** tahlil qilamiz.

### ESLANG:

Jadid adabiyotiga xos eng muhim xususiyatlar nimalardan iborat edi?

XX asrning 30-yillarida SSSRning barcha mamlakatlarida yuz bergan yalpi qatag‘on siyosati o‘zbek millatining fidoyi farzandlarini ham chetlab o‘tmadi – ularning ko‘pi qatl yoki surgun qilindi. 1930-yillarning birinchi yarmiga qadar jadidona g‘oyalar Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon va yana boshqa ijodkorlar asarlarida aks etayotgan bo‘lsa, 1930-yillarning ikkinchi yarmiga kelib adabiyot, san‘at ustidan to‘la nazorat o‘rnatildi va ko‘plab ziyolilar stereotip (bir xil qolipga solingan) qarashlar doirasida ijod qilishga majbur bo‘lishdi.

O‘zbek adabiyoti **sovet adabiyotining** bir qismi deb e‘lon qilindi va uning oldiga davr mafkurasini targ‘ib etish, sovet tuzumini olqishlaydigan asarlar yaratish talabi qo‘yildi. Barcha asarlar «sotsialistik realizm» deb atalgan, sun‘iy o‘ylab topilgan metodda yozilishi lozim edi. Yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish uchun «mas‘ul shaxs»lardan iborat guruhlar tashkil etildi. Bu guruhlar belgilangan talablarga rioya qilmagan ijodkorlar, san‘at vakillari, adabiyotshunoslarni «xalq dushmani» deb e‘lon qilardi.

«**Sotsialistik realizm**» – sobiq SSSRda o‘ylab topilgan hamda adabiyot va san‘atda amal qilinishi majburiy bo‘lgan badiiy metod. Bu metodda yaratilgan asarlarda «yaxshi» kambag‘al ishchi-dehqonlar va «yomon» boylar o‘rtasidagi kurash, «ideal» kommunistik jamiyat qurish g‘oyalari aks etishi lozim edi.

### O‘YLAB KO‘RING:

Adabiyot va san‘atda **sun‘iy «qolip»larga** amal qilish talabi qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin?

Sotsialistik realizmning muhim talablaridan biri – yaratilayotgan asarlar «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik» bo‘lishi, buning uchun esa quyidagi talablarga javob berishi lozim edi:



Sovet davri plakati

- 1917-yilgi oktyabr inqilobi tufayli «baxtga erishgan» xalq quvonchini aks ettirishi;
- «yangi odam» – kommunistik jamiyat qurayotgan faol shaxs xarakterini yaratishi, xususan, «qo-loq» eriga qarshi dadil kurashgan ayol tasvirlanishi;
- «yangi odam»ning ijtimoiy kelib chiqishi kambag'al ishchi, dehqon, xizmatchi bo'lishi, u rus ishchisi obrazi vositasida «yuksalishi» zarur edi.

Shuningdek, «mazmunan sotsialistik» asarlarda xalqimiz o'tmishi, tarixiy qahramonlar, diniy urf-odatlar qoralanishi, milliy ozodlik harakati vakillari dushman qilib ko'rsatilishi kerak edi. Shu bilan birga, ayrim «istisnalar» ham mavjud bo'lib, jumladan, Navoiy o'zi «feodal» bo'lsa ham, kambag'al — yo'qsillarga yordam bergan ijobiy obraz sifatida ko'rsatilishiga ruxsat berilgan edi.

### O'YLAB KO'RING:

Sotsialistik realizm talablarining **asl mohiyati** nimalardan iborat bo'lgan? Bu talablarning qaysi biri milliy adabiyot uchun, jamiyat uchun o'ta xavfli edi deb o'ylaysiz? Nima uchun?

1930-1960-yillarda sho'ro hukumati tomonidan belgilab berilgan vazifalar asosida juda ko'plab, jumladan, «Netay» (G'afur G'ulom), «Shohi so'zana» (Abdulla Qahhor), «Opa-singillar» (Asqad Muxtor), «Mash'al» (Hamid G'ulom), «Farg'ona tong otguncha» (Mirzakalon Ismoilov), «Xorazm» (Jumaniyoz Sharipov), «Ulug' yo'l» (Oybek) kabi nasriy va dramatik asarlar yaratildi. Voqelikni «revolyutsion (inqilobiy) taraqqiyot»da aks ettirish talabi badiiy adabiyotda sun'iy shartliliklarni vujudga keltirdi. Masalan, muxbir ayol Novikova («Qo'shchinor chiroqlari»), Yefim Nadejdin («Opa singillar»), Stolgukov («Tomoshabog'»), Stepan («Qoraqalpoq qissasi») singari qator rus kishilari obrazlari aksariyat holatlarda asarlarga sotsialistik realizm talabini bajarish uchun sun'iy ravishda kiritildi. Mazkur davr adabiyoti to'la ma'noda davr mafkurasiga xizmat qildi.

*«Sen ishlagan kolxozda ul ham,  
Topdi hamma dardiga malham.  
Esdan chiqib fig'on-u faryod,  
Taqdiridan bo'lgandir ul shod.  
Omon topdi bunda parcha non,  
Non demakim, Omon topdi jon.»*

*Hamid Olimjon.*

*«Zaynab va Omon» dostonidan*

## O'YLAB KO'RING:

**Sun'iy shartlilik** deganda nimani tushunasiz? **Adabiyotning mafkuralashuvi** deganda-chi? Fikringizni avval o'qigan biror bir badiiy asaringizdan misollar keltirib asoslang.

Ayni o'rinda badiiy adabiyotdagi ijodiy cheklovlar, siyosiy-mafkuraviy tazyiqlarga qaramay, ko'plab ijodkorlar badiiy-estetik jihatdan yetuk asarlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Oybek, Maqsud Shayxzoda, Mirtemir, Saida Zunnunova kabi ijodkorlarning turfa mavzularda yozilgan lirik asarlari, «Shum bola», «Yodgor» qissalari (G'afur G'ulom), «Navoiy» romani (Oybek), «Ufq» trilogiyasi (Said Ahmad) kabi nasriy asarlar, «Tohir va Zuhra» (Sobir Abdulla), «Alisher Navoiy» (Uyg'un va Izzat Sulton), «Mirzo Ulug'bek» (Maqsud Shayxzoda) kabi dramalar shular jumlasidandir.

*«Shuncha mador, sevinch va ishonch  
Quyilarki mening xasta tanimga –  
Roziman butun kurramiz uchun  
Bir karra men tortsam barcha dardlarni.  
Agar mumkin bo'lsaydi bu...  
Ammo bu amri mahol.  
Yashamoq kerak, kurashmoq uchun.  
Kurashmoq kerak buyuk g'oyaga  
Erishmoq uchun.»*

*Maqsud Shayxzoda*

*«Tohir va Zuhra» pyesasi asosida  
yaratilgan badiiy film  
(rejissyor Nabi G'aniyev, 1945-yil)  
YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan*



1960-yillar adabiyotiga Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva singari yangi nomlar ham o'ziga xos she'rlari bilan kirib keldi. Ularning ko'plab she'rlarida erk, ozodlik g'oyalari, mustamlaka siyosatning mudhish oqibatlari ramziy obrazlar orqali aks ettirilgan edi.



«Qora qushlar qoʻnarlar  
Majnuntolning shoxiga,  
Boshin suvga egarlar  
Boqmay sira ohiga.  
Rahmi kelib bulutning,  
Yigʻlab toʻkar yoshini.  
Qushlar qochar, majnuntol  
Koʻtaradi boshini.»

*Erkin Vohidov*

«Oʻz dunyom ichida bogʻlarni yaratdim.  
Soʻlib bitdilar.  
Tafakkur kuchidan togʻlarni yaratdim.  
Nurab ketdilar.  
Bogʻlarim oʻrnida xazonlar, supurdim,  
Barg, xazon.  
Togʻlarim oʻrnida tepalar, jim turdim.  
Dilda qon.  
Kuydim men, ammo kul boʻlmadim, qaytalab  
Tuproqqa toʻkdim men, manglay ter, dil qonim.  
Maysa, koʻk maysalar unda zap,  
O, jonim!»

*Halima Xudoyberdiyeva*

### **OʻYLAB KOʻRING:**

Davrdagi ijodiy cheklolarga qaramasdan, ijodkorlar **badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar** yaratishga qanday muvaffaq boʻlishgan deb oʻylaysiz? Badiiy ijodda ozodlik gʻoyalarning toʻxtab qolmaslik sabablarini qanday izohlaysiz?

«Sotsialistik realizm» talablari asosida yozilgan, turmushni biryoqlama koʻrsatish, qahramonlarni faqat ijobiy yoki faqat salbiy xususiyatlar egasi qilib tasvirlash kabi bir xil qolipga solingan qarashlar badiiy adabiyotning qiymatiga putur yetkazganini anglagan ijodkorlar 1970-80-yillarda **shaxs-ga turli xil rakurslardan yondashishga** harakat qildilar. Ayrim mualliflar shoʻrolar tuzumini ideallashtirishdan chekinib, davrning real muammolarini qalamga oldilar. «Diyonat», «Oq qushlar oppoq qushlar» (Odil Yoqubov), «Nur borki, soya bor» (Oʻtkir Hoshimov), «Girdob» (Oʻktam Usmonov), «Otoyining tugʻilgan kuni» (Erkin Aʼzam), «Jar yoqasida chaqmoq» (Asqad Muxtor) kabi asarlarda davrdagi poraxoʻrlik, laganbardorlik, xiyonat, ikkiyuzlamachilik, kabi muammolarning badiiy talqini aks ettirildi va mazkur asarlar kitobxonlarning sevimli asarlariga aylandi.

## FIKR YURITING:

Sizningcha, sotsialistik realizm tutumlaridan chekinib, badiiy adabiyotga yangicha munosabatning boshlanishi yana qanday omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin?

1980-yillarning ikkinchi yarmida sobiq SSSRning yangilangan rahbariyati tomonidan e'lon qilingan oshkoralik, qayta qurish siyosati jamiyatdagi muammolarni badiiy adabiyotda, san'atda, matbuotda ochiq yozish va muhokama qilish imkonini yaratdi.

« **Q**O'CHQOR (yig'lagudek bo'lib). Birov sizga hayotidan noliyaptimi?!  
ALOMAT. Hamma gap shunda-da – nolimaysiz. Ko'nikib ketgansiz. Yaralar toshga aylangan – og'riq sezmaydi. Dod solib baqirish-ku qo'lingizdan kelmas, hech qursa ingrab qo'yishga ham qodir emasmisiz, Qo'chqor aka? «Hayot deganlari shunaqa bo'lar ekan» deb umringizni o'tkazyapsiz. Qalbingizning unut bo'lib ketgan, o'zingiz ham bilmaydigan allaqaysi burchaklarida miltillayotgan ushoqqina norozilikdan qo'rqasiz, uyalasiz, uni sezmaslikka olasiz! To'g'ri, qadr-qimmingiz oshkora haqoratlanganida o'sha miltillayotgan cho'g' alanga olganday bo'ladi va siz uni aroq bilan o'chirishga urinasiz. Dunyoga shirakayf ko'zlar bilan qarab taskin topasiz, bir qadar yupanasiz ham. Lekin ertasi kuni kayfingiz tarqab, dunyo yana asl holiga qaytadi! Shunda o'zingizni qo'yarga joy topolmaysiz, hadsiz-hududsiz olamda mushtdekkina jussangizni qo'ygani joy yo'q! So'ng yig'lamoqdan o'zga chorangiz qolmaydi va o'ksib-o'ksib yig'laysiz...  
QO'CHQOR (Ko'zlarida yosh o'ynab). Yol-g'o-on!.. Men hech qachon yig'lamanman!..  
ALOMAT. Yig'lagansiz. Faqat ko'zingizning narigi tomoni bilan yig'lagansiz. Ko'z yoshlaringiz tashqariga emas, ichingizga oqqan. Mana, mening ichim to'la temir-tersak, sizning vujudingiz esa faqat va faqat ko'z yoshidan iborat. >>>  
Lim-lim yosh...

Sharof Boshbekov. «Temir xotin» tragikomediyasidan

Farg'ona viloyat musiqali drama teatrining «Temir xotin» spektakli bir qator milliy va xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan.



Tarixni faqat «yaxshi» kambagʻallar va «yomon» boylar oʻrtasidagi kurash nuqtayi nazaridan tasvirlash talabidan voz kechildi. XX asrning ziddiyatli davrlari, xususan, shaxsga sigʻinish (1930-50-yillar), ikkinchi jahon urushi (1939-1945), turgʻunlik yillari (1960-1980) muammolarini koʻtarish imkoni paydo boʻldi. Uzoq va yaqin oʻtmishning badiiy talqini aks etgan «Ulugʻbek xazinasi» (Odil Yoqubov), «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» (Pirimqul Qodirov), «Ikki eshik orasi» (Oʻtkir Hoshimov), «Jimjitlik» (Said Ahmad), «Lolazor» (Murod Muhammad Doʻst) kabi asarlar ham shu bosqichda yaratilgan eng yaxshi asarlar qatoridan joy oldi.

Asqad Muxtor, Togʻay Murod, Xurshid Doʻstmuhammad, Nazar Eshonqul, Abduvali Qutbiddin kabi ijodkorlar ramziy obrazlarga boy, turli xil maʼno qatlamlariga ega, shakl va mazmun jihatdan oʻziga xos asarlar yaratdilar.

### TAHLIL QILING:

**Adabiy erkinlik** nima? Sizing nazaringizda, milliy adabiyotning jahon miqyosidagi taraqqiyoti qanday mezonlar bilan bogʻliq?

### OʻYLAB KOʻRING:

Bugun sanʼatning qaysi sohalarida **stereotip** qarashlar koʻproq uchraydi? Badiiy adabiyotdagi **plyuralistik (xilma xil)** qarashlarni shakllantirish uchun qanday tavsiyalar bergan boʻlardingiz?

## LOYIHALAR

*Guruhlarda ishlang. Berilgan loyihalardan birini tanlang.*

- ✓ XX asrning 30-80 yillari oʻzbek adabiyotiga xos uchta muhim soʻzni tanlang va shu asosda «Davr mening nigohimda» nomli ijodiy ish (sheʼr, esse, maqola) tayyorlang.
- ✓ XX asr 30-80 yillarida ijod qilgan oʻzbek adabiyoti vakillaridan birini tanlang va unga maktub yozing. Maktubda:
  - adib ijodiga xos eng muhim xususiyatlarni oʻzingiz oʻqigan asar misolida izohlang;
  - ushbu asar haqidagi tanqidiy qarashlaringiz va takliflaringizni aks ettiring.Maktubni sinfdoshlaringizga oʻqib bering va muhokama qiling.


# Hamid Olimjon

(1909–1944)

## RUH ERKINLIGINI QO'MSAGAN IJODKOR

### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- Hamid Olimjon she'riyatining **badiiy-g'oyaviy xususiyatlarini** tahlil qilamiz;
- matnda **badiiy tasvir vositalarining** vazifasini tahlil qilamiz;
- **barmoq** va **aruz** vaznlarida yozilgan she'rlarni farqlashni o'rganamiz.



*«Xalqqa ayting, men aslo o'lganim yo'q,  
Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q;  
Men elimning yuragida yashayman,  
Erk deganning tilagida yashayman!»*

*(Hamid Olimjon)*

**«H**amid Olimjon Sharqning eng yirik liriklaridan. U lirikaning kuchiga chuqur ishonch bilan qaradi, o'zining barcha janrdagi asarlarini lirikaning nafis sehri bilan sug'ordi.

*Asqad Muxtor*



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Shoir, dramaturg, publitsist, adabiyotshunos, tarjimon va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909-yil Jizzax shahrida tugʻilgan. U toʻrt yoshida otasidan ayrilib, bobosi qoʻlida tarbiya topadi. Hamid Olimjon dastlab Jizzaxdagi oʻrta maktabda (1923), soʻng Samarqanddagi Oʻzbek bilim yurtida (1923–1928) va Oʻzbekiston Oliy Pedagogika institutida (1928–1931) tahsil oldi. Shoir isteʼdodi, adabiyotga, sheʼriyatga muhabbati, ijoddagi shijoati tufayli uning talabalik yillaridayoq ilk sheʼriy toʻplami «Koʻklam» (1929) nomi bilan nashr etiladi.

Hamid Olimjon hayoti va ijodiy faoliyati mobaynida mahalliy jurnal va gazetalarda, nashriyotlarda, keyinchalik Madaniy qurilish ilmiy tadqiqot instituti va Fanlar Akademiyasining Til va adabiyot institutida masʼul lavozimlarda ishlagan. Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasining masʼul kotibi (1939–1944) boʻlgan. 1930-yillarda «Alpomish» xalq eposini nashrga tayyorlagan, Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyi munosabati bilan ulugʻ shoir merosini oʻrganish va asarlarini rus tiliga tarjima qilish ishiga katta hissa qoʻshgan.

Hamid Olimjon 1944-yilda 35 yoshida avtohalokat tufayli halok boʻlgan. 2004 -yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

Hamid Olimjon bor-yoʻgʻi oʻttiz besh yil umr koʻrgan boʻlsa-da, oʻzining oʻn jildga jamlangan umrboqiy asalari bilan XX asr oʻzbek adabiyoti tarixidan munosib oʻrin olgan yorqin isteʼdod sohibi edi. Uning ijodi xorijda Devid Montgomeri, Roberta Mikalleg kabi koʻplab olimlar tomonidan ham oʻrganilgan va sheʼrlari turli tillarga tarjima qilingan.

### ASARLARI

- ❖ «Koʻklam» (1929), «Olov sochlar» (1931), «Poyga», «Oʻlim yovga» (1932), «Daryo kechasi» (1936), «Sheʼrlar» (1937), «Oʻlka» (1939), «Baxt» (1940), «Qoʻlingga qurol ol!», «Ona va oʻgʻil» (1942), «Ishonch» (1943) sheʼriy toʻplamlari
- ❖ «Ikki qizning hikoyasi» (1935–1937), «Zaynab va Omon» (1938) dostonlari
- ❖ «Oygul bilan Baxtiyor» (1937), «Semurgʻ yoki Parizod va Bunyod» (1939) adabiy ertaklari
- ❖ «Muqanna» (1941), «Jinoyat» (1942) dramalari
- ❖ Ona (1932) «Baxtlar vodiysi» (1932), «Jangchi Tursun» (1942), «Roksananing koʻz yoshlari» (1944) balladalari
- ❖ Aleksandr Pushkinning «Kavkaz asiri» va «Suv parisi» dostonlari, Mixail Lermontovning «Bela» qissasi, Maksim Gorkiyning «Chelkash» hikoyasi, Nikolay Ostrovskiyning «Poʻlat qanday toblandi»





romani, Aleksandr Korneychukning «Platon Krechet» pyesasi, shuningdek, Jorj Bayron, Aleksandr Pushkin, Taras Shevchenko, Mixail Svetlov, Konstantin Simonov, Vera Inber, Pavlo Tichina va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari tarjimalari

## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Quyida Hamid Olimjonning vatanparvarlik, muhabbat tuyg'ulari, baxt, visol, hijron, ayriliq kabi mavzular tasvirlari aks etgan she'rlaridan namunalar o'qiymiz.

### O'YLAB KO'RING:

Sizningcha lirik asarlarda ijodkorlar ko'proq **qaysi mavzularga** murojaat qilishadi? Nima uchun?

### FIKR YURITING:

Hamid Olimjon she'rlarida **qish, muz tog'i, tun, gul, tong, ko'klam** kabi obrazlar ko'p uchraydi. Sizningcha, shoir ijodida bu obrazlar qanday ramziy ma'nolarda qo'llanilgan? Hamid Olimjon she'rlarini mutolaa qilgandan so'ng savolga qayting. Avvalgi va keyingi fikrlaringizni qiyoslang. Nimalar o'zgardi?

## O'RIK GULLAGANDA

### O'YLAB KO'RING:

Siz erta bahorda o'rik gullaganini kuzatganmisiz? Ko'nglingizda qanday tuyg'ular kechgan?

Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar,  
Tongda aytdi hayot otini  
Va shabboda qurg'ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,  
Har bahor ham shunday o'tadi,  
Qancha tirishsam ham u beor  
Yellar meni aldab ketadi.



Mayli, deyman va qilmayman g'ash,  
Xayolimni gulga o'rayman;  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,  
Baxting bor, deb esadi yellar.  
Etgan kabi go'yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...  
Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so'ylar roz,  
Men yurganda bog'larga to'lar  
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol,  
Bunda tole har narsadan mo'l,  
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umrida hech gul ko'rmay, yig'lab  
O'tganlarning haqqi ham senda,  
Har bahorni yig'lab qarshilab  
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

*1937-yil*

Hech xayolni ranglarda tasavvur qilgan-  
misiz? Xayolning rangini qanday tasavvur  
qilasiz?

Shoirning xayolni gulga o'rashida qanday  
poetik ma'no bor?

Shoir kimlar haqida gapiryapti?  
Nega ular bahorni yig'lab qarshilagan?

## SAVOLLAR



1. «Xayolimni gulga o'rayman;  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so'rayman».  
**O'rik guli va baxt, bahor va baxt** o'rtasida qanday bog'liqlik bor deb o'ylaysiz? Nima uchun qahramon o'z baxtini o'rik gullariga, bahorga uyg'un holda tasvirlayapti?
2. O'zbek tilida «**qurg'ur**», «**beor**» so'zlari qanday ma'nolarda ishlatiladi? Shoir nima uchun «shabboda qurg'ur», «beor yellar» demoqda?
3. Quyidagi parchani **ranglarda** tasvirlang. Qanday ranglarni tanladingiz va nima uchun? Javobingizni matn asosida izohlang.  
«Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so'ylar roz,  
Men yurganda bog'larga to'lar  
Faqat baxtni maqtagan ovoz».
4. Insonlarga xos sifatlarni jonsiz hodisa va buyumlarga ko'chirish orqali tasvirlash adabiyotshunoslikda **jonlantirish** deyiladi. Badiiy asarlarda jonlantirishning ikki xil usulini kuzatishimiz mumkin:  
– **tashxis** — shaxsga xos sifatlarni jonsiz narsalar va hodisalarga berish. Misol: «Erta tong shamoli sochlarin yoyib, Yonimdan o'tganda so'rab ko'raman» (Cho'lpon);  
– **intoq** — nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Misol: «Shaftoli der, kulib: kuz choqlari Sharbat bilan lim-lim to'laman» (Uyg'un).  
«O'rik gullaganda» she'rida **jonlantirish** qo'llanilgan o'rinlarni toping. Shoir nima maqsadda jonlantirish san'atidan foydalangan?
5. «O'rik gullaganda» she'ri ko'plab xonandalar, masalan, O'zbekiston xalq artisti Muhabbat Shamayeva, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sevara Nazarxon, xonanda Malika Egamberdiyeva tomonidan qo'shiq qilib kuylangan. Qo'shiqni internetdan topib eshiting. **Qo'shiq ohangi, unga tanlangan musiqa** qay jihatdan she'rning mohiyatini ochishga xizmat qilyapti?



## HOLBUKI TUN ...

### ESLANG:

O'qigan asarlaringizda "tun" obrazi qanday ma'nolarda qo'llanilganligini eslay olasizmi?

Shag'irdaydi betinim daryo,  
Shag'irdaydi vahm to'lgan jar,  
Shag'irdaydi qorong'i dunyo,  
Shag'irdaydi vodi, daralar.

Shag'irdaydi... Bermaydi uyqu,  
Xayollarim bo'lar parishon,  
Bir izlanish boshlanar menda  
Tushunchamga yana kirar jon.

Holbuki, tun — bunda odatda,  
Butun borliq uxlarday sokin,  
Butun yer osmonga o'ranib  
Olar kabi kunduzidan tin...

Soyga tushdim, ko'kda chiqdi oy,  
Nur yog'ildi oq bulutlarga.  
Nurga to'ldi dara, to'ldi soy,  
Nur yog'ildi qorong'i jarga.

Kezar edim, meni tinmayin  
Ta'qib etar bir uzun soya,  
Bilmadimkim, bormidir ishi,  
Yo istarmi aytmog hikoya.

Shoirda boshlanayotgan izlanish nima bo'lishi mumkin? Tushunchalarning jonlanishi nimadan dalolat?

Shoironi ta'qib etayotgan soya nima bo'lishi mumkin? Shoirda uning qanday ishi bo'lishi mumkin?



Ko‘zlarimda yonar uchqunlar,  
Zilol suvga oy edi sirdosh,  
Yaltirardi, doim tovlanar,  
Oy nuriga cho‘miluvchi tosh.

Ushbu misralarda qanday **poetik tasvirlar** mavjud? Ular qanday g‘oyaga xizmat qilmoqda?

Ko‘zni tikdim, parquv bulutlar,  
Ko‘char edi zilol va toza.  
Lochin kabi samolyot uchar,  
Uchar edi solib ovoza.

Tikilgandi ko‘zim qog‘ozga,  
Qo‘llarimda yugurar qalam.  
Qurshamishdi uni hayajon,  
Bir intilish, bir orzu bu dam.

She’rda qanday vaziyat tasvirlangan deb o‘ylaysiz?

Shag‘irlardi osmon va havo.  
Shag‘irlardi butun koinot,  
Shag‘irlardi betinim daryo,  
Shag‘irlardi daryoda hayot...  
Holbuki, tun...

*1936-yil*





## SAVOLLAR



1. She'ning dastlabki va oxirgi misralarini solishtiring. Qaysi so'z muayyan **kayfiyat** va **musiqiy ohangni** yuzaga keltirishga xizmat qilmoqda? Nega shoir aynan shu so'zni tanlagan?
2. O'zaro zid tushunchalarni ifodalovchi so'z, ibora yoki gaplarni ishlatish orqali tasvirlash **tazod (qarshilantirish)** deyiladi. She'rda tazod san'ati qo'llanilgan o'rinlarni toping. Shoir qanday tushunchalarni va nima maqsadda bir-biriga qarama-qarshi qo'yimoqda?
3. Sizningcha, she'r nima uchun «**Holbuki, tun...**» so'zlari bilan yakunlanadi? «Holbuki» so'zi bu o'rinda qanday vazifani bajarmoqda?

\* \* \*

So'zingni sharpasi tekkanda olam bob-bob kuygay,  
Dengizlar, daryolar, hattoki ko'llarda hubob kuygay.

Kamondek qoshlaring kipriklaringdan o'q otar doim,  
Sening yoding bilan tinmay, hama nozu itob kuygay.

Yonib ishqingda qalbim kulga aylansa ajab ermas,  
Ko'zing osmonga tushganda lovullab oftob kuygay.

Olay toqatni qaydin ko'zlaringga hech qarolmayman,  
Tushibdir uchquning bag'ringaki, go'yo kitob kuygay.

*«Muqanna» dramasiidan, 1941-yil*

## LUG'AT



**hubob** – suv ustida paydo bo'ladigan pufakcha  
**itob** – ta'na, malomat, tanbeh

\* \* \*

Na bo'lg'ay bir nafas men ham yonog'ing uzra xol bo'lsam,  
Labing yaprog'idan tomganki go'yo qatra bol bo'lsam.

Butog'ingga qo'nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,  
O'pib g'unchangni ochmoqliqqa tong chog'i shamol bo'lsam.

Bo'yingni tarqatib olamni qilsam mastu mustag'riq,  
O'zimning san'atimga so'ng o'zim hayratda lol bo'lsam.

Sening birla qolib bu mastu lol olamda men yolg'iz,  
O'zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo'lsam.

Agar bog'ingda gul bo'lmoq mening-chun noravo bo'lsa —  
Ki, ming bor roziman qasringga hattokim duvol bo'lsam.

Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo'htondin,  
Raqiblar rashkiga ko'krak keray, mayli, kamol bo'lsam.

Kezib sahroyu vodiylar yetishsam bir visolingga,  
Fido jonimni qildim yo'lingga, mayli, uvol bo'lsam.

*1943-yil*

## LUG'AT



**mustag'riq** – g'arq bo'lgan  
**duvol** – devor

### TADQIQ QILING:

«Na bo'lg'ay» va «Kuygay» she'rlarini mumtoz adabiyotimizdagi g'azallar bilan solishtiring. Hamid Olimjonning mazkur she'rlari va mumtoz g'azallar o'rtasida qanday **o'xshash** va **farqli** jihatlarni ko'rdingiz?

## MUSTAQIL MUTOLAA VA TAHLIL UCHUN

### XAYOLIMDA BO'LDING UZUN KUN

Xayolimda bo'lding uzun kun,  
Seni izlab qirg'oqqa bordim,  
Och to'lqinlar pishqirgan tunda  
Topib ber, deb oyga yalvordim.

Ishon bunda, seni doimo  
Esga solur chiroyli tunlar,  
Sho'x yulduzlar, salqin saharlar,  
Esga solur baxtiyor kunlar.

Toleimning oshnosi san,  
Sen sevgimning ko'kargan bog'i,  
Sening bilan birga iqbolim,  
Ishonchimning sen vafo tog'i.

Meni qurshar salqin bir havo,  
Suv ustidan tun quyuladi,  
Shunda qancha-qancha gaplarni  
Esga solib oy ham to'ladi.

Kecha jimjit, yolg'iz to'lqinlar  
Pishqiradi bilmay tinimni,  
Hiylagar oy, sehragar dilbar,  
Solib qo'yding yodimga kimni?

*1936-yil*

## QISH KO'CHASIDAN

Yo'llardan  
zavq bilan  
kelaman,  
Har yon — jim...  
Sevinchim  
yonarkan ko'nghimda...  
yelaman...  
... Jilaman...  
O'ylarim tarqoqmas,  
Ko'zlarim yerlarga tikilgan,  
Diqqat-la to'naman,  
Xayolim  
Qarorsiz tez oqmas.  
Oppoqki,  
shu qadar  
bu qorlar...  
Boshlayman,  
Tubandan — yuksakka intilib,  
Avaylab odimlar tashlayman.  
Yo'rgakka o'ragan  
Qish meni,  
Chaqaloq singari  
qo'ragan,  
Ochilib, sochilib bo'lmaydi.  
Hamma yoq  
shu qadar oppoqki...  
G'achirlar yerlarda qorlari,  
Har tili shu qadar chaxchaxki...  
Boshlayman,  
Avaylab odimlar tashlayman.



Daraxtlar  
shu qadar  
oppoqki,  
Oq bulut ko'klardan enganday,  
Novdalar  
shu qadar oppoqki,  
Bulutda cho'milib tinganday.  
Qorlardan yo'l ochib kelaman,  
Shu sovuq  
jonlilik  
berganday,  
Qonlarim  
sof havo  
emganday,  
Oq tuman qo'ynida  
jilaman.  
Yo'llardan  
zavq bilan  
kelaman.

*1930-yil*



## MENI KUTGIL (K. Simonovdan)

Meni kutgil va men qaytarman,  
Faqat kutgil, juda intizor,  
Kutgil, yomg'ir zeriktirganda,  
Meni kutgil, yoqqanida qor,  
Atrofingni harorat qoplab,  
Yeru ko'kni chang tutganda, kut.  
Boshqalarni uzatgan do'stlar  
Kechagina unutmagan, kut.  
Xat kelmasdan uzoq yerlardan,  
Yuragingni qilganida qon,  
Kutgil, senla birga kutganlar  
Zerikkandan chekkanda fig'on.

Meni kutgil va men qaytarmen,  
Bo'lsa hamki, ranging za'faron,  
Yoring qaytmas, umidingni uz,  
Deganlarga tilama omon.  
Mayli, o'g'lim, singlim, volidam,  
Aza ochsin men yo'q tufayli.  
Kutaberib sabri tugagan  
Yoru do'stlar, oshnolar, mayli,  
Ayriliqqa berolmasdan tob,  
Achchiq-achchiq ichsinlar sharob.  
Ko'zlaringga to'lsa hamki, yosh  
Faqat sen kut va ayla bardosh.



Meni kutgil va men qaytarman,  
O'limlarni qoldirib dog'da.  
Ishi o'ngdan kepti desinlar  
Kutmaganlar meni u chog'da.  
Yot tuyular kutmaganlarga,  
Bunday ajib toleing saning.  
Kuta-kuta meni ofatdan  
Omon saqlab qola olganing.  
Qanday omon qolganligimni,  
Yolg'iz senga aytarman, sirdosh,  
Kutaolding meni sen faqat,  
Buyuk edi sendagi bardosh.

(1942)

#### **TADQIQ QILING:**

She'ning asliyatdagi matnini («Жди меня». Константин Симонов) topib o'qing. Asl matn va Hamid Olimjon tarjimasini solishtiring. Hamid Olimjon asliyatdagi ma'no, ohang, kayfiyatni qay darajada **saqlab qola olgan** deb o'ylaysiz?

## TUNNI IZLASH

O'n besh kunga to'lganida oy,  
Ko'kka chiqib tunni axtardi,  
Orqasidan baland osmonda  
Olam -olam yulduzlar bordi.  
Tundan hech bir asar chiqmadi,  
To botguncha qilsa ham tintuv...  
Dunyo yorug' edi va hatto  
Yaltirardi soyda qora suv...  
Topolmasdan oy tunni, oxir  
O'zi botdi. Yulduzlar bir-bir  
Uchib o'tdi va ortiq quyosh  
Bilan endi yaltirardi yer.

1937-yil

## MUTOLAADAN SO'NG



1. O'ylab ko'ring: Hamid Olimjon she'riyatidagi **o'ziga xoslik** nimada?
2. Hamid Olimjonning yuqorida keltirilgan she'rlarida asar g'oyasini obrazli tarzda ochishga xizmat qilgan **badiiy tasvir vositalarini** (o'xshatish, jonlantirish, sifatlash, mubolag'a) toping va ular qanday **poetik mazmunga** xizmat qilayotganligini tahlil qiling.
3. Asqad Muxtorning Hamid Olimjon ijodiga bergan ta'rifini yana bir marta o'qib ko'ring. «Lirikaning kuchi», «lirikaning nafis sehri» deganda nimani tushunasiz? Fikringizni Hamid Olimjon she'rlaridan misollar bilan izohlang.
4. Uyg'un Hamid Olimjonni «shodlik va baxt kuychisi» deb ta'riflagan va shoir shu nom bilan mashhur bo'lgan. Hamid Olimjonni qatag'on yillarida, xalq qirg'inga uchragan paytlarda ham shodlik haqida kuylagan «bedard», «beg'am» shoir deya olamizmi?



## ADABIYOT NAZARIYASI: BARMOQ VA ARUZ VAZNLARI

She'riy nutq ma'lum qonuniyatlar asosida tuziladi va bu qonuniyatlarga amal qilinishi she'riyatning musiqiyliigi, ohangini ta'minlaydi. Bu qonuniyatlar **vazn** deyiladi. Mumtoz adabiyotda keng tarqalgan aruz vazni bilan bir qatorda, o'zbek she'riyatida barmoq vazni ham qadimdan qo'llanib kelinadi.

Bilasiz, **aruz vaznida** bo'g'inlarning (hijolarning) ham **soni**, ham **sifati** (ya'ni **cho'ziq yoki qisqaligi**) hisobga olinib, qisqa va cho'ziq bo'g'inlarning ma'lum bir tartibda joylashuvi she'r ohangini ta'minlaydi.

O-ra-zin-yop- qach-ko'-zim-din so-chi-lur-har -lah-za-yosh,  
Bo'y-la-kim-pay -do-bo'-lur-yul -duz-ni-hon-bo'l- g'ach-qu-yosh.  
(Alisher Navoiy)

- V - -                      - V - -                      - V - -                      - V -

**Barmoq vaznida** esa **bo'g'inlar soni** hisobga olinadi. Misralar turoqlarga bo'linadi: bo'g'inlarning mantiqiy pauzagacha bo'lgan qismi **turoq** deyiladi. Barmoq vaznida turoqlar va misralardagi bo'g'inlar soni teng bo'lishi lozim:

Tu-xum-dan chiq-di-yu, | kel-ti-rib u-ni                      6+5=11  
Shu loy-qa ho-vuz-ga | to-mon ot-di-lar.                      6+5=11  
Tash-lan-diq u-shoq yeb | o'-ta-di ku-ni,                      6+5=11  
Xo-ru xas, xa-zon-lar | us-tin yop-ti-lar.                      6+5=11  
(Abdulla Oripov)

Bir she'rda yoki bandda har bir misradagi bo'g'inlar soni teng bo'lmay, har xil bo'g'inlar soniga ega misralar muayyan bir tartibda takrorlanib kelishi ham mumkin:

Biz-ni de-ya | tinch ha-yot-ni                      4+4=8  
Qur-moq-da-siz,                      4  
Che-ga-ra-da | do-im ser-gak                      4+4+8  
Tur-moq-da-siz.                      4  
(Asqad Muxtor)

### TADQIQ QILING:

Hamid Olimjonning «O'rik gullaganda», «Xayolimda bo'lding uzun kun», «Eng gullagan yoshlik chog'imda» va «Kuygay» she'rlari asosidagi qo'shiqlarni solishtiring. Aruz va barmoqdagi she'rlar **musiqasida** qanday asosiy farqlarni ko'rdingiz?

# Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905–1968)

## «QUTLUG' QON»:

### SODDADIL INSONLAR ZAHMATINING BADIYIY IFODASI

#### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- «Qutlug' qon» romanidagi davr ijtimoiy muammolarini tahlil qilamiz;
- **roman-epopeya** janriga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
- **taqriz** yozishni o'rganamiz.



«**O**ybek prozada shoir-u, poeziyada prozaikdir. »  
Hamid Olimjon, shoir

«**T**alant qanchalik katta, qanchalik qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash — yerning qa'rida bo'ladi. Bu kon talantni qazib olish uchun, avvalo, katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bularning ustiga dard bo'lishi kerak. Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek bu jihatdan ham hozirgi va kelajak adabiy avlod qarshisida ustod bo'lib gavdalanadi.»

Abdulla Qahhor, yozuvchi



«**O**ybek iste'dod uchun uncha qulay bo'lmagan og'ir zamonlarda yashagan bo'lsa-da, eng murakkab talato'plar orasida ham, mudhish qirg'inbarotlar sharoitida ham inson o'zining insoniy qadr-qimmatlarini saqlab qolishi mumkin ekanini va bu faqat uning o'zigagina bog'liq ekanini isbot qildi.»

Ozod Sharafiddinov, adabiyotshunos



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi (1965), O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi (1943) Musa Toshmuhammad o‘g‘li Oybek 1905-yil 10-yanvarda hunarmand-bo‘zchi oilasida tug‘ilgan. Oldin o‘rta maktabda, 1922–1925-yillarda esa Toshkent ta‘lim va tarbiya texnikumida tahsil oldi. So‘ngra O‘rta Osiyo Davlat universitetining ijtimoiy fanlar fakultetida o‘qishini davom ettirdi. 1930-yili universitetni tugatib, shu yerda siyosiy iqtisoddan dars berdi.

Oybek adabiyotga 1926-yili chop etilgan «Tuyg‘ular» she‘riy to‘plami bilan kirib keladi.

Adibning «Dilbar – davr qizi» (1931), «O‘ch» (1932), «Baxtigul va Sog‘indiql», «Temirchi Jo‘ra» (1933) dostonlari o‘z davrining she‘riy yilnomalaridir. U tarixiy va zamonaviy mavzularda yigirmaga yaqin dostonlar yaratadi.

Oybekning nasriy merosi esa 5 roman («Qutlug‘ qon», «Navoiy», «Oltin vodiidan shabadalar», «Quyosh qoraymas» va «Ulug‘ yo‘l»), 4 qissa («Shonli yo‘l», «Nur qidirib», «Bolalik» va «Bola Alisher») hamda bir qancha hikoya va ocherklardan iborat.

Serqirra ijod sohibi Oybek jahon va rus adabiyotining eng yuksak namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilib, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy asos solgan o‘zbek tarjima maktabini o‘zining yuksak darajadagi tarjimalari bilan boyitdi. U Pushkinning «Yevgeniy Onegin» she‘riy romanini, Lermontovning «Maskarad», Molyerning «Tartyuf» dramalarini, antik adabiyot namunalarini, shuningdek, boshqa taniqli ijodkorlarning bir qancha asarlarini tarjima qildi.

1937-yilda Sovet davlati qatag‘on siyosatining avj olishi Oybekning «millatchi» sifatida ishdan haydalihi hamda tazyiqqa uchrashiga sababchi bo‘ladi. Kambag‘al oiladan chiqqanligi, internatda tarbiyalanganligi va boshqa ayrim sabablar tufayli qatag‘ondan omon qolgan Oybek qizg‘in ijodiy faoliyatda bo‘ldi. Ammo 1950-yillar avvalida yana qatag‘on to‘lqinining boshlanishi bilan Oybek insult xastaligiga uchraydi va uzoq davom etgan xastalik oqibatida 1968-yil 1-iyulda vafot etadi.

Vafotidan so‘ng turmush o‘rtog‘i, kimyogar olim, professor Zarifa Saidnosirova boshchiligidagi ijodiy jamoa adibning 20 jildlik to‘la asarlari majmuasini nashr ettirdi.

Oybek 2000-yil o‘zbek adabiyoti va madaniyati rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi uchun «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan.

## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

Biz o'qishga hozirlanayotgan asar – «**Qutlug' qon**» romani 1937-1938-yillarda yozilgan. Unda o'zbek xalqining Birinchi jahon urushi arafasidagi mashaqqatli hayoti qalamga olingan.

### ESLANG:

O'zbek xalqining **Birinchi jahon urushi** davridagi hayotiga bag'ishlangan qanday asarlarni o'qigansiz? Bu asarlarda o'sha paytdagi turmush qanday tasvirlangan?

### ASARNING YOZILISH TARIXI

«Qutlug' qon» Oybekning roman janridagi dastlabki tajribasi bo'lib, yozuvchi hayotining eng tahlikali kezlarda, qisqa muddatda yozilgan va 1940-yilda nashr etilgan. Roman asosida 1916-yilgi qo'zg'olon yotadi.



1916-yil qo'zg'oloni ishtirokchilari

Mardikorlikka qarshi xalq qo'zg'oloni 1916-yilning 4-iyul kuni o'sha paytdagi Samarqand viloyatining Xo'jand shahrida (hozirgi Tojikiston hududi) boshlandi va tez orada butun Turkiston o'lkasiga yoyildi. Qo'zg'olonga Rossiya imperatori Nikolay II ning farmoni sabab bo'ldi. Bu farmonga ko'ra, rus millatiga mansub bo'lmagan aholidan 19 yoshdan 43 yoshgacha bo'lgan erkaklar Birinchi jahon urushida qatnashayotgan Rossiya armiyasi uchun mudofaa inshootlarini qurishga majburiy safarbar qilinishi,

ya'ni xalq tili bilan aytganda, «mardikorlikka olinishi» lozim edi. 1914-yildan buyon davom etayotgan urush ta'sirida holdan toygan, qimmatchilik, soliqlar oshishiga bazo'r sabr qilib kelayotgan odamlar «oq-poshsho»ga (Rossiya hukmdorini Turkistonda shunday atashar edi) qarshi bosh ko'tarishgan. Xalq qo'zg'oloni, ayniqsa, Jizzax shahrida avj oldi.

Bu fojialar haqida Turkistondagi jadidlardan Mustafo Cho'qayev, Ubaydullo Xo'ja Asadullaxo'jayevlar Peterburgga borib, Rossiya parlamenti – Dumasiga arz qildilar. Aholi nomidan murojaat etib, zo'ravonlikni to'xtatish, farmonni bekor qilish, Turkistondagi ahvolni o'rganish uchun vakil yuborishni talab qildilar. Rossiya Dumasi bu talablar asosida Aleksandr Kerenskiy boshchiligida maxsus komissiya jo'natdi. Kerenskiy ahvolni tekshirib, bu yerdagi xunrezliklar, vayronalar haqida shunday degan edi: «... janoblar, men ikki frontda – Kavkaz va G'arbiy frontda bo'lganman, lekin bunaqasini hali ko'rmaganman».

Milliy ozodlik yo‘lidagi qo‘zg‘olonning mudhish oqibatlari 15 yoshli Oybekni befarq qoldirmaydi. 1937-yilda, Stalin qatag‘onlari avjiga chiqqan davrda adib ushbu qo‘zg‘olon haqida roman yozishga kirishadi.

«**B**iz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz. Kunlar nihoyatda betinch. Hamma ziyolilar «xalq dushmani» deb e‘lon qilinib, qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda — uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo‘rg‘onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog‘ning chetiga ko‘chirdik. (Go‘yo bizni bog‘dan topisholmaydiganday). Oybek ... butun yoz ichi bog‘dan chiqmay ijod qildi. Oybek buyuk iroda egasi edi. Shuning uchun ham u o‘ta tahlikali va fojiali kunlarda, g‘urbat yutib kechirilgan hayotda «Qutlug‘ qon»day go‘zal va o‘lmas bir asarni yaratdi.»

Zarifa Saidnosirova

#### FIKR YURITING:

SSSRda 1930- va 1950-yillardagi qatag‘on siyosatining maqsad va vazifalari nimalardan iborat bo‘lgan?

Oybek romanda Yo‘lchi boshliq mehnatkashlar, Mirzakarimboy boshliq boylarning o‘zaro munosabatlarini tasvirlash orqali mazkur qo‘zg‘olonning kelib chiqish sabablarini badiiy tahlil qiladi. Sotsialistik realizm metodi talablariga ko‘ra romanda jamiyatning davrdagi qutblashgan holatiga urg‘u berilishi, Mirzakarimboyga o‘xshagan boylar qatlami qora bo‘yoqlarda aks ettirilishi, bosh qahramon (Yo‘lchi) ongidagi o‘zgarishlarning sababchisi, albatta, Imperiya vakillaridan biri qilib tasvirlanishi lozim edi. 1937-yil qatag‘oni «tegirmoni»dan arang omon qolgan adibning mazkur romani yuqoridagi talablarsiz nashr etilishi mumkin emasdi va Oybek qo‘yilgan talablar asosida asarni qayta ishlashga majbur bo‘ladi.

#### TADQIQ QILING:

Muallif sotsialistik realizm talablariga rioya qilishga majbur bo‘lishiga qaramay, asar haligacha badiiy qiymatini yo‘qotmaganligi sabablarini qanday izohlaysiz? Asarni o‘qish davomida shu savolga javob izlang.

## QUTLUG' QON

### Birinchi bob

#### I

Vaqt peshindan oqqan edi. Iyul oyining quyoshi hamma yoqni olov seli bilan to'ldirgan, havo allaqanday oq alanga bilan jimgina yonganday... Keng dala yo'lida qatnovchilar siyrak: eski kir qalpog'ini burniga qadar tushirib, issiqdan mudragan va horg'in oriq otining yalqov qadamiga bardosh qilib shahardan qaytayotgan chetan aravali dehqon ikki oyog'i bilan eshakning qorniga niqtab, muttasil «xix-xix» bilan halqumini qirgan bir mo'ysafid uzumchi, qatig'ini pullab, xurmachalarini orqalagan, issiqqa qaramay, goh aravaga osilgan, goh qush uyasini qidirib daraxtlarga ko'z tikkan ust-boshi kir-chir sho'x bolalar... Issiq tobora ortar, «g'ir» etgan shamol yo'q, ot-arava ko'targan chang havoda uzoq vaqt qimirlamay turib qolar, yuzlarga qizigan temir uchquni kabi yopishar, nafasni bo'g'ar edi.

Qahraton qishda yalang oyoq muz bosib, saratonda qizg'in qum kechib issiqda, sovuqda obdan pishgan bizning yigitni ham (katta masofani piyoda bosgani uchunmi) kun xiyla betoqat qilgan edi. U kuyib yotgan bilq-bilq yumshoq tuproqda salmoqli oyoqlarini ildam va yirik-yirik bosar, ko'zlagan joyiga tezroq yetishga oshiqib o'tkinchilardan so'rar edi:

— «To'pqayrag'och»ga yaqin qoldimi?

— Hali bor. Ko'prikdan keyingi guzar.

Uning ochiq yoqali uzun ko'ylagi, ustidagi olacha yaktagi suvga pishganday jiqqa ho'l bo'lgan; ba'zan g'ashi kelib, badaniga yopishgan ko'ylakni ko'chirar va yelpinar edi.

Ko'prikdan o'tish bilanoq guzar boshlandi: ko'chaning ikki tomonida bir-biriga qarshi ikki choyxona, bir qassob do'koni, buning yoniga suqulgan kichkina baqqolchilik.

Ko'cha iflos, lekin suv qalin sepilgan; har yoqqa tarvaqaylab o'sgan beso'naqay, qari tollarning ko'lankasi quyuy.

Yigit so'l yoqdagi choyxonaning karavotiga o'tirdi. Chang va terdan hosil bo'lgan kirni yaktak etagi bilan yuzidan sidirib tashladi. Kichkina xaltani yoniga qo'yib, choy so'radi. Samovarchi chuvak yuzli, eti suyagiga yopishgan, jikkak va shu bilan baravar g'irt ko'sa odam edi. U ustaning qo'liga tushatusha xo'p ezilgan, qorni pachaq, chirkin katta samovarning oldida yog'och yelkasini qisib o'tirar, kelgan-ketgan odamlar bilan unchalik ishi yo'q; is bosgan kir latta bilan dam samovarni, dam yonida qalashgan piyola-choynaklarni artar, har kuni ming martalab qo'lida tutadigan piyolalarni olib, go'yo birinchi dafa ko'rganday, ko'zini aylantirar, tovushini baland qo'yib, o'zicha valdirar edi: «Odamlarga hayronman-da! Agar sig'sam edi, samovarning otashdoniga tushib, ko'mir o'rniga yonar edim. Jabbor ko'sadan bir hovuch kul qolgan bo'lar edi. Shu ham tirikchilikmi? Mana bu



xumsaning ham labi uchgan! Mana bunisi darz ketibdi... Hoy, aravakash bola, otingni tort, naq tezagini do'ppingga solib beraman!»

Nihoyat, shang'i samovarchi jo'mragi uchiga jez qoplangan choynakni va bir piyolani yigitning oldiga do'q etib qo'yib ketdi.

Choyxonada odam siyrak. Yigitlardan yuqoriroqda, o'rta yoshli ikki dehqon o'tirar, bu yil sabzi-piyozning bozori kasodligidan va ulovsizlikdan hasratlashar edi. Biri so'zlab-so'zlab, qamchi dastasi bilan yelkasini qashir, ikkinchisi esa qo'nji bir qarich, churuk chorig'ini ko'rsatib: «Bu qachon yangi bo'ladi? Sen ot-ulovdan gapirasani! Dehqonchilikda barakat qolmadi. Dehqonning sira mazasi yo'q»-, deydi. Unisi: «Ha, ishqilib, bosh omon bo'lsin, birodar», degan so'zni takrorlar edi. Choyxonaning burchagida, kunning dahshatli yonuviga qaramay, qalin, qora jun chakmonga o'ralgan bir qozoq devorga suyalib mudrar, minut sayin ko'zini ochib loqaydlik bilan samovarchiga buyurar edi: «Shilimni uzat!» Samovarchi nuqul kul bilan to'lgan sarxonaga cho'g' qo'yar, burishib-turishib, chilimni olib borar va o'dag'aylar edi: «Tort, tort, sira haqing ketmasin!»

...Yigit g'oyat chanqagan edi, choyni quyib, puflab-puflab ichdi. Belbog'iga tugilgan qirq tiyin chaqadan tegishlisini ayirib olib, piyola ichiga tashladi-da, o'rnidan turdi. Lekin bir muddat taraddudda qoldi: qay tomonga qadam bosishini bilmas edi. Samovarchining «it fe'l» ekanini payqagan bo'lsa ham, noiloj uning oldiga bordi.

— Mirzakarimboyning bog'i qayerda, bilmaysizmi?— dedi muloyimlik bilan.

— Nima ishing bor?

— Yo'liqmoqchi edim-da.

— Hm... Mirzakarimboyning Toshkentning to'rt dahasi biladi. Hov anav ko'chaga buril. Dang'illama darvoza. O'sha Iskandar Zulqarnayn ham bunaqa qo'rg'on solgan emas! — Samovarchi qo'shaloq barmoqli panjasini cho'zib bir ko'chani ko'rsatdi. Keyin bu begona yigitga boshdan-oyoq ko'z yugurtirib, havasi kelib gapirdi:

— Rosa muchang bor ekan, inim. Badaningdan kuch yog'ilib turibdi-ya. Qayerliksan, sayramlikmi? Boy boboning omadi...

Choyxonaning ichkarisidan bir tovush yangradi:

— Tuf de, ko'zing tegadi, kasofat! Shu so'zingni menga aytsang, tishingni sug'urib olardim.

— Koshkiydi manda tish bo'lsa, sanda gavda bo'lsa, simyon!

Yigit ularning so'ziga bolalarday jilmayib, yo'lga tushdi.

Yashil bo'yoq bilan bo'yalgan, ust tomoni o'ymakor panjarali, katta va og'ir darvozaga yetganda, yigitning yuragi bir oz o'ynab ketdi. Darvozaning bir tavaqasi ochiq. U uzoqdan ichkariga qaradi. Qarshisida daraxtlar ostidagi katta supada, dastro'molchasi bilan yelpinib o'tirgan, qordek oppoq ko'ylakli, oq soqoli bir tutamgina cholga ko'zi tushdi. Yuragi yana po'killadi. «Toshkentning to'rt dahasi» taniydigan bu davlatmand kishining



oldiga qanday kiradi? U sodda, uyatchan, kamtarin yigit edi. Lekin bir lahzada allaqanday kuch uni itarganday bo'ldi. U darvozadan kirib, supaga o'n-o'n besh qadam qolganda, qo'l qovushtirib, ta'zim bilan: «Assalomu alaykum» dedi. Faqat, salobat bosganidan, uning ovozi istagiga qarshi baland jaranglamadi. Allaqanday bo'linib, siqilib chiqdi. Chol o'tirgan joyidan qimir etmadi, bir qo'lini qosh ustiga qo'yib, keksalarga xos boqish bilan bir zum tikildi:

— Kel, chirog'im, nima xizmat?

Yigit supa oldida to'xtab, xaltasini qo'ydi, uzun, baquvvat qo'llarini cholga cho'zdi. Supaning chetiga omonatgina o'tirib, boshini quyi soldi: «Qayerga keldim? Mirzakarimboy shu kishimikan? Balki bu boshqa birovdir», deb o'yladi.

Chol bu begona yigitning vaziyatida taraddudlanish sezib, qaytadan so'radi:

— Xo'sh, o'g'lim, nima arzing bor? Ayt...

Yigit boshini ko'tardi va unga tikilib qarab, jilmaydi.

— Mirzakarimboy siz bo'lasizmi?

Chol boshi bilan tasdiqlagach, yigit davom etdi:

— Men Xo'jakent qishlog'idan keldim, jiyaningizning o'g'li bo'laman.

— E, Xo'jakentdan?!

— Xushro'ybibining o'g'liman.

— E, — Mirzakarimboy butun gavdasi bilan bir qo'zg'alib qo'ydi, — jiyanim Xushro'ybibining o'g'liman degin, barakalla. Rahmat, jiyan, yo'qlab kelibsan. Qalay, onang baquvvatmi? Har yerda bo'lsa, omon bo'lsin. Oting nima, jiyan?

— Otim Yo'lchi. Ayam, shukur, sog'-salomat. Sizga salom deb qoldi.

— Dadang... E, Sherali qalay, bardammi?

— Dadam o'lgan, ikki yildan oshdi chamasi.

Mirzakarimboy qo'llari bilan soqolini yengilgina siypab, marhumga fотиha o'qigan bo'ldi.

— Boyoqish ko'p yaxshi odam edi; insofli, hamiyatli edi. Bir vaqtlar o'rtada bordi-keldi bo'lib turar edi. Dadang bu yerda ham, shahar hovlimizda ham bo'lgan. Sen hech kelganmiding?

— Yosh pallamda dadam, ayam bilan birga shahardagi hovlingizga kelganim g'ira-shira yodimda bor...

Chol o'tmishni esladi. Yo'lchi o'z onasidan yuz martalab eshitgan gaplarni hikoya qila boshladi, ya'ni opasidan ikki yosh qiz yetim qolgani, ulardan Xushro'ybibi o'z otasi tarbiyasida qolib, uning singlisi Oyimbibini Mirzakarimboy o'zi tarbiya qilib, naq erga berish oldida vafot etgani, Xushro'ybibining toleyi pastlik qilib, ota o'lgandan so'ng amakilari qishloqqa, Sheraliga erga berganliklari va hokazoni so'zladi. So'ng chol sukutga botdi, kichkina, lekin hali tetik ko'zlarini mudroq bosgan odam kabi, sekingina yumdi. U hozirgina yodiga olgan qishloqi Xushro'ybibini ham, uning kamtarin, mehnatkash marhum erini ham, kutilmagan vaqtda yo'qlab



kelgan bu arslonday qishloqi jiyanchani ham unutgan, uning fikrini yolg'iz o'z ishlari ish g'ol etgan edi. U bankalar orqali o'z raqiblariga qarshi olib bormoqchi bo'lgan sirli ishlarni, o'z qarzdorlariga nisbatan qanday muomala va munosabatda bo'lishni o'ylar edi. U qarzdorlarni uch guruhga bo'ldi. Birinchi guruhdagilar bilan savdo muomalasini avvalgicha davom ettiraveradi. Chunki bularning «qo'li uzun», qo'r-quti ko'p. Ulardan bir kun ozni ko'p qilib oladi. Ikkinchi guruhdagilarga birmuncha do'q qiladi, shu bilan skladdlarda cho'kib qolgan gazlamalarni yaxshi baho bilan ularga o'tkazib yuboradi. Uchinchilarning esa dumlaridan mahkam ushlab olib, maymunday o'ynatadi... So'ng katta o'g'li Hakimboyvachchaning paxta savdosi yuzasidan o'ris firmalari bilan yaqinda tuzgan shartnomasi ustida o'ylab, bu ishning qaltis tomoni sira yo'qligiga va tajribakor aqlning ko'rsatishiga muvofiq, bu ishdan foyda daryoday toshib kelishiga yana chuqurroq ishongach, zavqlanib ketdi-da, ko'zlarini yana mahkamroq yumdi.

So'zamol, badavlat qari tog'aning birdan ko'z yumib sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi. Kelganim unga yoqmadi shekilli, degan andishaga ham bordi. Lekin u endi boshini ko'tarib, cholga va atrofga dadilroq qaray boshladi. Mirzakarimboyning gavdasi kichik, qo'llari ingichka bo'lsa ham, zuvalasi pishiq ko'rinadi. U go'shtdor ham emas, ori q ham emas, kichik, ayyor yuzi xo'rozning tojisiday qip-qizil; oppoq soqoli va miyiqdari toza va taralgan...

Bir tanobdan mo'lroq chor burchak tashqarining har tomoni diqqatni jalb qilarli edi. O'rtada supa va hovuz. Tanasi ikkita katta qulochga sig'maydigan bir tup sada tevarakka tangaday oftob tushirmaydi. Hovuzning narigi chetida bir-biriga yaqin o'tqazilgan, shoxlari bir-birining ichiga kirgan uch tup olma daraxti. Bir tupida olmalar endi sarg'ayib yiltiramoqda, bir tupida mushtday yirik olmalar hali ko'm-ko'k, ularga boqish bilan kishining tishi qamashib, og'zi so'lakka to'ladi; bir tup jaydari qizil olma, mevasining mo'lligidan hovuzga engashib tushgan; hovuz suvida bir qancha qizil olma yoqutday tovlanib, jimillab suzadi. Hovuzdan yigirma qadamlar narida to'rt tomoni ochiq, ustunlari chiroyli naqshlangan, yerdan odam bo'yi baland ko'tarilib solingan kattagina shiypon; buning atrofi gulzor. Quyoshda mayin tovlanib, xilma-xil ranglar bilan mavjlangan mayda gullar orasida ko'rkam yuksalgan qizil duxoba gullar olov parchasi kabi yonadi.

Yo'lchi ko'zlari bilan atrofni sayr etarkan, ro'baro'dagi qo'rg'on — ichkari hovli eshigidan yosh-yosh o'g'il va qiz bolalar chuvillashib chiqishdi. Bularning kiyimlari toza va yangi edi.

Mosh rang duxoba do'ppili, to'qqiz-o'n yashar, chiroylikkina bola — bolalarning eng kattasi edi. U ichiga katta oq kalamush qamalgan qopqonni yerga qo'ydi, eshikchasini ochdi. Semiz kalamush yerga tushib, lapanglab darvoza tomonga qochdi. Bolalar qiyqirib, uni quvlasha ketdi: «Ustiga lampa moy sepib yondiramiz!» Nabiralarning haddan oshgan suyunchli hangamasi cholning ko'zlarini ochdi... U qo'li bilan go'daklarga do'q qildi:



«Gugurt o'ynamanglar, hoy!» deb qichqirib ham qo'ydi. So'ng, qarshisida o'tirgan jiyanini unutayozganidan ogoh bo'lib, yupatish uchun:

— Obbo jiyan-e, biznikini topib keldingmi-ya? Ha, so'rab-so'rab Makkani topadilar... Hay, Oynisa, buvingni chaqir! — Bolalarga aralashmay bir chekada turgan rangpar, bezgaknamo qizga buyurdi boy.

Qo'rg'on eshigidan ayol ovozi eshitildi:

— Nima kerak?

— Munda kel — chol qo'li bilan imladi.

— Kishi bor-ku.

— Qarindosh... Xushro'yning o'g'li, — deb tushuntirdi

— Qaysi Xushro'y? Esim ham qursin, ha, qishloqdanmi? — o'rta bo'yli, to'la, lekin keng yuzining go'shtlari sarg'ayib, salqib tushgan ellik sakkiz yoshlarda bo'lgan kasalnamo xotin asta-asta yurib kelaverdi. U supaga yaqinlashgach, Yo'lchi o'rnidan turib salom berdi va onasining salomini topshirdi. Ammo kekkaygan xotin uning so'zini tinglamadi, eriga qarab so'zladi:

— Qishloqdagi jiyaningizning o'g'limi? Tog'dek yigit bo'libdi. Yoshligida ham bo'lali bola edi... ko'zinga tanish ko'rinib turibdi.

Mirzakarimboy xotiniga dasturxon olib chiqishni buyurgach, u ketish oldidagina, ko'rinishda samimiy, lekin aslida soxta va masxarali tovush bilan Yo'lchining onasini va ukalarini so'radi.

Boy endi issiqdan shikoyatlanib, uh-uhlab o'tirdi. Uning kampiri patnis va bir choynak choy olib chiqdi. Patnisda to'rtta kulcha, ikki bosh qizil chillaki va bir bosh qush cho'qigan qandaydir oq uzum bor edi. Yo'lchi qishloqdan keltirgan xaltani kampirga uzatdi.

— Ayam berib yubordi, qurt...

— Sadag'asi ketay, — kampir xaltani ushlagisi ham kelmay, qo'l uchi bilan tutib gapirdi, — koyib nima qilar edi bechora.

Nabiralar xaltadagi qurt ekanini eshitib, kampirning oyog'i ostida o'rmalashdi va: «Manga bitta, buvi», «Manga ancha bering, buvi» deb qiy-chuv ko'tarishdi. Kampir xo'mrayib, nabiralarni jerkib tashladi. Bolalar yopishavergach, xaltani ochishga majbur bo'ldi-da, labini burib vaysay boshladi:

— Xah, shumtakalar, og'izlaringda erib ketadigan suzma qurtni bersam olmaysizlar, shu tosh qurtni talashasizlar. Mana, ko'rdinglarmi, qattiq — tishlaringni ushatadi. Bay-bay, bu bolalarning dastidan o'lib bo'ldim, axir bu tosh qurt, jig'ildonlaringni teshib yuboradi-ku. — Mehmonning qizarganini payqagan keksa boy, o'z xotining katta og'iz va betamizligiga achchiqlanib, yuzini teskari burdi, lekin xotini yana valdiramasin uchun, yumshoq gapirdi:

— Hay, ichkari kir, chag'ir-chug'urdan qulog'im bitdi.

Yo'lchi qurt olib kelganiga pushaymon qildi. Onasi qo'shnilardan qurt yig'ib, boy tog'a uchun sovg'acha tayyorlab, suyuna-suyuna uning qo'lga tutqazgach, yaxshi-yomonligini surushtirmay, u ham olib jo'nagan edi.



Boy tog‘a nonni ushatib, patnisni Yo‘lchining oldiga surib qo‘ydi.

— Ol, jiyan, yo‘l yurib kelgansan. Bir parcha yerlaring borligini eshitar edim, qo‘llaringdami?

— Yo‘q, — patnisdan bir burda non olib javob berdi Yo‘lchi, — yer sotilib ketgan.

Mirzakarimboy yerga o‘ch odam edi. Yerli-suvli odamlar, qanday bo‘lmasin bir sababdan qiynalib qolsalar, darrov ularning pinjiga tiqilar, yo o‘rtaga kishi qo‘yib, yerni tezroq o‘z qo‘liga o‘tkazishga tirishar edi. Hatto, yer sotishni xayolga keltirmagan odamlarning yerlarini, — agar ularning yerlari o‘z yerlariga chegaradosh bo‘lsa, — o‘zinikiga qo‘shish uchun hech nimadan toymas, har qanday nomus va adolatning betiga tupirar edi. Ammo, Yo‘lchining sotilib ketgan yeri unga hech aloqasiz bo‘lgani uchun, yerning qadr-qiymati va bu xususdagi mahkam qanoatlarini tushuntira boshladi:

— Chakki bo‘libdi, jiyan. Yer sotgan er bo‘lmaydi, er yer sotmaydi. Mana bu gapning mag‘zini chaq... Yer sotganlarning ko‘pini ko‘rdik, axiri gadoy bo‘ladi, To‘g‘ri, yerni pulga sotadilar, naqd pulni jaraq-jaraq sanab oladilar. Pul hamma narsaning otasi. Pul belga quvvat, boshga toj. Puldor odam qanotli odam, bu qanot bilan mag‘ribdan mashriqqacha uhasan, har yerda oshna-og‘ayni, do‘st-yor topasan... Puldor odam Maskavgacha, Varshavgacha boradi. Pulsiz odam o‘z joyidan bir qadam siljisin-chi! Be!.. Pul shunday aziz narsa, jiyan. Lekin pulni juda maqtab yubordim, shoshma, yerda ham xosiyat ko‘p. Yer tug‘adi. Yerga cho‘pni tiqib qo‘ysang, ko‘karib, qulochga sig‘mas daraxt paydo bo‘ladi. Pul-chi? Pul ham tug‘adi. Juda ko‘p tug‘adi, tez tug‘adi. Ayniqsa, bu zamonda pul sertuxum bo‘lib ketgan. Ammo, pulni tutish qiyin, yeb, ichib qo‘yish juda oson. Pul asov qushga o‘xshaydi, sal bo‘sh tuttingmi, qo‘lingdan uchadi-ketadi. Yer ham tug‘adi, ham pulga kishan soladi. Yer olgan ko‘karadi, yer sotgan quriydi. Mana bu gapning mag‘zini chaq, jiyan!

— Nochorlik, tog‘a, — Yo‘lchi piyoladagi sovigan choyni ikki qultumda bo‘shatib, gapirdi, — dadam bir yil to‘shakda yotib qoldi. Ekinimiz yaxshi bo‘lmadi. Qo‘l kalta bo‘lgandan keyin, qayoqqa uzatasiz?

Yo‘lchi hali gapini bitirmagan edi, Mirzakarimboy uni kesdi:

— Bir terining ichida qo‘y necha ozib, necha marta semiradi, — dedi salmoqlanib boy, — kishining boshiga yomon kunlar ham keladi, ko‘nish kerak bunga. Bundan o‘ttiz besh yil ilgarimikan, rastada do‘konni ochgan yilim edi-da, boshimga bir mushkul ish tushdi: ba‘zi vaqtda savdogarlar ham siqilib qoladi, sen bunga tushunmaysan. Menga pul kerak, qayerdan olaman! «Rakat» mavzesida otadan qolgan uch tanob joy bor edi, koranda ishlatar edi. Ba‘zi og‘aynilarim, shuni sot, deyishdi. Vaqti kelganda, jiyan, do‘stlar qo‘ltig‘ingga kirib, balchiqdan tortmaydi. Men do‘stlarga sira ishonmayman. Maslahatga hammasi chaqqon. Nega desang, maslahatgo‘ylik oson narsa-da; tili qimirlaydi, xolos. Men ularga quloq solmadim. Boshni



u yoqqa urdim, bu yoqqa urdim, axir bir evini topdim, jiyan. Sandiqdan xotinimning kiyim-kechagini chiqardim, uyni bezashdan boshqa narsaga yaramaydigan asboblarni yig'ishtirdim, barini sotib pul qildim. Bilasan, xotin ahli molga o'ch bo'ladi, alalxusus, sandiqdagi molni yer-ko'kka ishonmaydi. U yig'ladi-siqtadi. «Sandiqda chirib yotgan moldan yerdagi axlat a'lo, ablah», dedim unga. Xotin — erning quli; xotinning ko'ngliga, ra'yiga qarab ish qilgan erkak odam emas, jiyan. Ishim to'g'rilanib ketdi, yerim o'zimda qoldi.

— Tog'a, boshqa ilojimiz yo'q edi. Mana sizda narsa bor ekan, sotibsiz, bizda bir parcha yerdan boshqa, ko'zga ilinarli hech narsa yo'q edi. Men qarab turmadim, poda boqdim, o'roqchilik qildim, otboqar bo'ldim. Ayam boshqoq terdi. Qishloqda tirikchilik qilish juda qiyin. Ochlik-yalang'ochlikka ko'nikib, tirikchiligimizni qilar edik, lekin bir narsaga boshimiz garang bo'lib qoldi: dadamning gardanida qarzi bor ekan. Ozgina. O'ttiz so'mga ham yetmaydi. Dadam, kasali og'irlashgandan keyin, tashvishga tusha boshladi. «Ko'zim ochiq ekan, qarzdan qutulib olay, go'rimda tinch yotay, Yo'lchi ro'zg'orga qaraydimi, qarzimni uzadimi», dedi ayamga. Xullas, yer juda arzonga ketdi. Kishining haqidan qutulganiga biz ham suyunib qolaverdik.

— Ha, bunday degin, — Mirzakarimboy oyoqlarini gilamga uzatib, silab, gapni davom ettirdi: — Bu endi boshqa gap. Qarz yomon narsa, jiyan. Qarzdin qutulish uchun yer tugul, kishi o'zini qul qilib sotishi kerak. Odamning hayvoni kishi haqidan qo'rqmaydi, kishi moliga ko'z olaytiradi. Shunday odamlar borki, o'zlarida hech nima o'q, boshqaning mulkiga hasad qiladi, ko'rolmaydi. Faqirlikka bo'ysunmaydi, yaxshi yeb, yaxshi kiyishni orzu qiladi. Jiyan, aqling bo'lsa, kishining bir tiyinigga xiyonat qilma. Tiyin ham pul, yuz ming so'm ham pul. Sen har narsani Ollodan ko'r. U bersa — xo'p; bermasa — xafa bo'lma, taqdirga shukur qil, nomusli kambag'al bo'l. U dunyoda foydasini bilasan. Qani, non ol, uzumga qara.

Yo'lchining qorni juda och edi. U tungi salqindan foydalanib, to'xtovsiz yurish bilan qiyom vaqtida shaharga kelgach, anhor labida o'tirib qishloqda beliga tugib olgan bitta nondan boshqa hech nima yemagan edi. Lekin Mirzakarimboy, savdogar nazokatidanmi, yoki odatlanganidanmi, nonni juda mayda ushatgan edi. Yo'lchi bir burdasini og'ziga tiqsa, lunjining bir chekkasida yo'qolib ketar, patnisga ketma-ket qo'l cho'zaverishga iymamar edi. Sodda qishloq yigiti takallufni bilmasa ham, odob-ta'zim xususida onasi ancha-muncha gaplarni uqtirib yuborgani uchun, davlatmand qarindosh huzurida ovqatdan tortinishni ma'qul ko'rdi, dasturxonni tezgina yig'ishtirib, choy icha boshladi.

Mirzakarimboy qishloqi jiyani bilan so'zlashishdan to'xtagan bo'lsa ham, fikri yigitni o'rganish, uning kelishining chin sabablarini mulohaza qilish bilan mashg'ul edi. U o'z ichida shunday o'yladi: «Qarindoshlarning ahvoli pachava, tirikchiligi bemaza. Yersiz, ot-ulovsiz qishloqning kun





kechirishi — o‘lim azobi. Onasining uzoqlashib ketgan tog‘asini yigit bekorga yo‘qlab keladimi? Yo‘q, mandan kiyim-kechak, pul-mul olish umidida kelgan. Buni onasi yuborgan, albatta. Xotinlarning xulqi, odati ma‘lum. To‘rtta qo‘shni xotin orasiga kirsa, boy tog‘am bor, eshigini yel ochib, yel yopadi, deb maqtansa kerak. Yaxshiyam o‘zi kelmabdi... Bo‘lmasa haligicha necha marta ko‘z yoshini to‘kib, tirikchiligidan zorlangan bo‘lardi. Bu yigit aqlli ko‘rinadi, ham ulug‘vor, vazmin yigit...»

Mirzakarimboy ilonning yog‘ini yalagan odam edi: hamma boylar kabi, ayyor, mug‘ambir, puxta-pishiq; u yuraksiz emas, balki har ishda ehtiyotkorlikni ma‘qul ko‘rar edi. Mana shular orqasida u, kamtarin mahalla baqqolining o‘g‘li Karim chittak — kichkina, lekin harakatlari chaqqon va ildam bo‘lganidan, yoshlikda shunday laqabi bor edi,— hozir kimsan Mirzakarimboy!.. U Toshkentning eng oldingi boylaridan. Toshkentning eski va yangi shaharlarida to‘plab sotuvchi ikki gazlama do‘koni, Turkiston o‘lkasining turli shaharlarida katta-kichik ayrim do‘konlar, Toshkent tevaragidagi turli mavzularda yer-suv va hokazo unga qaraydi. Bundan tashqari, uning katta o‘g‘li Hakimboyvachcha yirik paxta savdosi bilan mashg‘ul...

Boy o‘z umrida ko‘pni ko‘rgan, ko‘pni tanigan, turli shahar va turli odamlar bilan muomala qilgan, uning qo‘lidan juda ko‘p xizmatkor, qarol, chorakor va hokazo o‘tgan. Shuning uchun odamni tez anglab olar edi. O‘zining bu xislatiga chuqur ishonar, bu bilan boshqalarga maqtanmasa ham (maqtanchoqlikni yomon ko‘rar edi u), ba‘zi vaqt ichidan faxrlanardi. Mana hozir uning qarshisida mushtipar jiyanining o‘g‘li. U bilan turli narsalar haqida uzoq suhbatlashdi, lekin yigirma uch yoshli yigitning aqlida sira nuqson ko‘rmadi. Uning arslonday ko‘rkam gavdasi, keng peshanasi, chuqur samimiyat ifodasi bilan to‘la yirik, hushyor ko‘zlari, kir yaktagi ichidan qavarib turgan keng ko‘kragi, baquvvat qo‘llari, so‘zlaridagi qishloqcha soddalik va to‘g‘rilik (bu xususiyatni kambag‘al odamlarda katta fazilat deb topar edi boy) unga juda yoqdi. «Obdan chiniquqan yigit, unga berilgan ovqat behuda ketmaydi», deb o‘yladi u. Lekin shu bilan baravar, Mirzakarimboy Yo‘lchining butun siymosida katta jasorat va g‘urur sezdi. Bu sifat unga jilla ma‘qul tushmadi. Keyin, uning ehtiyotkorligi «sinamagan otning sirtidan o‘tma» degan xalq maqolini eslatdi, agar Yo‘lchi unikida ishlashni orzu qilsa, bir qancha vaqt sinamoqchi bo‘ldi: «Oqibat yaxshi bo‘lsa, qo‘limdan sira chiqarmayman. Yalqov va g‘irrom, yo qo‘li egri bo‘lsa, silliqlik bilan haydayman», deb o‘yladi.

— Jiyan,— ohista murojaat qildi Mirzakarimboy,— o‘ylab qaragam, ahvollaring chatoqqa o‘xshaydi. Nima qilasan, yana qishloqqa qaytasanmi?

Boyning savoliga Yo‘lchi qanday javob berishni bilmay qoldi. Qishloqdan chiqarkan, boy tog‘asidan, albatta, xizmat so‘rashni onasi uqtirgan edi. Endi u «qaytaman» desa, erta-indin qishloqqa jo‘nashi kerak, u vaqt onasi xafa bo‘ladi: «Shunday katta dargohdan o‘rin topolmay qo‘lingni burningga

tiqib qaytdingmi, noshud!» deydi. «Qolaman, biron xizmat topib bering», deyishga g'ururi yo'l qo'ymadi, Chol takror so'ragach, u javob berdi:

— Toshkentda ish topsam, balki qolarman.

Mirzakarimboy soqolining uchini barmoqlari bilan chimdib, kulib qo'ydi:

— Shaharda qayoqdan ish topasan? Bizda yura tur. Non-nasibang bizda bo'lsa qolarsan, bo'lmasa, qishlog'inggami yo boshqa tomongami jo'narsan. Rizqingni Ollo taolo qayerga sochgan, biz bilamizmi?

— Xo'p. Ixtiyor sizda, — boshini qimirlatib dedi Yo'lchi.

Mirzakarimboy astagina o'rnidan turdi. «Yo Rasulullo» deb ming'irladi, supadan tushib, kechagina sotib olinganday, yarqiragan chiroyli, ixcham «sodiqi» kavushni oyoqlariga ildi, kavushni g'ijirlatib, qari bo'lsa ham xo'rozday kekkayib, qo'rg'on tomonga yurdi. Naq shu pallada darvozadan katta qora sigir shataloq otib, orqasida bir kishini surib kirdi. Boy cho'chib, o'zini chetga oldi. Haligi kishi orqaga tashlanib oriq-chandir bo'ynidagi tomirlari o'qlovday qabarib, sigirni bazo'r to'xtatdi: «Hech kuchga bo'yin bermaydi bu zantaloq...», — boyga qarab dedi u. Keyin birdan Yo'lchini ko'rib qolib, ko'zlarida «u kim?» degan savol javdirar ekan, boy kulib unga gapirdi: «Yormat, bu bola jiyanim bo'ladi. Tanish, ish o'rgat!» U indamadi, sigirni uzoqda, devor tagidagi bir daraxtga bog'lab qaytgandan so'ng, Yo'lchi bilan ko'rishar ekan, qo'rg'on ichiga kirib ketgan boy bir zumda yana eshikda ko'rindi:

— Yormat, shaharga otni tezroq olib tush, Hakimjon kutib qolmasin, bugun mehmonlar bor-a...

— Beda o'rib qo'yish kerak edi-ku, — boshini qashidi Yormat.

— A, kun ham kechikib qolibdi.

— Men o'raman bedani, bedalaring qayerda? — Yormatga qarab dedi Yo'lchi.

Mirzakarimboy jiyanining ishga tayyorligidan rozi kabi kuldi-da, indamasdan ichkari kirib ketdi.

— Mehmonni ishga solar ekanmiz-da, — dedi Yo'lchini birga olib jo'narkan Yormat, — ha, qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga.

Yormat Yo'lchi bilan yonma-yon yurib eski tanish kabi undan-bundan so'zlashib bordi. U qirq besh yoshlarda, novcha, chayir odam, yuzida siyrak cho'tir izi qolgan, soqol, mo'ylovlariga anchagina oq tushgan edi. Qo'sh belbog'i chapanichasiga past bog'langan, yurishi ham oliftalarga taqlidni ko'rsatar, uning butun qomati, hamma harakatlari o'ziga zeb bergan, maqtanchoq kambag'alni tasvirlar edi.

Ular picha yurib, to'rt-besh tanob joyni ishg'ol etgan bedazorga chiqishdi.

— Mana bedam! — qo'lini beliga tirab, ko'zi bilan uzoqqa ishorat qilib dedi Yormat. — Hafsalangiz bo'lsa, bedanani shunda tuting-da.

— Yo'ng'ichqa siznikimi? Yosh ekan hali, juda baquvvat o'sibdi, — Yormatga qarab dedi Yo'lchi.

— Xax-xax-xax... — qattiq kuldi Yormat va o'roqni Yo'lchiga tutqizib gapira boshladi: — Mirzakarimboy otamning ostonalarida o'n olti yildan



buyon ishlayman, yigitcha. Shunday bo'lgandan keyin «sizniki, bizniki» deyishga o'rin qoladimi? Bu bedalarga ozmuncha terim to'kilganmi, eh-he! Keyin ko'rsataman, boyning ko'p yerlarini man yolg'iz o'z kuchim bilan ko'kartirganman. Qani, mana shu yoqdan o'ravering. Bir aravani mo'ljallab o'ring. Bu kun payshanba, Hakimboyvachchaning mehmonlari chiqadi. Agar ukalari Salimboyvachcha ham ulfatlarini boshlab chiqsa, tomoshani unda ko'rasiz: hamma yoqni ot tutib ketadi.

Yo'lchi o'roqqa diqqat bilan tikilib qaradi va enkayib o'ra boshladi. O'zini chapdast-epchil o'roqchi hisoblagan Yormat Yo'lchining ishidan kamchilik topib, o'z mahoratini unga ko'rsatish umidida, bir muddat kuzatib turdi. Lekin uning tajribali ko'zi Yo'lchining ishida hech qanday kamchilik ko'ra olmadi. Ba'zi jihatdan, masalan, ildamlikda bu yigitni o'zidan ustun ko'rdi. Boshqalarning ishini kamsitishni yaxshi ko'rgan bu «o'zbilarman» odam bu gal jinday yon berishga majbur bo'ldi.

— Durust, sartarosh soch olganday qirtishlab o'rar ekansiz. Men ketdim.

Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday qizg'in, bo'g'uvchi havo yuzga uradi. Yo'lchi mo'l-mo'l ter quyib, hech qayoqqa qaramay ishlayverdi. O'roq o'tkir edi. O'ralib-chaplashib o'sgan qalin maysani «shar-shar» yiqib borar ekan, o'zi ham zavqlandi.

Hozir uning ko'ngli bir qadar ko'tarilgan: «Boy tog'am insofli odam bo'lsa kerak. Mana, haligi odam shuncha yil ishlabdi. Xizmatkor qul emas, foyda ko'rmasa turadimi? Gapiga qaraganda, xursandga o'xshaydi. Qishloqda ko'p odamlarning yumushini qildim, mayli, bu yerda ham ishlay. Yaxshi ishlasam, albatta, chakki bo'lmaydi. Negaki, bular qarindoshlarim, hammadan yulsalar ham, mendan yulmaslar. Tog'am qancha nasihat qildi, men bilan qancha gaplashdi, Endi ishim o'ng bo'ladi, endi ayam, ukam, singlim zoriqmaydilar. Lekin gap yaxshi ishlashda...» Shuning singari o'y-xayollarga botib, mo'ljallagan miqdorini o'rib bo'ldi. So'ng, uyum-uyum to'plab, keng qulochiga siqqancha ko'tarib, boyning tashqarisiga tashimoqqa boshladi.

Quyosh yashiringan bo'lsa ham, kunduzning yorug'ligi hali tamom so'nmagani edi. Allaqanday mayin, muloyim jimjitlikni atrofda sigir, buzoqlarning ma'rashi, daraxtlar orasidan qushlarning ora-sira yangrab, yana bir zumda tingan sayrashi seskantiradi. Hamma narsa horg'in, mudrashga boshlagan kabi... Allaqanday poyonsiz g'arib oqshom.

Boyning tashqarisida Yo'lchidan boshqa hech kim yo'q. Bu yerda hozirgina bemalol o'ynab yurgan ikki bola, Yo'lchini ko'rish bilan, undan hurkkan kabi, ichkari hovliga qochishdi. Qishloqi yigit supa labida boshini quyi solib o'tirar, kambag'al qishloqdagi chordevor uyini, mehribon onasini, sevikli ukalarini ko'z oldiga keltirib o'ylar ekan, ko'chada birdan otlarning dukurini eshitdi, sakrab turib, darvozaga yugurdi. Chiroyli saman otning jilovini tutib, egasini qo'ltiqlab yerga tushirdi. U — oq jujun kamzul ustidan beqasam to'n kiygan, o'rta bo'yli, mallador, qora burama mo'ylovli,



dimog'dor, qarashlari o'tkir va tez, yoshi qirqqa yaqin bir odam edi: bu Mirzakarimboyning o'g'li Hakimboyvachcha. Otdan tushib shoshib-pishib gapirdi:

— Yormat menga aytdi seni, jiyani. Yaxshi, otlarga qara, qarindosh!

To'ning etaklari bilan etigini nari-beri urib, ichkariga kirdi.

Yo'lchi gali bilan mehmonlarning otlarini daraxtlarga ham devorga qoqilgan maxsus temir qoziqlarga qantarib bog'ladi. Bir nechasini otxonaga olib kirdi. Keyin alla-pallaga qadar qo'rg'on, ichkari hovli eshigi bilan shiypon orasida bo'zchining mokisiday qatnadi, mehmonlar uchun dam yasog'lik patnislar, dam choy, dam isi och qorinni kemiradigan lagan-lagan mantilar, dam kosalarda sho'rvalar tashidi. Yormat shahardan piyoda qaytib, o'lguday horigani uchun, hamma otlarga Yo'lchi qaradi. Bir mehmonga qarashli izvoshchi Jo'ra aka bilan birga qorong'ida o'tirib, mehmonlardan qolgan ovqatdan yedi-da, Yormat topib bergan bir eski ko'rpa-chani quruq yerga yoyib, boshini bir bog' ho'l bedaga qo'yib uyquga ketdi...

## LUG'AT



**xiyla** – ancha

**ob** – suv

**simyon** — oriq, rangpar, pachaq odam

**tanob** – uzunlik o'lchov birligi

**koranda** – ishchi

**baqqol** – ro'zg'or mollari, oziq-ovqat sotuvchi mayda savdogar

## SAVOLLAR



1. Oybekning **tasvirlash** mahoratini quyidagi uch joy tasviri asosida tahlil qiling. Jadvalni to'ldiring.

Joylar	O'ziga xos belgilari	Badiiy ahamiyati
Ko'cha tasviri		
Choyxona tasviri		
Mirzakarimboy hovlisi tasviri		

Oybekning so'z bilan rasm chizish **mahoratiga** qanday baho berasiz?

2. Choyxonadagi **suhbat** mavzularidan nimalarni angladingiz?
3. Mirzakarimboy o'zi uchun muhim narsalar deb bilgan **pul va yer** masalasidagi fikrlarini qaytadan topib o'qing. Bu fikrlarga sizning munosabatingiz qanday?
4. «Yaxshi ishlasam, albatta, chakki bo'lmaydi. Negaki, bular qarindoshlarim, hammadan yulsalar ham, mendan yulmaslar. Tog'am qancha nasihat qildi, men bilan qancha gaplashdi, endi ishim o'ng bo'ladi, endi ayam, ukam, singlim zoriqmaydilar. Lekin gap yaxshi ishlashda». Yo'lchining shu kabi o'ylari orqali uning **xarakteriga** xos qanday xususiyatlarni ko'rish mumkin?

Asarning to'liq matnini o'qib chiqing.

pdf kitob

«Ziyouz» kutubxonasi



## 1-3 boblar

### LUG'AT



**sambitgul** – gullari oq, pushti, qizil ranglarda ochiladigan, barglari doimo yashil manzarali o'simlik  
**gupchak** – g'ildirakning markazidagi kegaylar qadalgan va o'q o'rnatiladigan teshigi bo'lgan o'rta qismi  
**girdig'um** – miqti, baqaloq  
**mudarris** – madrasada dars beruvchi kishi

**maziyat** – afzal, ortiq  
**ko'lka** – soya  
**tancha** – sandal  
**lona** (arabcha so'z) – moddiy yordam, nafaqa  
**tavan** (forscha; zararni qoplash) – xotinlar to'yga olib keladigan meva va kiyimlardan iborat tortiq; tuhfa

### SAVOLLAR



1. Abdishukur zamonasining «gazet o'qiydigan»laridan bo'lishiga qaramay, bu **boylar davrasida** o'zini ko'rishining sababi nima deb o'ylaysiz?
2. Agar tanlashga majbur bo'lsangiz, kimning **hayot tarzini** afzal ko'rardingiz: Tantiboyvachchanikinimi yoki qaynotasiniki? Izohlang.
3. Mirzakarimboyning quyidagi fikriga qanday munosabat bildirasiz: «Mardikor, ahli kosib, beva-bechora o'z qornini to'ydirsa bas-da! Ularning bolalari **o'qib, ilm olib** nima karomat ko'rsatar edi? Miri bor oilalarning bolalariga maktab ham, madrasa ham yarashadi?»
4. Uchinchi bobda tasvirlangan restorandagi ovqatlanish epizodini qayta o'qing. Sizingcha, imperiya vakillarining mahalliy xalqqa bunday **munosabatida** kim aybdor: o'zbeklarning uquvsizligimi yoki mustamlakachilarning zolim siyosatimi?
5. Nurining to'yi misolida asarda tasvirlangan davrdagi **to'ylar** bilan bugungi kun to'ylari o'rtasida qanday farqlarni ko'radingiz? Jadvalni to'ldiring.

Asarda tasvirlangan davr to'ylarining o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi zamon to'ylarining o'ziga xos xususiyatlari

## 4-8 boblar

### LUG'AT



**attor** (arabcha) – atir-upa, turli dorivorlar, xushbo'y narsalar sotuvchi shaxs  
**kamgak** – atrofi yoki ikki-uch tomoni devor yoki boshqa biror narsa bilan o'ralgan pana joy  
**allof** – un, bug'doy savdosi bilan shug'ullanuvchi shaxs  
**dali-g'uli** – ko'nglida kiri yo'q, xushchaqchaq  
**portsigar** (fransuzcha) – sigara yoki papiros solib yuriladigan quticha



## SAVOLLAR



1. Nurining ovsini bo'lgan rus ayol Maryamxonning (Mariyaning) hayotiga **yetishmayotgan** nimani unga berishni istardingiz? Ushbu obraz haqida so'z yuriting.
2. Kosib Shokir otani hanuz **yashashga undayotgan** narsa nima deb o'ylaysiz?
3. Gulnor va Nurinisoning **orzu-istaklari, his-tuyg'ularida** qanday o'ziga xoslik va ularning xarakteridagi nomutanosiblikni ko'rdingiz?
4. Agar Yo'lchi Nurining uyiga ketadigan bo'lsa, Nurining, uning va Gulnorning **kelgusi hayoti** qanday kechar edi deb o'ylaysiz?
5. Nurining qaynotasi Najmiddinboyning qariya xizmatkoriga qilgan **«yaxshilig»ini** qanday baholaysiz? Cholga bundan ko'proq yana nimadir qilish mumkin edimi?
6. Tantiboyvachchaning Gulandom oldida o'zini tutishi sizda bir on bo'lsa-da uning **o'zgarishiga** umid uyg'otdimi?
7. **Gulandom** obrazining berilishidan qanday xulosalar chiqarish mumkin?
8. Yo'lchi va Gulnor hayotini **o'zgartirib** yuborishi mumkin bo'lgan, ammo shu bilan birga asar mantig'iga ta'sir qiluvchi qanday o'zgarishni asarga kiritgan bo'lar edingiz? Fikringizni aniq dalillar bilan asoslab bering.

## 9-13 boblar

## SAVOLLAR



1. Shokir otaning urushga va zamonga bildirgan **munosabatidan** uning xarakterini anglash mumkinmi?
2. Yo'lchining boy va boyvachchalarning qilg'iliklaridan **xabardor** bo'lishiga qaramay, ularga qarshi hech ish qilmaganini qanday izohlash mumkin?
3. Gulnor Mirzakarimboyga turmushga chiqish xabarini eshitgandan keyin onasiga yalinib aytgan «Yo'qchilik ichida siz bilan yana biroz yashay. Shu dekchamizdan ko'nglim sira uzilmaydi», – degan gaplaridan Gulnorning **holatini** qanday his qildingiz? Gulnor uchun boyga turmushga chiqishdan ko'ra yo'qchilikda yashashning nimasi rohat edi?
4. Ellikboshi Gulnorning topilganini Tantiboyvachchaga aytganda nega u **qo'rqib ketdi** deb o'ylaysiz? Sharmanda bo'lishdanmi yoki qaynotasining qahriga uchrab davlatsiz qolishdanmi? Fikringizni asoslang.
5. Ellikboshi Salim boyvachchaning nomini oqlash uchun Yo'lchini badnom qildi. Olimxonning bundan asosiy **maqsadi** nima edi?
6. Gulnorga ota-onasining ko'nglini og'ritmagan holda boy cholga xotin bo'lishdan **qutilish** yo'lini topishga qanday yordam bera olasiz? Javobingizni asoslang.
7. «Qutlug' qon»dagi Yormat va «Kecha va kunduz»dagi Razzoq so'fi obrazlari o'rtasida qanday **o'xshashlik va farqlarni** ko'rdingiz? Quyidagi jadvalni to'ldiring. Qaysi obraz sizda ko'proq salbiy munosabat uyg'otdi?



Yormatga xos xususiyatlar	Razzoq soʻfiga xos xususiyatlar	Har ikkala obrazga xos xususiyatlar

8. Quyidagi soʻzlar qanday maʼno anglatadi? Asar matniga tayanib, jadvalni toʻldiring.

Soʻz	Izoh
Tert	
Buqalamun	
Muazzin	
Veksel	
Aʼlam	
Shaboxun	

## 14-18 boblar

### LUGʻAT



**kanop** – poyasidan tola olinadigan, bir yillik baland oʻtsimon oʻsimlik; uning tolas.

**zakot** – 1) shariatga muvofiq, puldor, badavlat musulmonning roʻza vaqtida oʻziga qarashli mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida beva-bechoralarga, kambagʻal qarindoshlariga beradigan xayr-sadaqasi; 2) Oʻrta Osiyo xonliklarida: chorva va mol-mulkning qirqdan bir ulushi miqdorida har yili xazina foydasiga olinadigan soliq

### SAVOLLAR



- Mirzakarimboyning soʻfiga nisbatan qilgan «**hiylayi sharʼiy**»si haqida qanday munosabat bildirasiz?
- Oybekning **Yoʻlchi va politsiya boshligʻi oʻrtasidagi mojaroni** asarga olib kirishidan niyati nima boʻlgan deb oʻylaysiz?
- Gulnor onasi sotib olib bergan **uzukni** Unsinga berishdan asl muddaosi nima edi?
- Mirzakarimboyning Unsinga aytgan «Oʻris amaldorlariga nechogʻlik taʼzim bajo qilsang, shuncha yaxshi» gapidan qanday **maʼno** uqdingiz? Fikringizni asoslang.
- Er-xotin Salim boyvachcha va Sharofatxonning **xarakterlari** qaysi jihatlari bilan oʻxshash va qaysi jihatlari bilan farqlanadi?
- Xalqning noroziligi aks etgan lavhalar sizda qanday **tuygʻularni** uygʻotdi?

## MUTOLAADAN SO'NG

### ASAR TAHLILI



1. Quyidagi variantlardan qaysi birida “Qutlug‘ qon” romanidagi **badiiy-g‘oyaviy mazmun** to‘laligicha aks etgan? To‘g‘ri deb bilgan javobingizni romanda tasvirlangan voqealar asosida izohlang.  
A) Romanda o‘zbek xalqining 1916-yildagi mardikorlikka qarshi qo‘z-g‘oloni, Rossiya imperiyasi yemirilishi arafasidagi og‘ir hayoti, turli xil ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar, ayollar erki kabi masalalar aks etgan.  
B) Romanda asosiy masala ijodkor davridagi ijtimoiy hayotning umum-taraqqiyot yo‘llarini to‘laroq aks ettirishga qaratilgan.  
C) Romanda Turkiston xalqining ozodlik yo‘lida olib borgan kurashlari, xotin-qizlarning ozodligi masalasi asosiy o‘rin egallaydi.
2. Romandagi Abdishukur tilidan aytilgan Yo‘lchi qarashlariga zid, aksi-linqilobiy fikrlarni toping. Sizningcha, Oybekning Abdishukur obrazini kiritishdan maqsadi nima edi? U asarning tagzaminidagi **yashirin g‘oyaviy** maqsadlar ifodasida qanday ahamiyat kasb etadi?
3. Asarda Oybek jonli **xalq tili boylıkları**: xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va obrazli iboralardan, shuningdek, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a, majoz kabi **tasviriy vositalardan** foydalangan. Asardan ularga misollar toping. Muallif ulardan qay darajada unumli foydalangan?
4. Asar matnidagi XX asr boshlarida o‘lkamizda hukm surgan **jamiyat manzarasiga** tarix darslarida o‘rgangan bilimlaringizga suyanib baho bering.

### ASARDAGI OBRAZLAR



1. Adabiyotshunos olim Matyoqub Qo‘shjonov shunday yozadi: «**Yo‘lchi** xarakterining inqilobchi sifatida shaklanish tarixi romanning badiiy va g‘oyaviy xislatlarini to‘la ochib berish uchun yetarli emas». Olimning yuqoridagi fikriga munosabat bildiring. Javobingizni misollar bilan asoslashga harakat qiling.
2. Adabiyotshunos Naim Karimovning fikricha, «Oybek kishilarning pulga, mol-mulkka o‘chligi faqat ularni emas, balki jamiyatni ham halokat sari olib borishi mumkin, degan g‘oyani **Mirzakarimboy** obrazi orqali olg‘a surgan. Asardagi Mirzakarimboy obrazi bilan bog‘liq barcha voqealar ana shu g‘oyani ochib berishga safarbar etilgan». Siz bu fikrga qay darajada qo‘shilasiz?



3. «Qutlug' qon» romanidagi Yormat obrazini davrdagi vaziyat sabab **manqurtlashgan** obraz deyish mumkinmi? Javobingizni matn asosida izohlang.
4. Oybek «Qutlug' qon» romanida **xotin-qizlarning** rang-barang obrazlarini berishda qanday badiiy-g'oyaviy maqsadni ko'zlagan deb o'ylaysiz?
5. Oybekshunos olimlarning ma'lumotiga ko'ra, «Qutlug' qon»ning dastlabki nusxasida Petrov obrazi bo'lmagan. Davr adabiy mafkurasi targ'ibotchilarining qattiq tanqidlaridan keyin Oybek ushbu obrazni asarga olib kirishga majbur bo'lgan. Sizningcha, Petrov obrazini asarga olib kirishdagi **sun'iylik** nimalarda ko'rinadi?

### «QUTLUG' QON» ASARI TALQINLARI: RADIOSPEKTAKL

Asar asosida O'zbekiston teleradiokompaniyasida yaratilgan radiospektaklni tinglang. Roman matni va radiospektakl **obrazlarning** ochib berilishi va **konfliktlarning** rivojlanishi jihatidan qay darajada bir-biriga yaqin va qay darajada farq qiladi? Asarni o'qimagan kitobxonga radiospektaklni tinglashni tavsiya qilgan bo'larmidingiz? Nima uchun?



«Qutlug' qon» filmi posteri.  
«O'zbekfilm» kinostudiyasi, 1956-yil.  
Rejissyor – Latif Fayziyev.  
Yo'lchi rovida San'at Devonov

## ADABIYOT NAZARIYASI: DILOGIYA. TRILOGIYA. EPOPEYA

### ESLANG:

Roman janriga xos muhim **xususiyatlar** nimalardan iborat?

Roman bir emas, **bir necha kitobdan** iborat bo'lishi mumkin:

- **dilogiya** – ikki kitobdan iborat roman (masalan, Oybekning «Qutlug' qon» va «Ulug' yo'l» romanlari dilogiyani tashkil qiladi);
- **trilogiya** – uch kitobdan iborat roman (masalan, Said Ahmadning «Ufq» trilogiyasi uch romandan iborat: «Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo'sag'asida»).

To'rt kitobdan iborat roman tetralogiya, besh kitobdan iborat roman pentalogiya deb yuritiladi.

Hajman yirik, umumxalq ahamiyatiga molik muammolarning badiiy talqiniga bag'ishlangan roman **epopeya** deb ataladi. Epopeya odatda muayyan tarixiy voqea, davr yoki millat tarixidagi muhim burilish nuqtasini keng ko'lamda aks ettiradi. Unda ko'p sonli bosh va ikkinchi darajali qahramonlar ishtirok etadi. Lev Tolstoyning «Urush va tinchlik» (1863-1869), Jon Golsuorsining «Forsaytlar haqida qo'shiq» singari asarlari epopeyaga misol bo'la oladi.

### TAHLIL QILING:

Ayrim adabiyotshunoslar Oybekning «Qutlug' qon» romanini epopeya deb hisoblashadi. Siz bu fikrga qo'shilasizmi? Romanda epopeyaga xos **xususiyatlar** qay darajada aks etgan?

### IJOD QILAMIZ: TAQRIZ

Asarni tahlil qilish va unga baho berish maqsadida **taqriz** yoziladi. Taqrizda asarning tavsifi, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlar va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi.

Taqriz odatda quyidagi tartibda yoziladi:





- muallif va asar haqida ma'lumot;
- asarning qisqacha mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari;
- asar haqida taqriz muallifining taassurotlari;
- asar tahlili, yutuq va kamchiliklari;
- taqriz muallifining asarga bahosi, kitobxonga tavsiyalari.

Taqrizning yuqorida qayd etilgan elementlarini Tog'ay Murodning «Ot kishnagan oqshom» qissasiga yozilgan taqriz misolida ko'rib chiqamiz:

<p>Tog'ay Murod – o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va so'ziga ega bo'lgan, adabiyotga zamonaviy, xalqchil uslubni kiritgan yozuvchidir. «Ot kishnagan oqshom», «Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi», «Oydinda yurgan odamlar» kabi asarlari bilan tanilgan Tog'ay Murod o'zbek adabiyotiga milliylik ruhini qaytargan yozuvchilardan hisoblanadi. Aynan u o'zbek sovet adabiyoti qolipini parchalagan, adabiyot ruhini va matnini milliylikka qaytargan yozuvchi sifatida baholanadi.</p>	<p>Muallif haqida ma'lumot Muallif ijodining o'ziga xosligi</p>
<p>Tog'ay Murodning har bir qissasida millatning yaqin yuz yillikdagi fojiasi fosh qilib beriladi, uning asarlarida madaniyatlar to'qnashadi, zulmning bor qiyofasi ochiladi, xo'rlangan va xorlangan ruh, milliy madaniyat ohanglari tirilib millatga qaytariladi. Millatga har bir qaytarilgan ruh kitobxonga «yuqadi». Shu jumladan, «Ot kishnagan oqshom» asarida ham sevgi, yurt, millat tushunchalari qoliplangan so'zlar shaklida emas, tabiiy, oddiy, kamtarona, ming yillar mobaynida shakllangan madaniyat qanday bo'lsa, sof tuyg'ular ham shunday «tiriltiriladi». Yozganlari o'quvchi qalbiga kiradi. Qishloqning oddiy, o'qimagan, chapani insonining ham ko'ksida urib turgan, ulkan yuragi «milliy ruhni» singdiradi.</p> <p>Asarni o'qiganimizda Surxon vodiysining o'ziga xos nafasini sezgandek bo'lamiz, mehnatsevar, kamtar va tanti chorvadorlar, bog'bonlarga nisbatan dilimizda samimiy mehr uyg'onadi. Bu sodda, beg'ubor insonlarning turmush tarzi qanchalik oddiy bo'lmasin, kitobxon e'tiborini tortadi. Qissa «Alpomish» dostoni an'alarini eslatadigan xalqchil ruh bilan sug'orilgan. Nafaqat bu doston, qissada butun xalq og'zaki ijodiga aloqador uslub seziladi. Tog'ay Murodning o'zi ham Alpomish va Barchinlarni bergan go'zal vodiylar, bepoyon yaylovlarda o'sganligi uning so'z boyliklaridan, yozuvchilik uslubi va o'ziga xos ovozidan sezilib turadi.</p>	<p>Asar haqida ma'lumot Asarning g'oyaviy va badiiy xususiyatlari</p>

<p>Qissaning bosh qahramoni Ziyodulla oddiy bir cho‘pon. Uning o‘z oti Tarlonga bo‘lgan mehri – insonning tabiatga qo‘ygan mehriday sof. Tarlon tabiat timsoli bo‘lgani uchun ham yozuvchi uni yorqin bir obraz darajasiga ko‘tarib tasvirlaydi.</p> <p>Ziyodulla o‘zi yashayotgan joydagi ikkiyuzlamachi va riyokor odamlarga qarshi dadil kurashadi. U hatto o‘zidagi jismoniy nuqsonga qarshi isyon ko‘taradi, «kal» degan malomatni ma‘naviy ustunlik – mohir chavandozlik shuhrati bilan yengib o‘tadi. Vaholanki, jamiyatdagi munofiqlikni yengishga bir kishining kuchi yetmasa-da kurash yo‘lini tanlaganlar kamdan kam topiladi. Ziyodulla chavandoz aynan shunday, qishloqning sodda, chapani insoni!</p>	<p>Asarning qisqacha mazmuni</p>
<p>Tog‘ay Murodning barcha asarlarida shevaga oid so‘zlar qo‘llansa-da, aynan dialektizm qahramon xarakterini ochib berishda, uning ruhiy pozitsiyasini belgilashda asosiy rolni o‘ynaydi. Aynan qissada Ziyodulla chavandozning chapani nutqi, Surxon vohasidan ko‘pkariyu, dala-dashtning «hidi»ni olib keladi. Yozuvchining yana bir uslubi ko‘zga tashlanadi: uslubda qisqalik! Takrorlar! Qisqalik va takror inson tuyg‘ularini to‘la darajada kitobxonga yetkazadi. Aynan Tog‘ay Murod asarlaridagina mana shu shakllar ko‘p uchraydi. Shevaga xos so‘zlar alohida ohang va musiqiylikni shakllantirib bir umumiy kuydek jaranglaydi.</p>	<p>Asarning badiiy xususiyatlari</p>
<p>Qissada asl o‘zbekning sodda va samimiyligi eng go‘zal ifodalar bilan ko‘rsatilgan. Ziyodulla kal Tarlonga shunchalik mehr berib, ardoqlagani va hayvon bo‘la turib Tarlon ham unga o‘zidan-da ortiq sadoqat ko‘rsatolgani, eng og‘ir damda, inson insonga xiyonat qilganda ham o‘sha sadoqatiga, do‘stligiga sodiq qololgani ham havasli. ham alamli.</p> <p>Biz hayotdan doim eng yaxshi, eng pokiza tuhfalarni kutamiz. Lekin doim unaqa bo‘lmaydi va insonni baxtsizligiga, fojiasiga sabab inson bo‘laveradi, bo‘laveradi...</p> <p>Tog‘ay Murod ana shu fojiani eng mukammal bo‘yoqlarda aks ettirgan.</p>	<p>Asar tahlili</p>

Nima uchun Tog‘ay Murodning asarlari o‘qishli?!

Sababi – yozuvchi «Otamdan qolgan dalalar»ni yozishdan avval yillab paxta ekan, «Yulduzlar mangu yonadi»ni yozishdan oldin uzun kechalarni polvonlar orasida bedor o‘tkazgan, «Ot kishnagan oqshom»ni yozishdan avval o‘qigan, boqqan, mehr bergan...

Ana keyin asarlari kitobdan turib bizning ruhimizga ko‘choladigan «tirik» asar bo‘lgan. Bizni asarda, asar qahramonlariga aylantirib «yashatish» uchun Tog‘ay Murod ham avval o‘zi asarlariga aylanib yashab chiqqan.

Zoti nomard bo‘ldi, ushbu qissalar yoqasidan oldi. Og‘zi buzuk bo‘ldi, ushbu qissalarga tupugini sochdi. Qo‘li nopok bo‘ldi, ushbu qissalardan butun-butun boblarni o‘chirib tashladi. Oqibat, ushbu qissalar o‘z vaqtida pati yulinmish tovuq misol chop etildi.

Alqissa, dorilomon kunlar keldi. «Ot kishnagan oqshom»dagi Ziyodulla chavandozchasiga aytar bo‘lsak... uloq Tog‘ay Murodda ketdi!

Taqriz  
muallifining  
asarga bahosi

*(Internet manbalaridan olindi)*

### TAHLIL QILING:

Internetdan taqriz namunalarini toping. Taqrizning yuqorida ko‘rsatilgan tarkibiy qismlari ushbu namunalarda qanday aks etgan?



#### Guruhlarda ishleng.

«Qutlug‘ qon» romaniga taqriz yozing. Sinfda har bir taqrizning yutuq va kamchiliklarini muhokama qiling.

# Andre Morua

(1885–1967)

## «QAYTISH»: INSON TUYG'ULARINING BADIY IFODASI

### Mavzuni o'rganish jarayonida:

- «Qaytish» hikoyasidagi turfa **xarakterlarni** va hikoya **kompozitsiyasini** tahlil qilamiz.

«**M**adaniyatli inson bo'lishning bittagina yo'li bor, u ham bo'lsa –  
kitob o'qishdir.»

Andre Morua



## ADIB HAQIDA

### HAYOTI VA FAOLIYATI

Andre Morua (asl ismi Emil Salomon Vilhelm Erzog)– fransuz adabiyotining yorqin namoyondasi. U 1885-yil Elbyof shahrida tavallud topdi. Ruan litseyini bitirgan Morua birinchi jahon urushi davrida harbiy tarjimon va aloqa xodimi boʻlib xizmat qildi. Yozuvchining 1918 yilda urush taassurotlari asosida yozilgan dastlabki «Kamsuxan Polkovnik Brambl» nomli romani koʻplab xorijiy tillarga tarjima qilindi va ijodkorga katta shuhrat keltirdi.

Morua 1938-yilda Fransiya akademiyasining aʼzosi etib saylandi. Ikkinchi jahon urushida Fransiya armiyasi safida xizmat qildi. Ikkinchi jahon urushidan soʻng yozuvchining qator badiiy asarlari va adabiy-tanqidiy esselari nashr etildi.

Adibning «Bernar Kene» (1926), «Taqdir oʻyinlari» (1928), «Oilaviy davra» (1932), «Ona zamin» (1945) kabi romanlari fransuz jamiyatidagi oliy tabaqa vakillari hayoti haqida hikoya qiladi.

Morua hikoyalari va tarixiy shaxslar haqidagi hujjatli romanlari bilan mashhur. U «Ariyel yoki Shelli hayoti» (1923), «Bayron» (1930), «Turgenev» (1931), «Leliya yoki Jorj Sand hayoti» (1952), «Olimpio yoki Viktor Gyugo hayoti» (1954), «Uch Dyuma» (1957), «Prometey yoki Balzak hayoti» (1965) singari asarlari bilan jahon adabiyotida biografik roman janrining rivojlanishiga katta hissa qoʻshdi.

Adib 1967-yilda Parij yaqinidagi Neyi-sur-Sen shaharchasida vafot etgan.

### *Bilasizmi?*

Hujjatli romanlarda asosan tarixiy voqealar yoki taniqli insonlarning tarjimayi holi bayon qilinadi. Bunday asarlar real voqealar, guvohlarning xotiralari va arxiv hujjatlari asosida, koʻpincha publitsistik uslubda yoziladi. Hujjatli romanlar ilmiy tadqiqotlardan voqealarning yorqin manzarasini, odamlarning jonli va psixologik qiyofasini qayta yaratishi bilan ajralib turadi.





## O'QISHGA TAYYORLANAMIZ

### ESLANG:

Urushning insonlar orasidagi **munosabatlarga ta'siri** haqida qanday asarlarni o'qigansiz? Bu asarlarda sevgi, sadoqat, ishonch singari masalalar qanday talqin qilingan?

Ikkinchi jahon urushi vaqtida Fransiya Germaniya bosqiniga qarshi kurash olib bordi, ammo kuchlar o'rtasidagi notenglik Fransiyaning fashistlar tomonidan bosib olinishiga olib keldi. Natijada ko'plab fransuz askarlari asir olinib, Germaniyaning mehnat lagerlariga yuborildi. Fashizm ustidan g'alaba qozonilgach, bu asirlar ozod qilinib, ona vatani Fransiyaqa qaytdilar.

Biz o'qiydigan hikoyada asirlikdan qaytayotgan sobiq askarlarning oilasiga bo'lgan mehr-muhabbati, xavotirli o'y-xayollari yozuvchi tomonidan badiiy talqin qilinadi.



*Asirlikdagi fransuz askarlari, 1941-yil*

### O'YLAB KO'RING:

Asirlikdan ozod bo'lib, vataniga qaytayotgan sobiq askarlarning xayolidan qanday o'ylar o'tishi mumkin?

## QAYTISH

Bu voqea fransuz asirlarini Germaniyadan — tutqunlikdan olib qaytayotgan poyezdda boshlangan edi. O'n kishilik kupeda o'n ikki kishi tiqilishgan. Ular uylari, oilalarini ko'rish imkoni tug'ilganidan g'oyat hayajonda. Deyarli hammalarining ham fikr-u xayolini, eng avvalo, rafiqalari band etgan. Ayrimlarining ko'nglida umid uchqunlari chaqnar, ba'zilari esa xavotirlanib o'ylar edi: «Rafiqam avvalgiday vafodor va sodiqmikin? Uzundan-uzoq tanholik yo'llarida qanday o'zgarishlar ro'y berdi ekan? U bilan hayotni davom ettirish mumkin bo'larmikin?»

Bola-chaqalilar, har holda, ancha xotirjam. Ularning rafiqalari bola tarbiyasi bilan kun o'tkazgandir. Bu uchrashuv o'ng'aysizligi bolalar quvonchi tufayli yengil ko'chsa ajabmas...

Kupening bir burchagida baland bo'yli, qotmadan kelgan, ko'zlari chaqnoq, fransuzdan ko'ra ko'proq ispanga o'xshash kishi o'tirar edi. O'zini Reno Leymari deb tanishtirgan bu odam shardeylik bo'lib, Perigorda yashardi. Tun og'ushida ilgarilayotgan poyezdning bir maromdagi taraqturuqini parovoz gudogi bo'lib turar, Reno esa ro'parasidagi hamrohi bilan gaplashib borardi.

— Saturnen, uylanganmisan?

— Bo'lmasam-chi! Urushdan ikki yil avval uylanganman, ikki bolam bor edi. Xotininimning ismi Marta. Suratini ko'rsataymi?

Past bo'yli, yuzi chandiq, ammo quvnoq Saturnen ichki cho'ntagidan titilib ketgan katmonchani olib, yirtiq bir surat chiqardi-da, iftixor bilan Renoga uzatdi...

— O, juda chiroyli ekan, — dedi Leymari. — Shundoq go'zalning oldiga hech xavotirlanmasdan qaytyapsanmi?

— Nega endi xavotirlanay?

— Chunki, xotining juda chiroyli, shuncha vaqt o'zi yolg'iz qoldi, atrofida esa boshqa erkaklar bor... — dedi Leymari.

— Kulgimni qistatyapsan! Mening Martam shundayki... manman degan yigitga ham qaramaydi. Biz shunday baxtiyor edikki... Besh yil mobaynida menga yozgan xatlarini ko'rganingda bormi?..

— E-e... bu xatlar! Men ham shunaqa iliq xatlardan ozmunchasini oldimmi! Ammo, baribir, tashvishdaman.

— Qiziq, xotiningga ishonmaysanmi?

— Ishonishga ishonamanku-ya, to'g'rirog'i — ishonardim. Olti yil birga yashab, sirayam san-manga bormaganmiz.

— Xo'sh?..

— E, og'ayni, bu — odamning tabiatiga bog'liq... Men boqibeg'amlikka ishonmaydigan odamlar toifasidanman. O'z-o'zimga doimo: «Elenning

tengi emasman, u go‘zal, juda aqlli, odobli», — deb kelganman. Rostdanam xotinim juda bilimdon, qo‘lidan kelmaydigan ish yo‘q. Har qanaqa matodan shundayin ko‘ylak tikadiki, hammaning havasi keladi. Oddiy kulbani jihozlashga kirishsa bormi, naq jannat qilib yuboradi... Shularni o‘ylab turib o‘zimga-o‘zim deyman: axir yurtimizda kelgindilar qancha yil izg‘ib yurishdi. Ular orasida mendan ko‘ra istarasi issiqroqlari bo‘lgandir-ku... Qishloqning eng go‘zal ayoli — Elen shular e‘tiborini o‘ziga jalb etmadimikin?..

— Nima bo‘pti? Agar u seni sevsa...

— Shundayku-ya, og‘ayni, besh yil yolg‘izlikni tasavvur qila olasanmi? Elen Shardeyda musofir. Shardey — mening yurtim, uning bu yerda hech kimi yo‘q. Shunday bo‘lgach, yo‘ldan toyishi hech gap emas-da...

— E-e, juda g‘alati ekansan-ku, esing joyidami o‘zi? Xo‘p, biror narsa yuz berdi ham deylik. Hayotda nimalar bo‘lmayapti, axir! Menga qara, agar biror kimsa: «Sening Martang...» deb og‘iz ochishi bilan men unga: «Og‘zingni yum. Xotin meniki, buni urush deydilar; u yolg‘iz edi; endi esa tinchlik. Biz hayotni qaytadan boshlaymiz», — degan bo‘lar edim.

— Men sendaqa emasman-da, — dedi Leymari. — Agar qaytganimdan keyin biror narsa sezsam bormi...

— Unda nima qilasan, xotiningni o‘ldirasanmi?! Tentak ekansan-ku!

— Yo‘q, unga qo‘limni ham tekkizmayman. Hatto bir og‘iz gapirmayman. Ammo o‘sha zahotiyoyq g‘oyib bo‘laman. Uzoqlarga ketib qolaman, nomimni o‘zgartirib yashayman. Uy-joy — hammasini unga qoldirib ketaman. Menga hech narsa kerak emas, qo‘limda hunarim bor... Hayotimni tamomila o‘zgartirib yuboraman. Bilmadim, bu balki telbalikdir, ammo tabiatim shunday. Menga baxt butun bo‘lsa, yoinki...

Poyezd uzoq gudok chalib, relslarni sharaqlatib vokzalga kirib keldi. Ikki suhbatdosh jim bo‘lib qolishdi.

Shardey oqsoqoli qishloq o‘qituvchisi edi. U juda ko‘ngilchan va ehtiyotkor odam. Reno Leymari poyezdda qaytib kelayotganligi haqida u ministrlikdan xabar oldi-yu, o‘zi borib Elenga aytishga ahd qildi. Oqsoqol borganida Elen bog‘ida kuymalanib yurgan edi. Bu — qishloqning eng xushmanzara bog‘laridan bo‘lib, eshikning ikki tomonini atirgullar bezab turardi.

— Leymari xonim, sizni yaxshi bilaman, erining qaytib kelayotganidan ogoh qilib qo‘yish lozim bo‘lgan ayollardan emassiz. Ammo, shuni aytishim kerakki, xatti-harakatingiz, odobingiz bilan butun qishloq ahlining hurmatiga sazovor bo‘lgansiz. Hatto og‘ziga kelganini ayamay, har qanday ayolni badnom qiladigan g‘iybatchi xotin-xalajlar ham sizni yomonlashga so‘z topolmayptilar.

— Biror narsa topishar, oqsoqol, — dedi Elen jilmayib.



— Men ham shunday bo‘lar, deb o‘ylagan edim, ha o‘ylagan edim!... Ammo siz ularni ham rom qilib qo‘ydingiz. Men sizning quvonchingizni o‘z ko‘zim bilan ko‘rgani keldim. Shunisi ham borki, uning kelishiga hozirlik ko‘rishingiz kerak, Leymari xonim. Turmush og‘ir, hammamizning ahvolimiz ma‘lum: har kuni dasturxon tuzay olmaymiz-ku...

— Juda yaxshi qilibsiz, janobi oqsoqol. Men Renoni shundayin kutib olayki!.. Yigirmanchi avgustda dedingizmi? Poyezd soat nechalarda kelarkin? Bilmaysizmi?

— Ministrlikdan xabar qilishlaricha, soat yigirma uchda yo‘lga chiqadi. Bu poyezdlar juda imillab yuradi... Tever vokzalida poyezddan tushsa, bu yergacha Reno yana to‘rt kilometr piyoda bosadi. Menimcha, u tushda yetib kelsa kerak.

— Men uni kutib olishga shundoq hozirlik ko‘rayki, janobi oqsoqol, shohona bir dasturxon tuzayki... Shundoq xushxabarni keltirganingiz uchun mingdan-ming rahmat sizga.

— Shardeyda sizni hamma hurmat qiladi, jonidan sevadi, desa ham bo‘ladi. Siz asli bu yerlik emassiz, ammo hamma sizni hamqishloq deb biladi.

Nihoyat oqsoqol xayrlashib chiqib ketdi.

Elen Leymari eri kelishidan bir kun avval butun uyni saranjom-sarishtaladi: pollarni yaraqlatib, deraza pardalarini eskirgan lentalarigacha yangiladi. Keyin qishloq sartaroshinikiga borib, sochini jingalak qilib keldi. Tuni bilan boshiga setka kiyib yotdi. Sal-pal uxladimi-yo‘qmi, yana azonlab turib oldi. So‘ng, kiyimlarini bir-bir ko‘zdan kechirdi. Uzoq yolg‘izlik davrida bir marta ham kiyilmagan, o‘zi sevgan shohi ko‘ylagini ajratib qo‘ydi. «Qaysi ko‘ylagimni kiysamikin, bir vaqtlar erim yoqtirgan zarhal yo‘lli havorang ko‘ylagim qalay ekan?» Ammo uni kiyib ko‘rgach, darhol yechib tashladi: o‘tgan yillar davomida shunchalik ozib ketganidan, ko‘ylak halpillab, bellari osilib qolgan edi. Yo‘q, o‘zi tikkan qora ko‘ylagini kiya qoladi: yoqasini bejab, beliga rangdor belbog‘ taqadi.

Dasturxon tuzashga kirishishdan avval Elen eri yoqtirgan taomlarni eslashga harakat qildi. 1945-yil Fransiyada hali ahvol og‘ir edi. Birini topsang, biri yo‘q... Eri esa shokoladni yoqtirardi. Shokolad topib bo‘larmishmi? Yaxshiyamki, kichkinagina shaxsiy xo‘jaligi bor. Shu tufayli tovuqlar tuxum berib turadi. Eri doimo: «Quymoqni hech kim sendek mazali tayyorlay olmaydi», — deb maqtardi. Reno yaxna go‘shni, qizartirib pishirilgan olmani ham xush ko‘rguchi edi. Lekin shardeylik qassob ikki kundan beri do‘konni ochmay qo‘ydi... Elen o‘tgan kuni so‘yilgan tovug‘ini yaxshilab qovurdi. Qo‘shni qishloqdagi do‘konchi yashirincha shokolad sotar ekan, deb qo‘shnisidan eshitgan edi, borib-kelishga ahd qildi. «Soat sakkizda ketsam, to‘qqizgacha qaytib kelaman... Ketgunimcha dasturxon

tuzab qo‘ysam, kelgandan keyin faqat oshxonada band bo‘laman», — o‘yladi Elen va ishga kirishib ketdi. U juda hayajonlangan, shu bilan birga, behad shod edi. Havo shunaqa ham yaxshi ediki... Nazarida hech qachon oftob bunchalar charaqlamagandek... Elen shirin xayollar bilan dasturxon tuzashga tushdi.

«Qizil katak oq dasturxonni yozaman. To‘yimizdan keyingi ilk bor yozgan dasturxonimiz shu. Pushti likopchalarning gullari Renoga juda yoqardi... Bir shisha vino va gullar qo‘yaman. Axir u stolda gul bo‘lishini qanchalar yaxshi ko‘rardi: «Gullarni hammadan ham chiroyli dastalaysan», — derdi takror-takror.

Elen uch xil gul: oq moychechak, qizil lola, binafshani dastaladi, shi-namgina bezatilgan xonani o‘zi uzoq tomosha qildi. Rostdanam hamma narsa joyida edi. Ne-ne baxtiqaroliklarga duchor bo‘lgan Reno shuncha judolikdan keyin uy-joyi va xotinini o‘sha-o‘shaligicha ko‘rib quvonib ketsa kerak...

#### **O‘YLAB KO‘RING:**

«...Ne-ne baxtiqaroliklarga duchor bo‘lgan Reno shuncha judolikdan keyin uy-joyi va xotinini o‘sha-o‘shaligicha ko‘rib quvonib ketsa kerak...»  
Muallifning bu fikriga qo‘shilasizmi?

Derazaning bu tomonidan turib Elen katta toshoynaga qaradi. Ozgina ozganini aytmasa, o‘zi ham deyarli o‘zgarmabdi. U baxtiyorlikdan gangib qolayotganini his qilardi...

«Yetar! — dedi o‘ziga-o‘zi, — tezroq bora qolay... Soat necha bo‘ldiykin? Voy, to‘qqizdan oshibdi-ku! Bu ishlar o‘ylaganimdan ko‘ra ko‘proq vaqtimni olibdi-da. Poyezd soat o‘n ikkilarda keladi, degan edi oqsoqol. Men undan avval qaytaman».

So‘ng, uydan shoshilinch chiqib ketdi...

Leymarilar uyi qishloq chekkasida bo‘lgani uchun ham ko‘zlari chaqnoq, oriq soldatning bog‘ tomon o‘tganini hech kim ko‘rmadi. U charaqlagan oftobu xushbaxtlikdan, asalarining g‘o‘ng‘illashidan gullarga maftun boqib, bir muddat mastona turib qoldi. Keyin ohistagina chaqirdi:

— Elen!

Hech kim javob bermadi. U yana bir necha bor: “Elen! Elen!” deb chaqirdi. Javob bo‘lmagach, xayoli qochib, deraza yoniga bordi: ikki kishi uchun tuzalgan dasturxon, gul va vinoni ko‘rib yuragi gupillab urib ketdi. U bir muddat devorga suyanib qoldi.

«Yo rabbim! Xotinim yolg‘iz emas ekan!» — o‘yladi Reno.

Bir soat keyin Elen qaytib kelganida qo‘shnisi unga:





– Renoni ko‘rdim, u chopib ketayotgan ekan. Shuncha chaqirsam ham qayrilib qaramadi, – dedi.

– Chopib ketayotuvdi, deysizmi? Qaysi tomonga ketayotuvdi?

– Tever vokzali tarafga.

Elen avval oqsoqolnikiga yugurdi, u hech narsadan xabarsiz edi.

– Juda qo‘rqayapman, shunday qo‘rqayapmanki, oqsoqol janoblari. Uning fe‘li tor, juda rashkchi. Ikki kishilik dasturxon tuzalganini ko‘rib... O‘zini kutayotganligimni bilmagan. Hozirning o‘zidayoq uni topish kerak, oqsoqol janoblari, topish kerak! U endi butunlay qaytib kelmasligi mumkin. Men uni shunday sevamanki!..

Oqsoqol vokzalga velosipedchi yubordi, politsiyachilarni ogohlantirdi, ammo Reno Leymari g‘oyib bo‘lgan edi. Elen issiqdan so‘ligan gullar va tuzalgan dasturxon yonida tuni bilan tuz totmay tong ottirdi.

Oradan bir kun, bir hafta, bir oy ham o‘tdi. Bu baxtsiz kundan so‘ng yana qancha yillar ham o‘tdiki, eridan hamon darak yo‘q...

Reno o‘qigach qaytib kelar, degan umidda bu hikoyani yozdim.

*(Fransuz tilidan Nazira Yusupova tarjimasini)*

**Perigor** – Fransiyaning janubi-g‘arbiy qismidagi go‘zal tabiatli, boy tarixiy merosi bilan mashhur tarixiy va madaniy mintaqa



*Perigor mintaqasi, Fransiya*

## MUTOLAADAN SO'NG

### ASAR TAHLILI



1. Elenning erini kutib olishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida undagi qanday **tuyg'ularni** payqadingiz?
2. Sizningcha, olti yillik turmushda kim kimni **ko'proq o'rgangan** bo'lishi mumkin: Reno Elenimi yoki Elen Renoni? Nima uchun?
3. Sizningcha, agar Reno urushga ketmaganida Leymarilar oilasi **baxtli** yashay olarmidi?
4. Muallif Shardey oqsoqolini «juda **ko'ngilchan va ehtiyotkor odam**» deb ta'riflaydi. Oqsoqolning ko'ngilchanligi va ehtiyotkorligi asar voqealariga qay darajada ta'sir qildi?
5. Hikoya qahramonlari **xarakteriga** xos xususiyatlarni toping va quyidagi jadvalni to'ldiring.

Qahramon	Qahramon xarakteriga xos xususiyatlar	Matndan misollar
Reno		
Elen		
Saturnen		

6. Hikoyadan kelib chiqadigan **xulosani** bitta gap, maqol yoki aforizm bilan ifodalang.


### ASARNING BADIY XUSUSIYATLARI



1. «Qaytish» hikoyasi syujeti qanday **konflikt(lar)** asosiga qurilgan?
2. Hikoyada **syujet elementlarini** (ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim) ajratishga harakat qiling.
3. Yozuvchining **so'z bilan ishlash** iste'dodiga baho bering. Hikoyadagi qaysi o'rinlar qahramonlarning to'laqonli **portretini** yaqqol ko'z oldingizga keltirishga, **ruhiyatini** tushunishga yordam beradi?

### TADQIQ QILING:

Nega urush payti Fransiyada shokolad **yashirin biznesga** aylangani haqida o‘ylab ko‘ring. Boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib, ma’lumot to‘plang va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.



### YOZMA TOPSHIRIQ

Guruhlarda ishlang. Reno dasturxon uning uchun yozilganligini bilsa, asar qanday yakun topgan bo‘lardi? Shu asosda hikoyaning davomini yozing. Yozganlaringizni ustozingiz va sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.

## ADABIY LABORATORIYA

Adabiy laboratoriya – muayyan adabiy mavzular doirasida olib boriladigan ijodiy tadqiqot va loyihalar, yangiliklar va kashfiyotlardir. Ayrim loyihalarni yakka o‘zingiz bajarasiz, ayrim loyihalar ustida ishlashda esa sizning o‘ziga xos fikrli jamoangiz bo‘ladi. Adabiy laboratoriyada siz o‘zingiz o‘qigan badiiy asarlar, shuningdek, o‘z g‘oyalaringiz asosida **yangi ijodiy mahsulot** yaratasiz.


Adabiy laboratoriyada olib boriladigan har bir tadqiqot **kreativ yondashuv** asosida bo‘lishi kerak. Kreativlik – bu muammoni yechish, maqsadga erishishning **original, noodatiy** yo‘llarini taklif qila olishdir. Shunchaki olingan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo‘lmaydi – ijodiy fikrlash jarayonida **yangi** fikr, yangi g‘oyaning paydo bo‘lishi kreativlikning asosiy shartidir.

Aziz o‘quvchi, o‘z tadqiqot va loyihalaringiz bilan yangi ufqlarni zabt etishga tayyormisiz? Agar tayyor bo‘lsangiz, 1-laboratoriya mashg‘ulotini boshlaymiz!

### 1-LABORATORIYA MASHG‘ULOTI: BADIY MATN ASOSIDA AUDIO KITOB TAYYORLASH

**Audio kitob** – tovush (ovoz) orqali yozilgan (ovozlashtirilgan) va ovozli fayl sifatida saqlangan asar. Dastlabki audio kitoblar gramplastinkalarga yozilgan va ko‘zi ojizlarni badiiy asarlar bilan tanishtirish uchun mo‘ljallangan. Birinchi tijorat maqsadidagi audio kitoblarni esa 1952-yilda AQShning «Caedmon Records» kompaniyasi ishlab chiqargan.

*Ingliz yozuvchisi Lyuis Kerrolning  
«Alisa mo‘jizalar mamlakatida»  
asari asosida gramplastinkaga  
yozilgan audiokitob*



Raqamli texnologiyalar va internet rivojlanishi bilan audiokitoblar kompakt disklarda yoki to'g'ridan-to'g'ri internetdan yuklab olsa (eshitsa) bo'ladigan audiofayllar sifatida tarqatila boshlandi. 1996-yilda audio kitob ishlab chiqaruvchilari uchun maxsus «Audie» mukofoti joriy etildi. 2006-yilga kelib jahon audio kitoblar bozorining hajmi 800-850 mln AQSh dollariga yetdi. 2014-yilda Kaliforniyada vokal san'ati va audio kitob ishlab chiqarish texnologiyalari instituti ochildi.

O'zbekistonda oxirgi yillarda audio kitoblarga ehtiyoj oshishi natijasida audio kitoblarni sotish yoki bepul tarqatish bilan shug'ullanuvchi saytlar, ilovalar va telegram kanallar rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining «audiobook.edu.uz» va Respublika bolalar kutubxonasining «Kitob.uz» saytlari, O'zbekiston Milliy tele-radiokompaniyasining «MTRK audiokitoblar» telegram kanali, mobil telefonlar uchun «UzBook» ilovasi shular jumlasidandir.

## Laboratoriya ishini bajarish



1. O'rganilgan asarlar orasidan o'zingizga yoqqan matn (parcha) tanlang.
2. Matnni o'qib ko'ring. Tinish belgilariga e'tibor bergan holda, matndagi ma'noni ovoz va ohang yordamida tinglovchiga qanday yetkazishni o'ylab ko'ring.
3. Matnni ovoz chiqarib o'qing va audiofayl sifatida saqlang. (Izoh: Qo'l telefoningizning ovoz yozish (diktofon) xizmatidan foydalanishingiz ham mumkin.)
4. Audio matn foni uchun musiqa tanlang.
5. Audio matnga badiiy bezak (aranjirovka) bering.
6. Audioni eshitib ko'ring. O'ylab ko'ring: Matndagi ma'noni qay darajada yetkaza oldingiz? Matn tinglovchiga qay darajada ta'sir qiladi?
7. Tayyorlangan audio kitobni sinfga taqdimot qiling.
8. Taqdimot va muhokamadan so'ng quyidagi jadvalni to'ldiring.

Tayyorlangan mahsulotning qisqacha tavsifi	
Tayyorlangan mahsulot bo'yicha berilgan xulosa va tavsiyalar	
Mahsulotni tayyorlash jarayonida men qanday vazifalarni bajardim?	
Laboratoriya natijasida nimalarni o'rgandim?	




## 2-LABORATORIYA MASHG'ULOTI: KITOB UCHUN REKLAMA – KITOB TREYLERI («BOOK TRAILER») TAYYORLASH

Zamonaviy dunyoda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning kelajagi uning sifatli ekanligi bilan birga, targ'ibotga, reklamaga ham bog'liqdir. Mahsulot qancha ko'p targ'ib qilinsa va bu targ'ibotda noodatiy, kreativ yondashuvlar qo'llanilsa, uning tarqalish geografiyasi ham shuncha katta bo'ladi. Jahon kitob sanoatida marketologlar (mahsulot yoki xizmatni reklama qilish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar) har bir kitob reklamasi ustida qattiq ish olib borishadi. Bugungi laboratoriya mashg'ulotimizda kitobni ommalashtirish va reklama qilishning zamonaviy yo'nalishlaridan biri – kitob treyleri («book trailer») ustida ishlaymiz.



**Treyler** (inglizcha «trailer») – biror filmni reklama qilish uchun ishlatiladigan, filmning eng qiziqarli lavhalaridan tashkil topgan kichik videoklip. Treyler tomoshabinni o'ziga jalb qilishning zamonaviy usulidir. Hozirgi kunda kitob reklamasi ham bundan unumli foydalanilmoqda.



**Kitob treyleri («book trailer»)** – kitob haqida hikoya qiluvchi qisqa videorolik. Ushbu videorolikning maqsadi yangi nashr etilgan kitobni reklama qilish va unga bo'lgan qiziqishni orttirishdir. Ilk kitob treylarlari slayd-shou shaklida bo'lgan.

Odatda, treylerning davomiyligi 3 daqiqadan oshmaydi. Kitob treylarini yaratishda videofilmlardan, rasmlardan, fotosuratlardan, kitob uchun maxsus ishlangan muqovalardan foydalanish mumkin.

Kitob treylarlari uchun asosiy talablar quyidagicha:

- asar syujetining asosini taqdim etish;
- o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qilish;
- kitobning asosiy g'oyalarini qisqacha, sirli tarzda ifodalash.

## Laboratoriya ishini bajarish

Guruhlarga bo'ling. Guruh ichidan muharrir, rejissyor, montajchi va ovoz rejissyorini saylang.

Kitob treylerini bajarilish bosqichlarini tuzib oling.

Namuna:

– internet manbalaridan kitob treylerlari namunalarini ko'rish va tahlil qilish;

– reklama uchun kitob tanlash;

– tanlagan kitobdan video uchun kichik syujet yozish;

– illyustratsiyalar, rasmlar, video materiallarni topish yoki maxsus ssenariy bo'yicha video suratga olish;

– kitobning asosiy g'oyasini treyler sarlavhasiga qo'yish;

– ovozli materialni yozib olish.

Tayyorlangan kitob treylerini sinfga taqdimot qiling. Taqdimot va muhokamadan so'ng quyidagi jadvalni to'ldiring.

Tayyorlangan mahsulotning qisqacha tavsifi	
Tayyorlangan mahsulot bo'yicha berilgan xulosa va tavsiyalar	
Mahsulotni tayyorlash jarayonida men qanday vazfalarni bajardim?	
Laboratoriya natijasida nimalarni o'rgandim?	

## MUNDARIJA

### **Adabiyot va san'at**

*(Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov)*

4

### **Abdulla Qodiriy**

*(Zulxumor Mirzayeva)*

«O'tkan kunlar»: O'zbek adabiyotining shoh romani  
Adabiyot nazariyasi: Roman. Syujet

8

### **Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon**

*(Zulxumor Mirzayeva)*

«Kecha va kunduz»: O'zbek nasrida yangicha yondashuv  
Adabiyot nazariyasi: Portret. Obraz. Ijodkor uslubi  
«Adabiyot nadir»: Badiiy so'z yuki haqida o'ylar  
Ijod qilamiz: Annotatsiya

28

### **Mixail Bulgakov**

*(Komil Jalilov)*

«Ityurak»: Fantastika va grotesk yordamida ko'tarilgan  
ijtimoiy-siyosiy muammolar  
Adabiyot nazariyasi: Satira. Grotesk

58

### **Jon Golsuorsi**

*(Jamoliddin Nurmuhammadov)*

«Adabiyot va hayot»: estetik did takomilida badiiy san'atning o'rni

72

**XX asr o‘zbek adabiyoti:**  
**1930-yillarning ikkinchi yarmi – 1980-yillar**  
*(Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov)*

**82**

**Hamid Olimjon**  
*(Zulxumor Mirzayeva)*

Ruh erkinligini qo‘msagan ijodkor  
Adabiyot nazariyasi: Barmoq va aruz vaznlari

**88**

**Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek**  
*(Jamoliddin Nurmuhammadov)*

«Qutlug‘ qon»: Soddadil insonlar zahmatining badiiy ifodasi  
Adabiyot nazariyasi: Dilogiya. Trilogiya. Epopeya  
Ijod qilamiz: Taqriz

**104**

**Andre Morua**  
*(Jamoliddin Nurmuhammadov)*

«Qaytish»: Inson tuyg‘ularining badiiy ifodasi

**128**

**Adabiy laboratoriya**  
*(Jamoliddin Nurmuhammadov)*

**138**

*O'quv nashri*

**Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov, Jamoliddin Nurmuhammadov**

## **ADABIYOT**

**Ijod maktablarining 11-sinfi uchun darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Prezident ta'lim muassasalari  
agentligi huzuridagi ilmiy-metodik kengashi tomonidan tavsiya etilgan*

*Birinchi nashr*

*O'zbek tilida*

Muharrir: *Yorqin Inog'omov*  
Badiiy muharrir va sahifalovchi: *Yelena Belyatskaya*

Nashriyot litsenziyasi AI №015. 20.07.2018.  
Bosishga 06.11.2020-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×84<sup>1/8</sup>.  
«Georgia» garniturasi. Shartli bosma tabog'i  
Adadi , Buyurtma №

Original-maket «Zamin Nashr» MCHJda tayyorlandi.  
«Credo Print» kitob fabrikasida chop etildi.  
100053, Toshkent shahar, Bog'ishamol ko'chasi, 160-uy.  
Tel: 71 234-44-01/05. [www.credoprint.uz](http://www.credoprint.uz)